

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI XALQ TA'LIMI VAZIRLIGI
NAVOIY DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI**

Qo'lyozma huquqida

Sharipova Raxima

**“QISASI RABG'O'ZIY” BADIYYATI
(obraz, syujet, mifologik mohiyat va motiv)”**

**Ixtisoslik: 5A11201-o'zbek tili va adabiyoti
magistr
darajasini olish uchun taqdim etilgan**

DISSERTATS

Ilmiy rahbar:

f.f.n. D.Rajabova

NAVOIY - 2014

REJA

KIRISH

I BOB. “Qisasai Rabg’o’ziy”da obraz va mifologik talqin.

I.1. Mifologik obraz va syujet.

I.2. Namrid obrazi va mifologik tasavvurlar talqini.

II BOB. Mifologik tasavvur va mifik xarakterdagi motivlar diffuziyasi.

II.1. Xizr va Ilyos obrazlari, ular bilan aloqador motivlar tipologiyasi.

II.2. Xizr mifologik obraz sifatida.

XULOSA

Foydalanilgan adabiyotlar ro`yxati

KIRISH

Mavzuning dolzarbligi. Mumtoz adabiy yodgorliklarimiz xalqimiz poetik tafakkurining o'ziga xosligini ko'rsatuvchi qadriyatlar tizimi bo'lishi bilan birgalikda, uning ma'naviy - ruhiy komillikka erishuvida muhim rol o'ynagan manbalardan biri ham hisoblanadi. Ijodiy dahosi benazir bo'lgan qadim ajdodlarimizning asrlar davomida yaratgan milliy qadriyatlari orasida alohida o'rin tutadigan "Qisasi Rabg'o'ziy" asarida xalqning ezgulikni ulug'lab yashash bilan bog'liq eng yaxshi an'analari o'z ifodasini topgan. Shuning uchun ham "Qisasi Rabg'o'ziy" asarida mujassamlashgan ulug'vor g'oyalar zamiridagi hayotsevarlik tuyg'usi ko'p asrlar mobaynida xalqimiz taraqqiyotining eng kuchli va o'ziga xos jihati bo'lib kelgan. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.Karimov ta'kidlaganlaridek, «xalqning madaniy qadriyatlari, ma'naviy merosi ming yillar mobaynida Sharq xalqlari uchun qudratli ma'naviyat manbai bo'lib xizmat qilgan».¹

San'atning boshqa turlari singari badiiy ijod ham o'z ibtidosini mifologik tafakkurdan boshlaydi. Mif va mifologik tasavvurlar tizimi voqelikni anglashning eng qadimgi va ayni paytda, dunyodagi barcha xalqlarning badiiy tafakkuri taraqqiyoti uchun umumiy shakllaridan biri hisoblanadi. Voqelikni mifologik anglash va mif vositasida borliqni tushuntirish ibtidoiy davr ijtimoiy fikrining asosiy ko'rinishi bo'lgan. Ajdodlarimiz olamning mavjud holati va barcha voqea - hodisalar sababini mif orqali izohlaganlar. Shuning uchun ham mif qadimgi odamlarning e'tiqodlari, turli-tuman tasavvur va qarashlarining ma'lum bir tizim holatiga keltirilgan shakli sifatida ijtimoiy fikr taraqqiyotidagi muhim bosqich deb qaraladi. Voqelikni poetik obrazlar vositasida badiiy talqin qilish an'anasi kelib chiqqach, mifologik tasavvurlarning asosiy qismi badiiy - estetik mohiyat kasb etadigan detallarga aylanib ketdi. Miflar zamirida ko'pgina epik syujetlar va an'anaviy motivlar shakllanadi.

Qadimgi miflarning epik syujetlar va obrazlar genezisida tutgan o'rni, an'anaviy motivlarning mifologik tasavvurlar bilan aloqadorligi kabi masalalarni o'rganish adabiyotshunoslikning dolzarb yo'nalishlaridan biri bo'lib kelgan. Chunki bunday

¹ Karimov I.A. O'zbekiston buyuk kelajak sari.-Toshkent: O'zbekiston, 1998. – .524 b.

tadqiqotlar natijasida qadimgi ajdodlarimiz yaratgan mifik tasavvurlar xalq badiiy tafakkurining uzluksiz taraqqiyoti davomida dastlabki epik syujetlarning kelib chiqishi uchun asos vazifasini bajarganligi ilmiy dalillanadi.

Mif faqatgina epik syujetlar va an'anaviy motivlar emas, balki adbiyotimizdagi ko'plab badiiy obrazlarning shakllanishida ham asos sifatida faol ishtirok etgan. Xalq og'zaki badiiy ijodidagi ayrim an'anaviy obrazlarning tarixiy asoslari mifologik tasavvurlar hamda qadimgi e'tiqodlarga borib taqalishi va shuning uchun ham bu tip obrazlarning «mifologik personajlar» deb tavsiflanishining sababi ham ana shunda. Biz «mifologik obraz» deganda bevosita qadimgi tasavvurlarning ta'sirida yuzaga kelgan va o'zida mifik inonchlar mohiyatini saqlab qolgan an'anaviy personajlar tizimini nazarda tutamiz.

Bu esa mifologik obrazlarning qadimiy ildizlarini aniqlash, Xizr, Namrud, Pari haqidagi xalq qarashlarining kelib chiqishi, manbalari va evolyutsiyasi bosqichlarini tahlil qilish, o'zbeklarning bu mifologik personajlar bilan bog'liq tasavvur va ishonchlarini boshqa xalqlar mifologiyasi va folklori materiallari bilan qiyosiy tahlil qilish, shuningdek, bu obrazning folklor asarlaridagi badiiy tasviri va epik funksiyalarini, follordan yozma adabiyotga, yozma adabiyotdan folklorga ko'chishdek adbiy hodisalarning ilmiy tadqiq etish zarurligini ko'rsatadi. Ana shularning barchasi mazkur ilmiy tadqiqot mavzusining dolzarbligini belgilaydi.

Muammoning o'rganilishi darajasi. O'zbek adabiyotshunosligida mifologik obrazlarning mohiyati, genetik ildizlari va epik talqini masalasiga doir ko'plab ilmiy tadqiqotlar yaratilgan. Jumladan, folklorshunos olim G'.Akramov o'zbek eposida tasvirlangan mifologik personajlarning tabiatini tadqiq etgan bo'lsa, professor B.Sarimsoqovning «Epik janrlar diffuziyasi» nomli maqolasida mifologik sub'ektning badiiy obrazga aylanish qonuniyatlari keng tahlil qilingan. Filologiya fanlari doktori M.Jo'rayevning ilmiy ishlarida «etti homiy», Hubbi, Gavomard, Childuxtaron, Odami Od, anqo, aranglar kabi mifologik obrazlarning genezisiga doir fikrlar bayon etilgan.² M.Jo'rayev va Sh.Shomusarovlarning islom mifologiyasining

² Jo'rayev M. «Odami Od» afsonasi syujetining manbalari // «O'zbek tili va adabiyoti», 2000, №2. —31-37b;

o'zbek folkloriga ta'siri haqidagi tadqiqotida esa o'zbek xalq og'zaki badiiy ijodidagi mifologik obrazlar tizimining shakllanishida arab mifologiyasi muhim rol o'ynaganligi qiyosiy mifshunoslik nuqtai nazaridan yoritilgan.

Bundan tashqari, yosh folklorshunoslardan B.Jumaniyozovning «yalmog'iz», J.Eshonqulovning «dev»³, O.Qayumovning «pari», A.Tilavovning «ot», D.Fayziyevaning «ilon-ajdar»⁴ obrazlari tahliliga bag'ishlangan dissertatsiyalarida, shuningdek, T.Haydarovning «Go'ro'g'lining tug'ilishi» dostonida mifologiya unsurlari, T.Rahmonovning mif va uning epik motivlar o'zagi sifatidagi xususiyatlarini tadqiq etishga doir ilmiy ishlarida ham mifologik obrazlarning O'ziga xos xususiyatlari va ularning folklor asarlarida bajaradigan vazifalari keng yoritib berilgan. Bu tadqiqotlar o'zbek folkloridagi sof mifologik (ajdar, dev, pari, yalmog'iz, Xizr va h.k.) va mifologik tabiatga ega bo'lgan (bo'ri, ilon, ot va h.k.) obrazlarning genetik ildizlarini aniqlash hamda ularning badiiy xususiyatlarini tahlil qilish folklorshunoslikning dolzarb masalalaridan biri ekanligini ko'rsatadi. Chunki folklordagi mifologik personajlarning har biri o'ziga xos badiiy talqinga egaligi, epik syujet qurilishida bajaradigan vazifalari va tabiatiga ko'ra farqlanib turadi. Shuning uchun ham mif va mifologik obraz tushunchalarining mohiyatini hozirgi zamon adabiyotshunosligidagi yangicha ilmiy qarashlar asosida yanada oydinlashtirish, har bir mifik personajning kelib chiqishiga asos bo'lgan manbalar, uning genetik ildizlari va shakllanish bosqichlarini tadqiq etish, mifologik obrazlarning tarixiy asoslari, «Qisasi Rabg'o'ziy» asarida va folklor asarlaridagi badiiy vazifalarini yoritish muhimdir.

Dissertatsiya ishining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi. Tadqiqot ishi Navoiy davlat pedagogika instituti O'zbek adabiyoti kafedrasida bajarilayotgan O'zbekiston Respublikasi VM huzuridagi Fan va texnologiyalar markazining granti asosida ishlanayotgan «O'zbek mifologiyasi va uning badiiy

³ Eshonqulov J. O'zbek folklorida dev obrazi. Filol. fanlari nomzodi diss. avtoref. - Toshkent: 1997.

⁴ Fayziyeva D. O'zbek folklorida ilon-ajdar obrazi (genezisi va badiiy talqini). Filol. fanlari nomzodi diss. avtoref. - Toshkent: 2004.

tafakkur taraqqiyoti tutgan o'rnini" mavzusidagi fundamental tadqiqot loyihasi davlat dasturi doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi. "Qisasi Rabg'o'ziy" asarida qayd etilgan mifologik obrazlarning tarixiy - genetik asoslarini aniqlash, mifologik obrazlar bilan bog'liq xalq qarashlarini to'plab, tahlil qilish hamda uning O'zbek folklori epik janrlari syujet qurilishidagi badiiy o'rnini o'rganish ushbu dissertatsiya ishining asosiy maqsadini tashkil etadi.

Tadqiqotning vazifalari. Dissertatsiyani yozishda ko'zlangan maqsadga erishish uchun esa quyidagi vazifalarni bajarish ko'zda tutilgan:

- o'zbeklarning Namrud, pari, Xizr bilan bog'liq mifologik tasavvurlarini to'plab, tahlil qilish;
- Namrud, pari, Xizr obrazlarining mifologik asoslari va tarixiy - genetik ildizlarini aniqlash;
- ajdodlar kulti va ota-bobolar ruhiga sig'inishga doir qadimiy marosimlarning Namrud, pari, Xizr obrazlari genezisida tutgan o'rnini ko'rsatish.

Tadqiqotning metodologiyasi va metodi. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimovning milliy qadriyatlar, ma'naviyat va madaniyat, milliy g'oya va milliy mafkuraga doir asarlaridagi nazariy qarashlar mazkur dissertatsiya ishining metodologiyasini tashkil etadi. Tadqiqotni yozishda ye.M.Meletinskiy, E.V.Pomeranseva, E.B.Taylor, S.A.Tokarev, H.Zarifov, M.Seyidov, M.Afzalov, T.Mirzayev, K.Imomov, G'.Jalolov, X.Egamov, B.Sarimsoqov, G'.Akramov, A.Musaqulov, M.Jo'rayev, SH.Turdimov, J.Eshonqulov, O.Qayumov, F.Nurmonov kabi olimlarning asarlaridagi ilmiy-nazariy mulohazalarga asoslandik.

Dissertatsiya tarixiy-qiyosiy metod asosida yozilgan bo'lsa-da, mifologik obrazlar bilan bog'liq xalq qarashlarini boshqa xalqlar folklori materiallari bilan qiyoslab tahlil qilish maqsadida qiyosiy-tipologik metoddan ham foydalanildi.

Himoyaga olib chiqilayotgan asosiy holatlar. Dissertatsiyada quyidagi holatlar himoyaga olib chiqiladi:

1. Namrud obrazining badiiy vazifalari evolyutsiyasi, pari, Xizr obrazlari o'zbek mifologiyasida odamlarga yaxshilik qiladigan ezgu homiy, qut-baraka va mo'l

hosil baxsh etadigan an'anaviy mifologik personaj bo'lib, ajdodlar ruhi timsoli hamda obihayot chashmasini topib, undan ichgan, doimiy barhayotlikka erishgan ezgu kuch hisoblanadi.

2. Folklor asarlarida tasvirlangan Xizr obrazi qahramon taqdirini oldindan bashorat qilishi, uni mushkul ahvoldan xalos qilishi, g'ayriodatiy holatda namoyon bo'lishi va birdan g'oyib bo'lishi bilan xarakterlanadi. Bu esa mazkur obrazning genezisida ota-bobolar ruhining madadkorligiga sig'inish an'analari muhim rol o'ynaganligidan dalolat beradi.

3. parilarning poetik tafakkurda namoyon bo'lishi shamon homiysi sifatidagi badiiy vazifalari va bu obrazning o'zbek fantastik adabiyoti taraqqiyotiga ta'siri alohida ekanligini ko'rsatadi.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi. Mif va uning o'zbek folklori epik janrlari obrazlar tarkibini shakllantirishda tutgan roli, mifologik obraz tabiati, uning tasnifi va tavsifi, mifologik personajlarning genetik ildizlarini tadqiq etish folklorshunoslik uchun yangi nazariy xulosalar chiqarish imkonini bersa, "Qisasi Rabg'o'ziy" mifologik obrazlarini o'rganish og'zaki va yozma adabiyot munosabatlarini oydinlashtirishga imkon yaratadi. Mazkur dissertatsiyada o'zbek xalq og'zaki badiiy ijodiyoti va xalq qarashlarida afsonaviy homiy, madadkor ruh, g'ayrioddiy ko'makchi sifatida tasavvur qilingan pari, Xizr obrazlarining tarixiy - genetik ildizlari aniqlanganligi; bu obrazlar bilan bog'liq mifologik tasavvurlarda qadimiy kultlarining aks etishi atroflicha yoritilganligi; bu mifik personajlarning tipologik xususiyatlari qiyosiy adabiyotshunoslik aspektida tahlil qilinganligi hamda Namrud, pari, Xizr obrazlarining poetik funksiyalari o'rganilganligi ushbu tadqiqotning ilmiy yangiligini tashkil etadi. Tadqiqotning ilmiy yangiligi:

- Namrud, pari, Xizr obrazlarining qadimgi diniy, adabiy, ma'rifiy va tarixiy manbalardagi talqini tadqiq etilganligi;

- o'zbek adabiyotshunosligida birinchi marta "Qisasi Rabg'o'ziy" mifologik obrazlari bilan bog'liq xalq qarashlari va mifologik tasavvurlar to'la holatda jamlanib, tahlilga tortilganligi;

- o'zbeklarning pari, Xizr to'g'risidagi mifologik qarashlari turkiy va turkiy bo'lmagan xalqlar mifologiyasi materiallari bilan qiyoslab o'rganilganligi;

- Namrud, pari, Xizr obrazlarining genezisi ochib berilganligi hamda shu asosda o'zbek adabiyotidagi homiy personaj tipining shakllanish bosqichlari belgilab berilganligi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. “Qisasi Rabg'o'ziy badiiyati tadqiqiga bag'ishlangan ushbu dissertatsiya ishi o'zbek xalq og'zaki poetik ijodidagi mifologik obrazlarni o'rganish uchun keng ko'lamli materiallar beradi. Ishning ilmiy-nazariy xulosalari, unda tahlil qilingan faktik material va chiqarilgan umumlashmalardan o'zbek adabiyotidagi mifologik obrazlar silsilasining tarixiy-genetik asoslarini chuqur tadqiq etish, bunday personajlarning epik syujetlar tarkibidagi badiiy vazifalarini aniqlab, ularning poetik xususiyatlarini keng yoritishda foydalanish mumkinligi dissertatsiyaning ilmiy-nazariy ahamiyatini tashkil etadi.

Dissertatsiyaning amaliy ahamiyati esa mazkur ishning materiallaridan oliy o'quv yurtlarining filologiya fakultetlarida ma'ruzalar o'qish, seminar mashg'ulotlari o'tkazish, maxsus kurslar o'tish, o'zbek adabiyoti tarixi bo'yicha darslik, o'quv qo'llanmalari, ilmiy - metodik tavsiyalar, mumtoz adabiy asarlarining ilmiy - akademik va ommabop nashrlari uchun izohnomalar tayyorlashda samarali foydalanish mumkinligi bilan belgilanadi.

Tadqiqot manbai. Dissertatsiya ishini yozishda O'zR FA Alisher Navoiy nomidagi Til va adabiyot instituti huzuridagi H.Zarifov nomli O'zbek folklori arxivi materiallaridan, nashr etilgan folklor to'plamlari, shuningdek, diniy, adabiy, tarixiy manbalardan foydalanildi. **Tadqiqotning jamoatchilik e'tiboridan o'tishi.** Dissertatsiya mavzusi Navoiy davlat pedagogika instituti O'zbek adabiyoti kafedrasida, shu institut ilmiy kengashida muhokama etilib, tasdiqlangan. Ish Navoiy davlat pedagogika instituti O'zbek adabiyoti kafedrasining majlisida muhokama etilib, himoyaga tavsiya etilgan.

Ishning sinovdan o'tishi. Tadqiqotning asosiy xulosa va materiallari Navoiy davlat pedagogika instituti professor-o'qituvchilarining an'anaviy ilmiy

anjumanlarida (2013-2014 yillar) qilingan ma'ruzalarda ilmiy jamoatchilik e'tiboriga havola etilgan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi. Dissertatsiyaning asosiy mazmuni tadqiqotchining "Ta'lim va tarbiya masalalari ilmiy to'plamda 2 ta maqola hamda ilmiy axborotlarida o'z ifodasini topgan.

Tadqiqotning tuzilishi. Dissertatsiya kirish, uch asosiy bob, xulosa va foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan iborat bo'lib, hajmi 85 bet.

I-BOB. “QISASI RABG'O'ZIY” DA OBRAZ VA MIFOLOGIK TALQIN

I.1. Mifologik obraz va syujet .

“Qisasi Rabg'o'ziy” o'zbek xalqi mifologik tasavvurlari tizimida muhim ahamiyat kasb etgan mifologik obrazlarni o'zida mujassamlashtirgan noyob adabiy

yodgorlikdir. Mazkur asar obrazlari va o'zining badiiy talqini bilan xalqimiz badiiy tafakkuri taraqqiyotini tadqiq etishda ham muhim ahamiyat kasb etadi. Xususan, rabg'o'ziy asarida keltirilgan hikoyalarda payg'amlar, mifologik xarakterdagi personajlar xalq fantaziyasi tarixiy asoslarini oydinlashtirish uchun muhim manba vazifasini o'taydi.

Islomiy adabiyotlarda Ibrohim payg'ambar davrida yashagan Namrid ismli butparast podsho to'g'risidagi afsonalar mavjud. Xususan, Nosiruddin Burhonuddin Rabg'o'ziyning "Qisasi Rabg'o'ziy" asarida naql qilinishicha, xudoning amri bilan Ibrohim payg'ambar Namridni imonga da'vat qilsa, u "er yuzida menga teng keladigan odam yo'q, endi xudoying bilan urushaman!" – deb qoraqushlarning oyoqlariga bog'langan sandiq ichiga kirib olib, osmonga ko'tarilibdi. Tepaga chiqqach, osmonga qarata o'q otibdi. SHunda Allohning buyrug'i bilan Jabroil alayhissalom o'qni bir baliqqa sanchib, qoniga bo'yab, sandiqqa qaytarib tashlabdilar. Boshqa bir rivoyatda esa osmonda bir qush bor edi, o'q o'sha qushga tegib, qonga belanib, qaytib tushdi, deb hikoya qilinadi. Bundan xursand bo'lgan Namrid yerga qaytib tushayotganida sandiq ichiga yel kirib, qattiq ovoz chiqaribdi, buni eshitgan odamlar vahimaga tushishgan ekan.⁵

Namrid haqidagi ana shu mifologik afsona karmanalik Mamat buva Mulla Niyoz o'g'li aytib bergan kosmogonik mifning yuzaga kelishiga asos bo'lgan, Bizningcha, birlamchi semantik asos vazifasini o'tagan mifologik matn tarkibidagi ayrim motivlarning momaqaldiraq bilan aloqador xalq qarashlariga hamohangligi mifning afsonaga aylanishiga sabab bo'lganga o'xshaydi. Chunonchi, afsonaviy qahramonning bulutlarga qarata o'q otishi yoki tosh irg'itishidan chaqmoq hosil bo'lishi motivi tabiat hodisalari haqidagi kosmogonik mif va samoviy afsonalarning an'anaviy syujet elementlaridan biri. Bu motiv Namridning arshi a'loga qarata o'q otishi lavhasiga o'xshash. Namridning sandig'iga yel kirgani uchun tushayotgan paytda dahshatli ovoz chiqarishi motivi ham bu hodisaning momaqaldiroqqa qiyoslanishiga asos bo'lgan.

⁵Nosiruddin Burhonuddin Rabg'o'ziy. Qisasi Rabg'uziy. 1-tom. – Toshkent: YO'zuvchi, 1990. – B.68.

Karmanadan yozib olingan mifda uch xil asotiriy syujet izlari o'z ifodasini topgan bo'lib, ular quyidagilardan iborat:

a) Namrid otgan o'qning bulutga tegishidan momaqalldiroqning paydo bo'lishi haqidagi kosmogonik mif;

b) baliqlarning paydo bo'lishi to'g'risidagi zoonimik mif;

v) momaqalldiroqdan keyin qo'ziqorin chiqishi haqidagi etiologik mif.

Rabg'uziy naql qilgan islomiy afsonalar talqinicha, hazrati Jabroil xudoning amri bilan o'qni baliqqa sanchib, qoniga bo'yagach, o'qni Namridning sandig'iga, baliqni esa suvga tashlagan. O'qdagi qon izini ko'rgan Namrid "Endi yeru ko'kning yagona hukmdori o'zim" deb mamnun bo'lib yerga qaytadi. Jabroil tomonidan tashlangan baliq esa suvga tushib, yer yuzida inson uchun yana bitta yegulik ne'mat paydo bo'ladi. Baliq boshining kesilganligi ham shu voqeaga bog'lanadi: Namridning o'qiga sanchilganligi uchun baliq boshi kesilgan, shu bois, agar baliq o'lgan bo'lsa ham boshi azaldan kesilgan bo'lgani uchun halol hisoblanadi.

Qo'ziqorinning paydo bo'lishi ham Namrid otgan o'q bilan bog'liqligi masalasi xalqimizning samoviy mifologik qarashlaridagi momaqalldiroq bilan aloqador yana bir ko'hna mifik tasavvurlar tizimini tahlil qilishga imkon beradi. Ma'lumki, o'zbeklarning mifologik tasavvurlariga ko'ra, momaqalldiroq bo'lsa, osmondan qo'ziqorin tushar emish. Xususan, Qiziltepa tumanida qayd qilingan tasavvurlarga ko'ra, momaqalldiroq bo'lganda, yer qo'rqarkan. SHundan yer betida chiziqqa o'xshash yoriqlar paydo bo'lar emish. Ana shu yoriqlarga xudoyi taollo bandalarimga rizq bo'lsin, deb qo'ziqorinning urug'ini tashlar emish.⁶ Olotliklar esa zamburug'larni momaqalldiroqning bolalari, deb tasavvur qilganlar. Aytishlaricha, momaqalldiroq osmon bilan yerning katta enasi ekan. U har yili bahorda o'zining bolalarini ko'rgisi kelib, ularni chaqirar ekan. Osmon gumbur-gumbur qila boshlaganida onasi chaqirayotganini eshitgan zamburug'lar ham yer yuziga yugurib chiqisharmish.⁷

Buxoro viloyatining G'ijduvon tumanidagi Ularbibi qishlog'ida qayd qilingan e'tiqodiy inonchga ko'ra, yomg'ir yog'ayotganda xudo po'stagini chiqarib qoqadi va

⁶ 1991 yil, Navoiy viloyati, Qiziltepa tumani, Bo'ston qishlog'idan prof.M.Jo'rayev yozib olgan.

⁷1989 yil, Buxoro viloyati, Olot tumani, Ko'kko'z qishlog'idan prof.M.Jo'rayev yozib olgan.

po'stakning tagidagi qo'ziqorinlar yerga tushadi deb naql qiladilar.⁸ Navoiy viloyatining Navoiy tumanidagi Jaloyir qishlog'ida ham "Kampir po'stagini qoqsa, momaqaldiroq bo'ladi va yerga qo'ziqorin tushadi", – degan tasavvur mavjud.⁹

Momaqaldiroqdan keyin qo'ziqorin chiqishi haqidagi ayrim mifologik afsonalar esa bu tabiiy hodisaning sababini inson hayotida ro'y berishi mumkin bo'lgan muayyan holatlarga o'xshatish asosida kelib chiqqan. Ma'lumki, favqulodda voqea-hodisalardan cho'chigan yoki yomon tush ko'rib bosinqirab chiqqan odamning labiga ko'pincha uchuq toshadi. Bu qo'rquv natijasida ro'y beradigan fiziologik tibbiy hodisa. SHu bois, qadimgi odam ham momaqaldiroqning vahimali ovozi hamma narsani, shu jumladan, zaminni ham dahshatga soladi, deb o'ylagan, Navbahor tumanida yashovchi Ma'rifat O'runovanning ishontirishicha, momaqaldiroq gumburlagan paytda yer qo'rqib ketarmish. Shuning uchun yerning labiga uchuq toshib ketar emish. Momaqaldiroqdan qo'rqqandan yerning labiga toshgan uchuqlar qo'ziqoringa aylanarmish.¹⁰

Qo'ziqorinning chiqishi bilan bog'liq xalq qarashlari orasida bevosita Namrid to'g'risidagi samoviy afsonaga aloqador mifologik tasavvurlar ham mavjud. Ma'lumki, Rabg'uziy keltirgan afsonaga ko'ra, Namrid qoraqushlar oyog'iga osilgan sandiq ichiga kirib o'tirgan ko'yi ko'kka ko'tarilgan. Momaqaldiroqning paydo bo'lishi ham ana shu sandiq ichiga yel kirishi natijasida ro'y bergan tabiiy hodisa deya talqin qilinadi. Sandiq detali mifologik timsol sifatida qo'ziqorin to'g'risidagi xalq qarashlariga ham singib ketgan. O'zbek xalq afsonasida hikoya qilishicha, momaqaldiroq gumburlatib sandig'ini ochganda, uning ichidagi sovg'alari yerga to'kilar ekan. Momaqaldiroq sandig'idan to'kilgan sovg'alar ro'yi zamindan qo'ziqorin bo'lib ko'karib chiqar emish.¹¹

Demak, Namrid to'g'risidagi islomiy afsonalar momaqaldiroq, chaqmoq va

⁸ 1991 yil, Buxoro viloyati, G'ijduvon tumani, Ulfatbibini qishlog'idan prof.M.Jo'rayev yozib olgan.

⁹ 1991 yilda Umrinisa Jo'rayevadan yozib olingandan prof.M.Jo'rayev yozib olgan.

¹⁰ 1991 yil, Toshkent shahri, V.Jumayev ko'chasi, 3-shaxobchasi, 16-uyda yashovchi Santalat A'zamovadan prof.M.Jo'rayev yozib olgan.

¹¹ 1981 yil, Buxoro viloyati, Qorako'l tumani, Tangachar qishlog'ida yashovchi 1930 yilda tug'ilgan Sharofat Murodovadan yozib olingan.

qo'ziqorin to'g'risidagi xalq qarashlarining o'ziga xos talqinlari yuzaga kelishi uchun asos vazifasini o'tagan. O'zbeklarning momaqaldiroq bilan bog'liq mifologik afsonalari syujetidagi ayrim motivlarning jahon xalqlari folkloridagi shu mavzuga doir matnlarga o'xshashligi esa o'tmishda yashagan ajdodlarimizning tabiat hodisalari haqidagi mifologik tasavvurlaridagi mushtarak talqinlar mavjud bo'lganligidan dalolat beradi.

Dunyoning turli joylarida yashagan qadimgi odamlarning turmush tarzi, hayot va olam haqidagi qarashlari bir-biriga juda yaqin bo'lgan. Ana shu ibtidoiy turmush tarzining mushtarakligi ijtimoiy ong shakllarining rivojiga ham o'z ta'sirini o'tkazgan. Muayyan narsa-hodisalar xususidagi mifologik tasavvurlar talqinidagi mushtaraklik yuzaga kelgan. Misol uchun yer kurrasining ko'pgina joylarida momaqaldiroqdan keyin qo'ziqorinlar paydo bo'lishi kuzatilgan. Bu esa momaqaldiroq bilan qo'ziqorinni ona-bola sifatida talqin qilish an'anasining kelib chiqishiga sabab bo'lgan.

V.N.Toporovning yozishicha, qo'ziqorinning momaqaldiroq bilan aloqadorligi haqidagi mifologik qarashlar jahonning ko'pgina xalqlari, xususan, hind, eron, arab, turkiy xalqlar folklorida, Uzoq Sharq, Okeaniya. SHimoliy Amerikada yashovchi mahalliy elatlar og'zaki ijodiyotida ham mavjud ekan. Yag'nobliklar e'tiqodicha, momaqaldiroq o'zining kiyim-kechaklarini qoqayotganda, ularning chang-chunglari yerga tushib, zamburug'ga aylanarmish. V.N.Toporov zamburug'ning momaqaldiroq bilan aloqadorligi haqidagi bu xalq qarashini qadimiy mifologik tasavvurlarga bog'laydi: ko'hna mif talqiniga ko'ra, qo'ziqorin aslida momaqaldiroqning bolasi bo'lgan. Muayyan tabuning buzilishi (aka-singil o'rtasidagi nikoh vojib emasligi shartining buzilishi) oqibatida ona-bola o'rtasida nizo kelib chiqqan, momaqaldiroq o'zining bolalarini jazolash maqsadida ularni qo'ziqoringa aylantirgan emish.

Bizningcha, olotlik G'affor Eshshiyevdan yozib olingan mif ham ana shu qadimiy tasavvurlarga borib taqaladi. Momaqaldiroq bilan zamburug' orasidagi qarindoshlik rishtasi borligi, ya'ni ularning ona-bola tarzida talqin qilinishi bu mifning tarixiy ko'klarini arxaik qarashlar bilan bog'laydigan asosiy semantik halqadir. Oilaviy tabuning buzilishi tufayli ona bilan bola o'rtasida nizo chiqishi

hamda gunohkor bolalarning ona qarg'ishi yoki magik ta'sir vositasida boshqa narsaga evrilishi motivi mifologik syujetning evolyutsiyasi natijasida unutilib ketgan. Lskin mifologik tabu bilan bog'liq qadimiy motivning muayyan izlari saqlangan: momaqaldiroqning yashash joyi - osmon, uning bolasi - zamburug'ning makoni esa zaminda, deb bayon qilinishining o'zi tabu buzilishi oqibatida ro'y bergan oilaviy ayriliqdan darak berib turibdi. Buning ustiga momaqaldiroq o'z bolalarini yilda bir marta – ilk ko'klam kunlari ko'rgani kelishi ham tabu saqlanganligidan dalolat beradi.

Ko'klamda momaqaldiroq bo'lib, osmon gumbirlaganda odamlar “Erga zamburuq – qo'ziqorin tushdi!”, – deb xursand bo'lishgan. Bahorda momaqaldiroq bo'lib, yomg'ir tomchilay boshlaganini ko'rgan bolalar “Urta, zamburug' tushdi!” – deb qiyqirishgan va yog'in tingach, ko'pchilik bo'lib qo'ziqorin terish uchun adirlarga o'tlanishgan. Qo'ziqorin ko'p bo'ladigan joylarga borib, toza qo'ziqorinlarni terib kelib, kabob qilib yeyishgan. Qo'ziqorinni ko'p topgan bolani jo'ralari “Qozon qirmoch yegan ekan-da!” – deb hazillashishgan.¹² Bu o'rinda “qozon qirmoch” so'zi qo'llanilganligi ham bejiz emas, chunki xalqimiz orasida “qozonning qirmochi”ni yegan, “xurmachaning tagini yalagan” bolaning to'yida yomg'ir yog'adi, degan qarash ham mavjud.

Qo'ziqorin terishga chiqqanda bitta zamburuqni topib olgan kishi xursand bo'lib, yana izlay boshlagan va quyidagi aytimlarni aytsa, kishining omadi chopadi, deb umid qilgan.

Masalan, Buxoro viloyatining Qorako'l tumanidagi Jig'achi qishlog'ida qo'ziqorin terib yurgan bolalar bitta qo'ziqorinni topgandan keyin:

Zamburuq,

So'pisi yoriq,

Jo'rangni top! – deb aytim aytilsa, uning «sherigi» tezda topiladi, deb o'ylaydilar.¹³

¹² 1982 yil 12 aprelda Buxoro viloyatining Qorako'l tumanidagi Tangachar qishlog'ida yashovchi H.To'xtamishevdan prof. M.Jo'rayev tomonidan yozib olingan.

¹³ 1986 yilda Qahramon Jo'rayevdan prof. M.Jo'rayev tomonidan yozib olingan.

Professor O.Safarov yozib olgan ma'lumotga ko'ra, Buxoro viloyatining boshqa tumanlarida qo'ziqorin teruvchilar quyidagi aytim-qo'shiqni ijro etadilar:

O'zingni topdim,
YOringni topsaydim,
Zamburuq,
Bag'ring yoriq,
Hamroyingni topsaydim,
Jizza kabob etsaydim.¹⁴

O'tgan asrning 80-yillarida Afg'onistonda yashovchi o'zbeklar folklorini o'rganish uchun ekspeditsiyada bo'lgan nemis olimasi Ingeborg Baldauf Andxo'ndan qo'ziqorin terish paytida ijro etiladigan quyidagi aytimni yozib olgan:

Zomorig', qanni yorig',
Otasi mardam sarig',
Onasi to'ppi bisar,
Otasi olib qochar,
Erga yopil,
Manga topil!¹⁵

Qo'ziqorin bilan bog'liq mifologik tasavvurlar va ular bilan aloqador mif, afsona, irim-sirim hamda inochlar alohida o'rganilishi zarur bo'lgan mavzu bo'lganligi bois, biz bu o'rinda masalaning momaqaldiroq bilan aloqador jihatlarigagina to'xtalib o'tdik, xolos.

O'zbeklarning momaqaldiroq va chaqmoq bilan bog'liq mifologik tasavvurlariga ko'ra, yashin chaqnaganda yerga osmos tushar emish. SHuning uchun ham ba'zi joylarda bahor kunlari momaqaldiroq gumburlaganini eshitgan ayrim kishilar darrov hovli sahniga katta oq surp to'shab, ustiga tariq sepib qo'yishgan.

¹⁴Boychechak. Bolalar folklori. Mehnat qo'shiqlari. – Toshkent: Adabiyot va san'at nashriyoti, 1983. – B.16.

¹⁵**Ingeborg Baldauf.** Materialien zum Volkslied der szbeken Afghanistans / Reihe Islam & Ethnologie Band 3. Verlag Andreas Gehlign. - Emsdetten: Gehling, 1989. – P.942.

Go'yoki chaqmoq oqqa urib, olmos yerning tagiga kirib ketar emish.¹⁶ Xalq orasida bu e'tiqodiy qarashning yuzaga kelishi bilan aloqador afsona ham mavjud. Aytishlaricha, bir kishi oq tuyasini yetaklab ketayotgan ekan, birdan chaqmoq chaqib, tuyani qoq yarim belidan bo'lib tashlabdi. Keyingi safar u yana yo'lga chiqqanida oq paxtadan jelakcha tiktirib, ipga bog'langan bir dona tariqni ham o'sha jelakchaga ilib tuyaning ustiga tashlab qo'yibdi. CHaqmoq chaqqan payt paxtani kesib, olmos yerga kirib ketaveribdi, haligi tarik bilan ip ham olmosning orasida ketaveribdi. Momaqaldiraq tinganidan so'ng haligi kishi o'sha olmosni kovlab olibdi.¹⁷

Momaqaldiraq va chaqmoq to'g'risidagi astromifologik qarashlar bu tabiiy hodisalar ro'y bergan paytda bajarilgan magik amallar hamda irim-sirimlarda ham o'z ifodasini topgan. Bunday irim-sirim va aytimlarning aksariyati magik xarakter kasb etib, hosildorlik kulti bilan bog'liq bo'lgan. O'zbeklarda ham bahorda bo'ladigan ilk momaqaldiraq gumburlashi mo'l hosil, qut-baraka va to'kin-sochinlik ato etuvchi tabiiy hodisa sifatida muhim ahamiyat kasb etgan. Bahorda birinchi momaqaldiraq ovozi yangraganda odamlar "Ey xudovando, yaratgan egam! Bandalaringni balo-qazolardan, yomon ofatlardan o'zing asrab, nasibasini mo'l qilgaysan!" – deydilar. Ayrim kekxa kishilar bu paytda uyining oldidan o'tib ketayotgan yo'lovchiga "yo'l sadaqasi" qilib non yoki boshqa pishiriq berib yuboradilar. Bahorda birinchi momaqaldiraq gumburlagan paytda yo'ldan o'tayotgan yo'lovchiga bitta non sadaqa berish odati Qo'shko'pir tumanida ham qayd qilingan.

Ba'zi joylarda bahorgi ilk momaqaldiraq tovushi eshitilganda momolar yetti dona chalpak pishirib, "**Shohimardon pir haqiga**" is chiqarib yuborganlar. CHunki momaqaldiraq bo'lganda jinlar bazm qilar emish. Surxondaryo viloyatining Jarqo'rg'on tumanidagi Mingchinor qishlog'ida bahorda birinchi momaqaldiraq gumburlaganda kekxa momo va buvalar bitta qo'y, xo'roz yoki bitta nonni sadaqa aytganlar. Hech qachon juft narsa sadaqaga aytilmagan. Keyin ular ekinlari yaxshi

¹⁶ 1991 yil, Navoiy viloyati, Navbahor tumanidan prof. M.Jo'rayev yozib olgan.

¹⁷ 1991 yil, Navoiy viloyati, Navbahor tumani, Qalqon qishlog'ida yashovchi Roziya G'iyosovadan prof. M.Jo'rayev tomonidan yozib olingan.

bo'lishini ollohdan tilab, qo'shnilarini chaqirib "**Guldurmomo**" sharafiga aytilgan sadaqani berganlar.

Bahorda momaqalldiroq bo'lib, chaqmoq chaqayotganda oq kiyimli odam yoki oq rangli narsani yashin uradi, deb qo'rqadilar. Shuning uchun, an'anaga ko'ra, oppoq gullagan daraxtlarni yashin urmasligi uchun shoxiga qizil lattalarni bog'lab qo'yadilar.

Turkiy xalqlar mifologiyasida momaqalldiroq tangrisi obrazi asosan antropomorf ko'rinishda tasvirlangan bo'lsa-da, bizning nazarimizda, bu astromifologik personajning arxaik tipi zoomorf shaklda talqin qilingan bo'lishi kerak. Chunki Uzoq SHarqda istiqomat qiluvchi etnoslardan biri udegeylar mifologiyasida momaqalldiroq egasi Agdi ulkan panjalariga tiralgancha og'zidan olov purkab, chaqmoq sochib turuvchi qanotli ilon tarzida tasavvur qilingan.¹⁸ Ussuriy o'lkasi udegeylari talqinicha, Agdi qish bo'yi uxlab yotar va yoz kelishi bilan uyg'onib, tishlarini g'ichirlatganda momaqalldiroq bo'lib, chaqmoq chaqar ekan. Agdining ikki qizi bor bo'lib, ulardan biri Sosalida, ya'ni kamalak va ikkinchisi Agdi sauni, ya'ni chaqmoqdir.¹⁹ Nivx mifologiyasida esa momaqalldiroq va chaqmoq egasi Тыымт ham tumshug'idan olov sochib turgan yovvoyi qush ko'rinishida tasvirlangan. Osmonni o'ziga makon qilgan ana shu afsonaviy qush o'zining ulkan qanotlarini qoqib parvoz qilgan paytda momaqalldiroq gumburlar, og'zidan sochilgan olov chaqmoq bo'lib chaqilar ekan.²⁰ Abakan tatarlari e'tiqodicha, osmonda yashaydigan ulkan ajdaho dumini silkitgandan "samoviy olov", ya'ni chaqmoq paydo bo'lar ekan. Momaqalldiroq ham ana shu ajdahoning o'kirishi, deydilar. Ajdahoning otadigan o'qlari odamning yuragiga o'xshar emish. Agar Aza (shayton) daraxt tanasiga yashirinsa, tangri (Purxan) o'sha daraxtni ildizigacha yondirib yuborar ekan.²¹

¹⁸**Arsenev V.K.** SHamanstvo u sibirskix inorodsev i ix animisticheskoye vozzreniya na prirodu // Vestnik Azii. – Xarbin, 1916. – Kn. 2.3. – №38-39. – S.337.

¹⁹**Podmaskin V.V.** Народные знания удегейцев: историко-этнографическое исследование по материалам XIX-XX вв. – Владивосток: ДВО РАН, 1998. – S.28-29.

²⁰Mifologicheskiy slovar. – M.: Sov. ensiklopediya, 1991. – S.556; **Skorinov S.N.** Kosmologicheskoye predstavleniye tunguso-manchjurov i nivxov yuga Dalnego Vostoka Rossii (XIX.nachalo XX v.) // Vestnik Dalnevostochnogo otdela RAN. – Vladivostok, 2005. – №2. – S.92.

²¹**Radlov V.V.** Образы народной литературы тюркских племен. Част IX. – SPb., 1907. – S.82.

O'zbek-laqaylar folklorida saqlanib qolgan "Tog'ayimning tarloni, Bo'zlab-bo'zlab kishnaydi" (momaqaldiraq)²² topishmog'ida bu tabiiy hodisa otga o'xshatilganligi xalqimiz orasida ham momaqaldiraq "egasi" obrazining zoomorf talqini haqidagi astromifologik qarashlar mavjud bo'lganligidan dalolat beradi. Chunki qozoqlar orasida momaqaldiraq bo'lgan paytda "ko'k ayg'iri kishnadi"²³ iborasining qo'llanilishi yuqoridagi topishmoqda ifodalangan metaforik nutq ushbu tabiiy hodisani zoomorf timsol vositasida tasavvur qilish an'anasi bilan aloqadorligini ko'rsatadi. Farg'ona viloyatining Oltiariq tumanidagi Katput qishlog'idan yozib olingan mifologik afsonaga ko'ra, osmondagi otlar orasida qo'zg'olish bo'lib, u yoqdan bu yoqqa dupurlab chopganda ularning tuyog'idan o't chaqnab, gumburlagan ovoz chiqar ekan. Bu esa yilda bir necha marta momaqaldiraq bo'lib, chaqmoq chaqishiga sabab bo'lar emish.²⁴

Binobarin, atoqli folklorshunos olim A.N.Afanasevning keltirishicha, qadimgi slavyan mifologiyasida ot – nur, momaqaldiraq, chaqmoq, shamol va suv timsoli sifatida tasavvur qilingan.²⁵

I.2. Namrid obrazi va mifologik tasavvurlar talqini .

Xalqimiz orasida ezgulik va yovuzlik olami bilan aloqador deb tasavvur qilinadigan Xizr, ruh, arvoh, maloyika, lashkar, alomon, alvasti, ajina, jin, dev, pari, yalmog'iz, ajdar, sariqiz, chilton, childuhtaron, momo kabi mifologik obrazlar to'g'risida turli-tuman qarashlar mavjud. Chunki ajdodlarimiz qadim zamonlardan beri inson ezgu va yovuz kuchlarning bevosita ta'siri ostida yashaydi, deb o'ylagan. Hayotda ro'y beradigan ezgu ishlar, muvoffaqiyatlar yaxshi, himoya kuchlar madadi

²²**Nazarov N.** Laqaylar: etnografiya, lingvistika va folklor. – Toshkent: Tamaddun, 2010. – B.111.

²³**Valixanov Ch.Ch.** Izbranniye proizvedeniya. – Almata, 1958. – S.159.

²⁴ 2008 yilda prof. M.Jo'rayev tomonidan Farg'ona viloyatining Oltiariq tumanidagi Katput qishlog'ida yashovchi M.Odilovadan yozib olingan.

²⁵**Afanasev A.N.** Proisxojdieniye mifa. Stati po folkloru, etnografii i mifologii. – M., 1996. – S.152, 155-157.

tufayli sodir bo'ladi, ko'ngilsiz hodisalar esa yovuzlik olamiga mansub g'ayritabiiy kuchlarning ishi deb qaralgan. Yhvuz kuchlar tashlandiq, xaroba uy joylarda, pastqamliklarda bo'ladi, deb tasavvur qilingan. Ayniqsa, mol so'yilgan yerlarda, axlat tashlanadigan joylarda, shuningdek, kultepalarda jin, ajinalar makon qiladi, deb cho'chiganlar. Bunday joylarda yosh bolalarning o'ynashi ta'qiqlangan, siyish, suv sepish mumkin bo'lmagan. Yovuz kuchlar tunda faollashadi, deb tasavvur qilingani bois bunday "bexosiyat" jopylardan kechasi o'tmaslikka harakat qilishgan. Chunki yovuz kuchlar dahl qilgan kishi ruhiy xastalikka chalinadi deb o'ylaydilar.

G'ayritabiiy kuchlarning bir toifasi O'rta Osiyo xalqlari shamonlarining amaliyotida muhim rol o'ynaydigan homiy yoki shamon bilan g'ayb olam vakillari o'rtasida vositachi vazifasini ham bajargan. Ana shunday ramziy vositachi yoki ritual homiy vazifasini o'taydigan mifologik pirsonajlardan biri-paridir. Xalqimiz orasida parilarning paydo bo'lishi, tashqi qiyofasi, turmush tarzi, inson bilan muloqotga kirishish usullari, homiyligi yoki muxolifligi xususida xilma-xil e'tiqodiy qarashlar saqlangan.

Parilarning yaratilishi haqida turli xalqlar folklorida turli xil afsonalar mavjud. Nasriddin Burxonuddin Rabg'o'ziyning "Qissasi Rabg'o'ziy" asarining "Sifat al-arazina" bobidan yana shunday afsonalardan biri hikoya qilingan: "Bilgil, al-qavlu fi xalqi al-maqolati va al-jinni va al-insi izi izza va jalla farishtalarni o'tning yoruqliqidan yaratti. Asillari birik turur, ammo uch narsa birla tafovutlari bor. Biri ul tururkim, farishtalar nurdin, parilar yolindin turur, ikkinchi, farishtalar malak atandi. Parilar jin atandi. Uchinchi, farishtalar o'rni aziz ko'kda bo'ldi, parilar yerda bo'ldi"²⁶.

Bu afsona islom miflarining O'rta Osiyo xalqlari folklorining epik an'analari ta'sirida qayta ishlanishi natijasida yuzaga kelgan. Chunki Arabiston yarim orolida istiqomat qilgan badaviy qabilalarining islomdan avvalgi mifologik tasavvurlariga ko'ra, jin-olovdan yaratilgan fantastik mavjudot. Bu mifologik tasavvur keyinchalik

²⁶Nasriddin Burhonuddin Rabg'o'ziy. Qissasi Rabg'o'ziy, 1-kitob, Toshkent1990,13-bet.

“Qur’oni karim”da ham o’z ifodasini topgan. “Xijr” surasining 27-oyatida bu haqda “Jinni (ya’ni, iblisni) esa (Odamdan) ilgari otash – olovdan yaratgan edik”-deyilgan²⁷.

Demak, islom mifologik talqinicha, jin olovdan yaratilgan, O’rta Osiyo arablar tomonidan fath etilgach, islom dini va mifologiyasi an’analari mahalliy qavmlar orasida keng tarqalgan. Ana shu tarixiy hodisalar muqobilida islom –arab asotirlari syujeti va obrazlar tizimining O’rta Osiyo xalqlari mifologiyasi an’analari bilan boyitilishi jarayoni ham ro’y bergan. Mifologik talqini va epik funksiyasida mushtaraklik mavjud bo’lgan obrazlar ko’pincha aynanlashtirib tavsiflana boshladi. “Pari”larni “jin” bilan aynanlashtirish ham ana shu an’ana mahsulidir.

“Jin-sharq mifologiyasi va ba’zi e’tiqodlarga ko’ra ko’zga ko’rinmaydigan, cho’l-biyobonda, xarobalarda, o’rmonda hayvon qiyofasida ko’rinib zarar yetkazadigan afsonaviy maxluq”²⁸.

Jin obrazining “ko’zga ko’rinmas”, “odamsiz joyni makon qiladigan”, “odamlarga inson yoki hayvon qiyofasida namoyon bo’ladigan” kabi an’anaviy belgilari O’rta Osiyo xalqlari mifologiyasida pari obrazi talqinlariga ma’lum darajada mos keladi. Shuning uchun o’rta asrlarda yozilgan filologik adabiyotlarda “pari” obrazi ko’pincha “jin”atamasi bilan yonma-yon qo’llaniladigan bo’ldi. Xususan, Zamaxshariyning “Muqaddimat ul-adab” asarida “jin” so’zi “pari” deb izohlangan; “Iblis” atamasining qarshisiga esa “mixtari piriyan”, ya’ni “parilar boshlig’i” deb yozib qo’yilgan²⁹.

Nosiruddin Burxonuddin Rabg’o’ziy ham “parilar jin atandi” deb yozganida, bir mifologik tizimga mansub ikki obrazning o’zaro aynanlashtirish hodisasini nazarda tutgan bo’lsa kerak.

Rabg’o’ziy talqinicha, “parilar o’tning yolqinidan” yaratilgan mavjudoddir. Nurota va Xatirchi o’zbeklari orasida tarqalgan e’tiqodga ko’ra, pari ishq tushgan odamga olov bo’lib ko’rinar emish. Hatto biror yigitning kimgadir shaydo bo’lib qolgani haqida gap ketganda “falonchining qizi falonchining ko’ziga olov bo’lib

²⁷Qur’oni karim. O’zbekcha izohli tarjima. Toshkent, 1992, 181-bet

²⁸Islom. Spravochnik- Toshkent, 1986, 78-bet

²⁹Qarang: A.E.Bertels. Peri// Kultura i izkusstvo narodov Sredniy Azii v drevnosti i srednevekove.M., Nauka, 1979.-S.124.

ko'rindi", deyдилar. Parilar insoniy (antropomorf) qiyofada namoyon bo'lishdan tashqari yana turli jonzodlar va hatto o't-olov shaklida ko'rinishi mumkinligi etnograflar tomonidan ham e'tirof etilgan. Nazarimizda, parilarning olov ko'rinishida namoyon bo'lishi haqidagi xalq qarashlari bevosita Rabg'o'ziy asarida keltirilgan islomiy asotirlar talqinlariga aloqadordir.

Islomiy asotirlarda parilarning ibtidosi olov bilan aloqador deb tasavvur qilingani bois bu go'zal mavjudodlarning alohida bir toifasi "Otash pari" deb ham ataladi.

Bundan tashqari, qadimgi O'rta Osiyoda yashagan ajdodlarimiz mifologik tafakkurida paydo bo'lgan pari obrazi ezgu va yovuz ruhlar kabi dual poetik vazifa bajaruvchi mifik personaj sifatida ham shakllangan. Taniqli olim S.A.Tokarov dualistik qarashlarning mohiyatini tashkil etuvchi ezgulik va yovuzlik timsollarini o'ziga mujassam qilgan mifologik qarashlarning tarixiy ildizini "Avesto"dan qidirish lozimligini ta'kidlaydi. "Avesto"da Axuramazda – Angra Maynyu dual vazifa bajaruvchi mifologik obrazlarning qadimiy tiplaridan biri ekanligi E.Taylor, A. M.Zolotarev, S.P. Tolstov kabi olimlar tomonidan e'tirof etilgan. Qadimgi zamonlardan pari obrazi ayni paytda ham homiy, ham yovuz kuch timsoli tarzida tasavvur qilingan bo'lishi kerak.

Parini bir yo'la ham ezgu, ham yovuz ruh sifatida tasavvur qilish an'anasi hozirgacha ham saqlanib kelmoqda. "Cho'pon va pari" afsonasida pari cho'pon yigitning mushkul ishlarini bajarishga yordam beradi. Biroq pari qo'ygan ta'qiqning cho'pon tomonidan buzilishi oqibatida parining chaqmoqqa aylanib, yigitni halok qilish motivi aynan ana shu dualistik qarashlarning poetik ifodasidir.

Xatirchiliklar tasavvurida parilarning bir turi martular bo'lib, martular odamlarga faqat zarar keltiradi deb qaraladi. Ba'zi shamonlarning mifologik homiylari qatorida ham mortularni uchratish mumkin. Xatirchilik folbin To'lg'onoy Mirzayevadan yozib olingan materiallarda Hindu pari va Ilon pari; navoiylik folbin SHamsiya bibi Ashurovadan yozib olingan materialda Turkman pari odamzodga shikast yetkazuvchi yovuz kuch sifatida tasavvur qilinadi.

Pari obrazining dual tabiati zardushtiylikda ham mavjud bo'lganligini aniqlagan L.Ya.Shternberg muayyan bir mifik obraz talqinida ikki xil, ya'ni qarama-qarshi vazifa bajarishi qadimgi odamlarning egizaklar kulti xususidagi inonchlari bilan bog'liq, deb hisoblaydi.

Bizningcha L.Ya.Shternbergning xulosasi juda o'rinli. O'zbek folkloridagi mifologik personajlar tizimidan o'rin olgan pari obrazining tabiatidagi dualizm qadimgi ajdodlarimizning ezgulik va yovuzlik o'rtasidagi kurash haqidagi tasavvurlari mahsulidir.

Bundan tashqari, parining insoniy qiyofada tasavvur qilinishi uning dual vazifa bajarishiga sabab bo'lgan. Mifologik obrazni reallashtirish natijasida insonga xos xususiyatlar uning badiiy vazifalariga ko'chgan. Pari obrazining mifologik talqinlariga xos yetakchi belgilardan biri uning genetik ildizlari dualistik qarashlar bilan bevosita bog'liqligidir.

O'zbeklarning mifologik qarashlariga ko'ra, parilarning paydo bo'lishi Odam Ota bilan momo Havoga bog'lanadi. Romitan tumanining Qahramon qishlog'ida yashovchi G'iyos Shexovdan yozib olingan afsonada pari bilan devlarning yaratilishi shunday tushuntiriladi: "Oллоh taolo yerni yaratganidan keyin ro'yi zaminni e'zozlash uchun Odam Atoni yaratganlar. Oллоh taolo tomonidan yaratilgan Odam Atoga juma kuni jon ato qilingan. Odam Ato 100 yil yashagandan keyin uning jufti haloli Momo Havo yaratilgan va ikkalasi turmush qurganlar. Momo Havo har gal homilador bo'lganidan bir qornida uchta farzand ko'ribdi. Uning qornining o'ng tomonidagi bolasi o'g'il bo'lgan, chap tomonidagisi qiz bo'lgan. O'rtadagisini Momo Havo bo'yaning orqasiga otganlar. O'sha bo'yra orqasiga otgan farzandlari xudoning amri bilan o'sib –ulg'ayib, bola-chaqali bo'lib ketibdi. Uning o'g'li dev, qizi pari bo'libdi. CHunki ular ona sutini emmagan va ona mehrini ko'rmagan ekan".

Qariyalarimizning aytishlaricha, "ko'zga ko'rinmas bu dev bilan pari odamlarga esh bo'lib, odamlar orasida yashashar emish". Xalqimiz dev bilan parilarni odamlarga o'xshatib tasavvur qilganligi uchun insonlarni ularga qondosh deb bilgan. SHu boisdan parilar odamlarga oshiq bo'ladi, hatto pari bilan odam orasida ishqiy munosabatlar ham sodir bo'ladi, deb o'ylaganlar.

Parilarning husni jamoli nihoyatda chiroyli bo'lib, o'zining beqiyos go'zalligi bilan kishini rom etarkan. Ularning badanlari ham nurdek shaffof, epik an'anadagi tasvirga ko'ra, "bir mayiz yesa, kindigiga borguncha ko'rinib turadi". Parilarning yashash joyi, manzil –makoni xususida esa ikki xil qarash mavjud:

a) epik an'ana talqinicha, parilar yurti Ko'hi Qof va Bog'i Eramdir.

b) xalq qarashlariga ko'ra, parilar zaminning o'zida, ya'ni odamlarga yaqin joyda ham istiqomat qilishadi. Faqat hammaga ham ko'rinavermaydilar. Parilar bog'larda, gulzorlarda, suv bo'yida ko'rinishar ekan. Navoiy shahrida istiqomat qiluvchi Akmal Tursunovning aytishicha, "parilar qadim zamonlarda paydo bo'lib, ular har kimga ko'rinavermas ekan. Agar kimki odamlarga yaxshilik qilib, el-yurt obro'sini qozongan bo'lsa, o'sha kishigagina ko'rinar emish. Parilar shu qadar chiroyli bo'lar ekanki, kishi parilarni ko'rgan zahoti hamma narsani unutib, pariga oshiq bo'lib qolar ekan.

Parilar eski quduqlarning bo'yida yoki egalari ko'chib ketgan eski uylarda bo'lar ekan. Ular har kuni kechqurun o'yin qilishar ekan. Agar o'yin qilayotgan vaqtda kimdir ularning yo'lini kesib o'tsa, o'sha odam kasalga chalinar ekan. Kasalga chalingan kishilar pari dohil bo'lgan yerda xatm qilib bersa, darrov darddan forig' bo'lar ekan".

Bu og'zaki hikoyada pari obraziga xos quyidagi o'ziga xos belgilar mavjud: parilarning behad go'zal bo'lishi; parilar suv (quduq) va odamsiz joy (xaroba uy) bilan aloqadorligi; parilar asosan tunda faollashishi va parilar o'yinining guvohi bo'lgan kishi dardga chalinishi. Shamon afsonalarida parilarning o'yiniga guvoh bo'lib og'ir dardga muhtalo bo'lgan kishilar keyinchalik shamonlik bilan shug'ullanishi yetakchilik qiladi.

Parilar alvasti, ajina, jin kabi yovuz kuchlar obrazlaridan farqli ravishda hamisha toza, pokiza joylarda bo'ladilar. Masalan, xatirchilik Ma'rifat momodan yozib olingan ma'lumotlarga qaraganda, parilar goho muqaddas qadamjolarini ham o'ziga makon qilishar ekan. Xatirchidagi Tuta ota masjidi yonidagi hujra ichida chiroq yonib turganini ko'rgan Ma'rifat momo yaqinroq borib qarasa, ichkaridan nur taralib turganmish. Ma'rifat momo kalimasini qaytarib, xujra eshigini ochib ko'rsa,

ichkaridagi oq kiyim kiygan chiroyli ayollar hujra o'rtasidagi muqaddas qabrni aylanib raqs tushishayotgan ekan. Keyinroq Ma'rifat momo shu yerdagi masjid hovlisida o'sha chiroyli ayollar o'yin tushishayotganini ham ko'rgan ekan.

Xalq qarashlariga ko'ra, parilar suv havzalarida (daryo, ariq, soy, ko'l, quduq) ham yashaydilar, deb tasavvur qilinadi. Xususan, xatirchilik 72 yashar Zuhra momo SHamsiyevaning aytishicha, qishloqda Rashbijon tepa degan tepalikning yonida Narpay arig'i oqadi. Mana shu tepalikda yettita hur pari yashar ekan. Ular har bozor kuni suv bo'yiga chiqib sochini yuvarkan. Keyin o'yin qilishar ekan. Agar kim ularning o'yinini buzib davrasidan o'tsa, uning sog'lig'iga ziyon yetarmish. Ana shu tasavvurlar zahirida ham pari haqidagi dual qarashlar o'z ifodasini topgan. Shu bois ular "o'yinini buzgan kishini" jazolaydi.

Parilarning suvda yashashi haqidagi mifologik tasavvurlar O'rta Osiyo xalqlari orasida keng tarqalgan. Masalan, Vaxsh tojiklari e'tiqodicha, pari va devlar daryoda yashaydilar. Ular faqat tunda daryodan chiqib, sohilda o'yin qilisharkan, chunki oftob nuri tushishi bilan ular o'zining sehrli kuchini yo'qotishar ekan.

G.P.Snesarevning qayd qilishicha, xorazmlik axborotchilar yakdillik bilan suvni parilar yashaydigan joy deb hisoblaydilar. Hatto parilarning bir toifasi "suv parisi" deb ataladi va ular suv qizlari, ya'ni rusalkalarga o'xshash ko'rinishda tasavvur qilinadi.

Shuningdek, G.P.Snesarev o'zining maqolalaridan birida xorazmliklar orasida keng tarqalgan "Suv qizi" haqidagi bir afsona matnini chop ettirgan edi. Mifologik tabu va uning epik janrlar syujet tizimidagi badiiy ko'chimini "Suv pari", "Suv qizi" afsonalari misolida tahlil qilgan K.Imomovning yozishicha, "pari va parizodlarning birinchi kategoriyasi o't-olov, ikkinchisi esa suv xaosini ifodalaydi. Binobarin, ayrim afsonalarda parilar suv xaosi sifatida assotsiallashtirilgan. Ular suvdan chiqib, suvga kirib g'oyib bo'ladilar. Shubhasiz, uning hatti - harakatida "Avesto"da ifodalangan suv muakkili Anaxitaning ta'siri seziladi"³⁰. Atoqli folklorshunos Hodi Zarifov epik ot obrazining suv bilan bog'liqligi haqidagi xalq qarashlarini tahlil qilar ekan, "ot va pari to'g'risidagi miflarda obodonchilik va

³⁰O'zbek folklori ocherklari.T.2.Toshkent, Fan, 1989, 18-bet.

forovonlik manbai –suv markaziy o' rinda turishi"ni alohida qayd qiladi. Ustoz alloma tomonidan ommalashtirilgan afsonada ham parilarning mifologik obraz sifatidagi ibtidosi dualistik qarashlar bilan bog'liqligiga ishora qiluvchi motivlar mavjud:

“Qishloqi yigit ko'lda yashovchi suv parilaridan biriga uylanadi. Yigit bu sirni saqlay olmaganligi, qizning shartini buzib qo'yganligi tufayli qiz eri va bolalari bilan turolmay, yana ko'lga tushib ketadi. Mana shuning uchun u qishloqning qiz va yigitlari go'zal deyiladi”³¹.

Garchi bu afsonada suv parisining tashqi ko'rinishi, shaklu shamoyili to'la tasvirlanmagan bo'lmasa-da, parilarga xos asosiy fazilat go'zallik ekanligi o'z ifodasini topgan. Qishloqning qiz va yigitlari g'oyat chiroyli ekanligining sababi ularning nasli- nasabi suv parilarga aloqador deb tahlil qilinishi shunday xulosa chiqarishga imkon beradi: yigit o'ylangan suv parisi bag'oyat suluv qiz bo'lgan. Qishloq ahlining tarqalishi pari va inosn nikohi bilan bog'lab talqin etiladi.

Yana shu narsa muhimki, H.Zarifovning quyidagi izohi suv parilarining mifologik tasviri mohiyatini oydinlashtirishga imkon tug'diradi: “Go'ro'g'li” dostonlarida parilarning Gulhovuz va Shishahovuzlarda cho'milishi, qahramon (Avaz) pari qizni hovuzda ushlab olishi, Ediganing otasi pari qizni cho'milib turgan joyida uchratib, unga uylanishi va shunga o'xshash epizodlar barchasi suv parisi obrazining xarakterli ko'rinishlaridir. Atoiyning:

Ul sanamkim suv yoqosinda paritek o'ltirur,

G'oyati nozikligindin suv bila yutsa bo'lur,

baytidagi tushunchaning manbai ham suv parisi haqidagi afsonalardadir”³².

Atoiy g'azallarining obrazlar tizimini va badiiy xususiyatlarini tahlil qilgan sharqshunos A.N.Samoylovich ham yuqoridagi bayt mazmuni mifologik tasavvurlar muqoyasasida shoir “pari” va “hur” o'xshatishlarining qo'llaganligini qayd qiladi. Olim “suv parisi” haqidagi ma'lumotlar O'rta Osiyo – chig'atoy shoirlari asarlarida uchramasligini, hatto, turkiy tillar lug'atlarida (shayx Sulaymon Buxoriy lug'ati) ham bu so'z mavjud emasligini alohida ta'kidlaydi.

³¹Zarifov H. O'zbek xalq dostonlarining tarixiy asoslari bo'yicha tekshirishlar// Po'ltkan shoir, Toshkent, 1976, 79-bet.

³²Zarifov H. Ko'rsatilgan maqola... 79-bet.

A.N.Samoylovichning o'zbek mumtoz adabiyoti namunalari bilan mukammal darajada tanish bo'lmaganligi ana shunday xulosa chiqarishiga sabab bo'lgan bo'lishi ehtimoldan holi emas. Xolbuki, mumtoz she'riyatda go'zallik timsoli sifatida tasvirlangan pari obrazi Lutfiyning

Ko'zim xiyol xaylina ravshan harim erur,

Ore, pari buloq boshida muqiyim erur,

baytida suv parisi sifatida namoyon bo'lganligi adabiyotshunos Ibrohim Haqqul tomonidan to'g'ri ko'rsatilgan.

A.N.Samoylovichning maqolasidagi yana bir bahsli masala suv parilarining slavyan mifologiyasidagi rusalka obraziga tenglashtirib qo'yilishidir. Chunki suv qizi va rusalka aynan bir xil mifik obrazlar emas. A.N.Samoylovichning o'zi ham garchi "suv qizi" atamasi "rusalka" ma'nosini anglatishi birortayam lug'atda qayd qilinmagan³³ligini e'tirof etadi.

Ma'lumki, rusalkalar slavyan xalqlari mifologiyasida suvda istiqomat qiluvchi, uzun yashil sochli, xunuk ayol qiyofasida tasavvur qilinadigan yovuz kuchlardan biri sanaladi. Xalq qarashlariga ko'ra, go'daklarning ruhlari rusalkaga aylanar emish.

Pari obrazi xalq orasida gohida homiy sifatida, ba'zan esa ziyon keltiruvchi yovuz kuch tarzida tasavvur qilinadi. Dualistik qarash ta'sirida yuzaga kelgan bu an'ana suv qizi obrazida ham o'z ifodasini topgan. Suv parilari esa xalq qarashlari bo'yicha, suv havzalarida doimiy yashaydigan go'zal qizlar suvratidagi, odamlarga yaxshilik qiladigan ezgu mifologik obrazdir.

Ko'rinadiki, suv parisi va rusalka ezgulik hamda yovuzlik ibtidolari bilan aloqador ikki mifologik tizimga oid tushunchalardir.

SHuni ham e'tirof etish kerakki, A.N.Samoylovich Atoiy yashagan davrda O'rta Osiyo turkiy xalqlari orasida suv qizlari haqidagi afsonaviy qarashlar mavjud bo'lganligini, Atoiy

Endi bildim rost ermish, balki ko'rdim ko'z bila,

Ulki derlar suv qizi goh-goh ko'zga ko'rinur, -

³³Samoylovich A.N. Ko'rsatilgan maqola... 94-bet.

baytida ana o'sha mifologik tasavvurlarga ishora qilayotganligini to'g'ri qayd qiladi³⁴.

Atoiyning ushbu g'azalini pari haqidagi mifik qarashlar tizimida tahlil qilgan I.Haqqulov ham "Atoiy suv parisiga dahldor ma'nolarni o'zi to'qimagan, balki xalq afsonalari mazmunlaridan ijodiy oziqlanib, she'r yaratgan", - deb o'z fikrlarini xulosalaydi³⁵. Bu juda to'g'ri va asosli xulosadir. Parilarning hosildorlik manbai- suv kulti bilan aloqadorligi an'anasining tarixiy ildizlari O'rta Osiyo xalqlarining islomdan burungi mifologiyasiga daxldor. Bu mifologik qarash asosida kelib chiqqan "suv parisi" obrazi va u to'g'ridagi afsonalar ming yillar davomida xalq orasida saqlanib kelgan.

Atoiy g'azalida ta'riflangan suv qizi to'g'risidagi mifologik tasavvurlarning qoldiqlari O'rta Osiyo turkiy xalqlari folklorida saqlanib qolganmi yoki yo'qmi? Folklorshunoslar bu masala yechimiga yetarlicha e'tibor bermay keldilar. Janubiy Turkmaniston Arxeologik kompleks ekspeditsiyasining XVIII otryadiga rahbarlik qilgan M.E.Massan Ko'hna Marv hududida qazuv ishlari olib borish barobarida, turkman mifologiyasidagi "suv qizi" obrazi xususidagi ma'lumotlarni to'plash bilan ham shug'ullangan. Bir keksadan yozib olingan afsonaga ko'ra, Makkaga hajga borgan bir kishi dengizda boshi go'zal qiz ko'rinishida, belidan quyi qismi esa baliq dumini eslatuvchi g'aroyib mavjudodni ko'rgan emish. Marvliklar e'tiqodicha, Murg'ob daryosida "odami obi", ya'ni "suv odamlari" deb ataluvchi afsonaviy mavjudodlar yashasharmish. Ular ayol va erkak jinsida bo'lib, doimo suv tubida turishar, hech qachon qirg'oqqa yaqin yo'lashmas ekan. Ularni olisdan kuzatgan kishilarning guvohlik berishlaricha, "odami obi"lar timqora jingalak sochli, ko'zlari it ko'ziga o'xshash, terisining tusi qoramtir, tishlari sadafdek oppoq emish.

Suv parilari haqidagi qadimgi mifologik qarashlar o'zbek folklorida nisbatan tugal holatda saqlanib qolgan. "Xizmatkorning omadi" ertagida tasvirlanishicha, bir savdogarning xizmatkori mevalar solingan qoplarni daryo bo'yiga qo'yibdi. Bu daryo

³⁴Samoylovich A.N. Ko'rsatilgan maqola... 95-bet.

³⁵Haqqulov I. Zanjirband sher qoshida, 177-bet.

ichida suv parilari yashar ekanlar. Ular xizmatkorning mevalaridan yeb ko'rib, undan namunalar olib, podsholari huzuriga boribdilar-da:

- Daryo bo'yida qoplar turibdi, u qoplar mana bunday shirin mevalar bilan to'la ekan,- deb olib borganlarini uning oldiga qo'yishibdi. Podsho ulardan totib ko'rib:

- Bu juda shirin mevalar ekan. Uning egasi kambag'al bo'lsa kerak. Siz qoplardagi mevalarni yeb tugatdingizmi?- debdi.

- Qoplari bo'shagan hisob,-javob berishibdi suv parilari.

- Yaxshilikka yaxshilik, mardlar ishi, yaxshilikka yomonlik, nomardlar ishi, bu narsalarni odamzod olib kelgan bo'lsa kerak. Uni xafa qilish pastkashlik bo'ladi. Siz yegan mevalaringiz o'rniga, qoplarni marvarid, gavhar, oltinlar bilan to'latib beringlar, u bizdan rozi bo'lib ketsin, -debdi podsho.

Suv parilari bir necha soat ichida suv ichidagi qimmatbaho toshlar, oltinlar, javohir bilan qoplarni to'ldirib qo'yibdilar³⁶.

Ko'rinadiki, bu ertakda tasvirlangan suv parilari daryo tubida yashaydigan, o'z podsholigi, tartib-qoidalariga ega bo'lgan, vaqti-vaqt bilan suv ustiga, ya'ni quruqlikka ham chiqib turadigan, odamzodga yaxshilik qiluvchi mifologik obrazlar sifatida talqin qilinadi.

Suv pari obrazining talqini "Suv qizi" ertagida³⁷ o'zining mukammal badiiy ifodasini topgan. Ertakda tasvirlanishicha, podsho bir kuni suvdan chiqib, bir necha gaz sochini yoyib daryo suvida yuvib o'tirganmish. Podsho qizni ko'rib yaqinroq kelibdi. Qiz podshoni ko'rib qochibdi. Suvga tushib g'oyib bo'libdi. Qahhor podsho qizni bir ko'rishdayoq oshiqu beqaror bo'lib qolibdi.

Suv qizining o'ziga xos belgisi – chiroyliligi, sochining nihoyatda uzunligi, sochini daryo sohiliga chiqib tarashi, uni ko'rgan qahramonning oshiq bo'lishidir. Qahramon qizni izlab suv osti olami, ya'ni o'zga epik dunyoga boradi. U yerdagi hayot, jug'rofiy tuzilish, hatto ijtimoiy tuzum ham zamin odamlari turmush tarziga

³⁶O'zbek xalq ertaklari. – Toshkent. YOsh gvardiya, 1985, 121-bet.

³⁷Bir bor ekan: O'zbek xalq ertaklari, -Toshkent, Mehnat,1995, 144-149-betlar.

monand holda tasvirlangan. Qahramon o'z epik yordamchilari (G'ayrat, doya kampir) ko'magida suv qizining vasliga yetishadi.

Xalq orasida suv parisiga uylangan yigit haqidagi afsona va ertaklar juda ko'p uchraydi. Navoiy viloyatining Qiziltepa tumanidagi Arabon qishlog'ida yashovchi Xadicha Toirovadan biz yozib olgan afsonada hikoya qilinishicha, SHerali degan yigit daryoga baliq ushlagani borganda suvda bir qizning aksini ko'rib, oshiq bo'lib qoladi. U qiz suvda yashar ekan. Oq dev bilan qora dev uni doim qo'riqlab turar ekan. Sherali suv tagiga tushub, suv qizini olib kelib uylanibdi. Devlar olib qochib ketmasin, deb qizni qutichada yashirib saqlar ekan. Bir kuni SHeralining darvozasi yonida ot kishnagani eshitilibdi. Chiqib qarasa, gijinglagan ikki ot turganmish. SHerali bu otlar dev ekanligini bilib, hovlisiga olib kirib bog'lab qo'yibdi-da, xotiniga otlarga suv bermaslik kerakligini aytibdi. Ammo bir kuni SHerali uyda yo'qligida qizning rahmi kelib, otlarga suv beribdi. Suv ichgan otlar bir dumalab devga aylanibdi-da, qizni olib qochib ketibdilar.

Otlarga suv bermaslik ta'qiqining buzilishi yigitning suv parisidan ajralib qolishiga sabab bo'lgan. Ma'lumki, suv-hayot manbai, ertaklarda obi hayot suvi tiriklik ato etuvchi ne'mat sifatida tasvirlanadi. Bu afsonada ham ana shu e'tiqodning bir ko'rinishi o'z ifodasini topgan: suv-evrilish, ya'ni ot suvratidagi devlar o'z asl qiyofasiga qaytishiga sabab bo'lgan magik vositalardir.

Xalq qarashlarida suv parilaridan ayrimlarining nomlari ham mavjud. Shunday parilardan biri Suqsur paridir. Masalan, Nurotalik Ochil qushnoch Abdullayevadan Rahmatulla YUsuf o'g'li yozib olgan matnda ham bu pari nomi tilga olingan:

Suv bo'yida Suqsur pari,
Qo'llasinda, xudoyim, oblahuv!³⁸

Demak, Suqsur parining manzili-suv tubidir. U suv parilarining yetakchisi yoki kuchli magik xususiyatga ega bo'lgan homiylaridan biri bo'lganligi matnda o'z aksini topgan.

³⁸O'zR FA Til va adabiyot instituti folklor arxivi. Inv.№ 1443/X .

Parilar haqidagi afsonalarda Simiyon, Simin bog' kabi atamalar ko'p uchraydi. Xorazmliklar orasida Simiyon pari haqida mifik tasavvurlar mavjudligi G.P.Snesarev tomonidan qayd qilingan.

Qori Qulmurod Sadriyevadan etnograf olim O.Murodov yozib olib nashr ettirgan o'zbekcha qushnoch aytimi matnining an'anaviy "bismillo"dan keyingi dastlabki misrasida Simin bog' nomli afsonaviy joy tilga olingan: "Simin boqqa yurgan parilarning tili bilan sizdan madad tilarman!"³⁹.

Nazarimizda, Simin bog'- suv ostida joylashgan deb tasavvur qilingan afsonaviy go'sha, suv parilari dam oladigan joydir. Simiyon pari ana shu bog' sohibasidir. Chunki chiroqchilik qushnoch Ashiroy Ro'ziyevadan 1957 yilda Muzayyana Alaviya yozib olgan parixonlik marosimi aytimidagi quyidagi misralar shunday xulosa chiqarishga imkon beradi. Qushnoch aytimining "Ko'ch-ko'ch" qismida:

Simyon bo'lsang suvlarga,
Arvoh bo'lsang go'rlarga,
Hayda, badbaxt, o'ynab ko'ch! -"

deb yovuz ruhlar haydaladi.

Basharti, Simiyonning "ko'chish joyi" suvlik manzil deb qaralar ekan, bu o'rinda suv ostida yashovchi yovuz kuch, ya'ni kasallikka sabab bo'luvchi sifatida tasavvur qilingan Simiyon pari nazarda tutilayotganini anglash qiyin emas.

Ba'zi shamonlarning aytimlarida suv bo'yi, suv manbalari, umuman suv stixiyasi bilan aloqador pari sifatida Sulaymon pari obrazi ham qo'llaniladi. Chiroqchilik Ashiroy Ro'ziyeva childirmani aylantirib chalar ekan, momo, pari va pirlarini chaqirganda Sulaymon pari nomini ham tilga oladi:

Suv bo'yida o'tirib,
Suvni ravon aylading,
Sulaymon pari eninglar!⁴⁰

³⁹Murodov O. SHamanskiy obryadovyy folklor u tadjikov sredney chasti doliny Zerafshan//Domusulmanskiye verovaniya i obryady v Sedney Azii. -M., 1976. -S. 101.

⁴⁰O'zR FA Til va adabiyot instituti folklor arxivi. Inv. № 1315/I. 85- bet.

“Suv labida oʻtirgan Sulaymon pari” misrasi Zarafshon daryosi boʻyida yashaydigan oʻzbek shamonlarining ritual aytimlarida ham mavjudligi A.O.Suxareva tomonidan qayd qilingan. Olima bu misrani tahlil qilar ekan, Sulaymon parining suv stixiyasi bilan aloqalantirilishiga ikki narsa asos boʻlgan boʻlishi mumkin, deb hisoblaydi:

- a) “Sulaymon” va “suv” soʻzlarining fonetik jihatdan oʻzaro yaqinligi;
- b) diniy aqidalarda Sulaymon alayhissalomning suv bilan bogʻlanishi.

Sulaymon pari obrazining kelib chiqishi aslida islomiy asotirlarda nomi zikr etilgan paygʻambarlardan biri Hazrati Sulaymon alayhissalom haqidagi mifologik qarashlar evolyutsiyasi bilan bogʻliqdir. Mifologik tasavvurlarga koʻra, olamdagi jami mavjudodlar, insu jinslar Sulaymon paygʻambar amriga boʻysoʻngan, yaʼni uning sehrli negini(uzugi)ga tobeʼ boʻlishgan ekan. Dev va parilar ham unga itoat qilishgan. Bu esa keyinchalik ayrim mifologik tizimlarda uning oʻzi ham “pari” deb tasavvur qilinishiga asos boʻlgan.

Sulaymon parining suv bilan aloqadorligi ham mifologik qarashlar tizimida anʼanaviylashgan holatlardan biri boʻlib, O.A.Suxarevaning taʼbiricha, fonetik muqobillik, yaʼni alleteratsiya qonuniga daxldor emas. Chunki xalq qarashlarida Sulaymon alayhissalom obrazi koʻpincha suv stixiyasi bilan bogʻlab talqin qilinadi. Hatto oʻzbek topishmoqlaridan birida “Suvda Sulaymonni koʻrdim” (baliq) misrasi mavjud. Sulaymon alayhissalomning shohona taxti suv ustida turgan emish. Bu mifologik qarash qozoqlar folklorida ham qayd qilingan. Sulaymon pari garchi suv stixiyasi bilan bogʻliq tasavvur qilinsa-da, u suv parilari toifasiga kirmaydi.

Bizning kuzatishlarimiz shuni koʻrsatadiki, suv parilari oʻzbek shamonlari bilan doimiy retual muloqotda boʻlib turadigan homiy ruhlar toifasiga mansub mifologik obrazlar sirasiga kiradi.

Navoiy viloyatining Navoiy tumani Jaloyir qishlogʻida yashovchi folbin SHamsiya momo Ashurovadan folklorshunos O.Qayumov 2006 yilning 8 mart kuni yozib olgan hikoyada: “Men asosan kitob koʻrib fol ochaman. Bobom Hazrati Bahovuddinning darvoza eshoni boʻlganlar. Bibim ham mulla boʻlganlar. U kishi qazo qilgach, kitoblarini olib jinni boʻlib qoldim. 21 yoshimda folbinlikni qoʻl

olganimdan keyin sog'aydim. Kitobni ochsam, parilar ko'rinishadilar. Ular menga fol ochishga kelgan kishi haqida ma'lumot beradilar. Suv bo'yiga chiqdim, ariq yoqasida parilar ko'rinadi. Folga kelgan kishilarni qonlab, tovug'ini so'yib, pishirib, kalla – pochasini ariqqa oqizib yuboraman. Suv parilari shundan minnatdor bo'lib ko'rinmaydilar”.

Shamsiya momoning yordamchi va homiylari- suv parilari. Ular vaqti-vaqti bilan qurbonlik talab qilishadi. Ariqqa oqizilgan jonliq kalla- pochasi ana shu qurbonlik timsolidir.

Xalq qarashlarida suv parilarining tashqi ko'rinishi, vazifalari, odamzodga munosabati xususida ham qiziqarli ma'lumotlar saqlangan. Suv parilari bilan ritual muloqatda bo'luvchi navbahorlik baxshi Shoiri Haqberdiyeva(xalq orasida Gumgumcha nomi bilan tanilgan)ning guvohlik berishicha, “ularning tuzilishi bel qismigacha xuddi qizlarga o'xshash, juda nozik, qo'llari ingichka, juda chiroyli, jozibali. Beldan quyi qismi baliqning dumiga o'xshash – oyoqlari yo'q. Muloqot oldidan qandaydir nozik qo'lcha yuzlarimni silaydi, quloqlarimdan tortqilaydi. SHunda mening ko'zlarim yumilib, uyqu bosa boshlaydi. Ular ba'zan quruqlikda, ba'zan esa suv ichida men bilan so'zlashadilar”.

Xatirchi tumanidagi A.Yorlaqabov nomli jamoa xo'jaligida yashovchi folbin To'lg'anoy opa Mirzayeva bilan folklorshunos O.Qayumov 2007 yil 20 mart kuni suhbatlashganida, u suv parilari haqida quyidagilarni so'zlab bergan edi: “Ariqdagi suv suv parilari bilan oqadi. Suv parilari bor uchun ham suv inson diqqatini tortadi. Ular suvda bilakuzuklarini yuvib taqadi. Ota -bobo arvohlariga chiroq yoqadi”.

T. Mirzayeva fol ko'rayotganda suv parilari madadiga ham tayanadi. U doirani aylantirib chaladi va:

Suv parilari, xabar beringlar-o,

Ilon parilari, nari ketinglar-o,-

deb odamlarga yomonlik qiladigan ilon parilarini haydaydi, ezgulikni xush ko'radigan suv parilari yoniga chorlaydi.

To'lg'anoy opa Mirzayevaning aytishicha, u bilan muloqot qiladigan parilarning umumiy soni 170 ming nafar bo'lib, shulardan 21 tasi o'z ismini aytishga

ijozat bergan. Nomini tilga olish mumkin bo'lgan parilar sirasida o'n to'rtinchi bo'lib suv parisining ismi keltiriladi.

Suv parisi o'zbek mifologiyasining dualizm bilan bog'liq qadimiy obrazlaridan biri. Bu obraz bilan bog'liq inonchlar turkiy xalqlar mifologiyasining suvda pariga mengzash ayrim personajlar, xususan, suvda yashovchi afsonaviy jonzodlar to'g'risidagi e'tiqodiy qarashlarga ham aloqador hamda genetik jihatdan mushtarak asosga ega. Xususan, Qozon tatarlari va G'arbiy Sibirda yashaydigan mo'g'il - tatarlari mifologiyasida "suv anasi" (suv onasi) yoki "su iyase" (suv egasi) obrazlari bor. "Su anasi" inson ko'rinishidagi afsonaviy mavjudod bo'lib, suv havzalarida yashar emish. Uning eri – "Su babasi", ya'ni suv buvasi va bolalari – "Su iyase", ya'ni suv egasi ham bor deydilar. U yarim kechasi bolalarini ko'prik ustiga olib chiqib, yuvintirar emish. Odamlarga esa, ko'pincha suv bo'yida sochini tarayotgan holatda ko'rinar ekan. Tatarlar "Su anasi" yovuz ruh bo'lib, qurg'oqchilik, kasallikka sabab bo'lishi, odamlarni suvda cho'ktirib yuborishi mumkin, deb o'ylaydilar. Shuning uchun yangi xonadonga tushgan kelin birinchi marta suvga borganda, "Su anasi"ga atab suvga tanga tashlagan.

Tobol viloyati tatarlari esa suvda yashaydigan bunday mifik jonzodlarni "sou – pyare", ya'ni suv parisi deb hisoblaydilar. "Su anasi" ana shu suv parilarining boshlig'i. U yovuz kuch bo'lib, cho'milayotgan yoki suv olayotgan kishilarning oyog'idan tortib cho'ktirishga urinar emish. "Su anasi" ba'zan sochlari to'zg'igan qari kampir qiyofasida ham tasavvur qilingan. Odatda tatar mifologiyasida su anasining asosiy belgisi - atributi sifatida oltin chelak bilan oltin taroq detallari qayd qilinadi⁴¹.

Suv parisi obrazi qo'miq va qarachoy-bolqarlar mifologiyasida ham mavjud. Ular ham bu afsonaviy ruhlarni "suv anasi" deb ataydilar. Qo'miqlarning suv anasi haqidagi mifik qarashlari tatar folklori talqinlariga o'xshab ketadi.

Suv parisi, su anasi, su iyase, suv anasi obrazlarining tarixiy asoslari mushtarak bo'lib, ularning mifologik talqinlari va epik tasvirlarida umumiylik mavjud.

⁴¹Tatarы Srednego Povol'ya i Priural'ya. –M., Nauka, 1957. –S.360.

Suv parisi obrazining kelib chiqishi va pari obrazining suv bilan aloqadorligi masalasining tarixiy ildizlari xususidagi fikrlarimizni quyidagicha umumlashtirishimiz mumkin:

1) O'rta Osiyo hududida qadim zamonlardan buyon sug'orma dehqonchilik yuksak darajada taraqqiy etib kelgan. Sun'iy sug'orish imkoniyati bo'lmagan joylarda esa tabiiy namlanishga asoslangan lalmi dehqonchilik rivojlangan. Lekin dehqonchilik madaniyatining yuzaga kelishiga asos bo'lgan yetakchi unsur suv hisoblanadi. Suv – zamindagi boqiy hayot, mo'l hosil, to'kin –sochinlik, farovonlik timsoli. Qurg'oqchilik, ya'ni suvsizlik esa ofat keltiruvchi yovuz kuchlar faoliyati bilan aloqalantirilgan. Ajdodlarimizning islomdan burungi mifologik qarashlari tizimida muhim o'rin tutgan hosildorlik kulti ham avvalo suv bilan bog'liq holda kelib chiqqan. YA'ni hosilning mo'l bo'lishini suvda yashaydigan, suv stixiyasi tarzida namoyon bo'ladigan ezgu ruhlar, homiylar madadidan deb bilganlar. Nazarimizda, parilarning suv stixiyasiga aloqadorligi, odamlarga ba'zan suv bo'yida ko'rinishi, ularning alohida bir toifasi suv parilari deb atalishi bu obraz genezisida qadimgi hosildorlik inonchining ham ma'lum ta'siri borligidan dalolat beradi.

2) Pari obrazi dastlab O'rta Osiyo hududida yashagan ajdodlarimizning zardo'shtiylikdan avvalgi dehqonchilik marosimlari, hosildorlik inonchi va u bilan bog'liq xalq qarashlari asosida kelib chiqqan mifik homiy timsoli bo'lgan. Basharti hosildorlik inochining ritual asosi-ezulik timsoli deb qaralgan suv bo'lgan ekan, parining hosildorlik kultiga aloqador jihatlari keyinchalik suv parisi obrazida mujassamlashtirilgan.

II BOB. Mifologik tasavvur va mifologik xarakterdagi motivlar diffuziyasi

II.1.Xizr va Ilyos obrazlari va ular bilan aloqador motivlar tipologiyasi

O'zbek mifologiyasining qadimiy personajlaridan biri bo'lgan Xizr obrazi xalqimizning e'tiqod va qarashlari, folklor asarlari va yozma adabiyotida keng o'rin olganligi bilan o'ziga xoslik kasb etadi. Bu mifologik obrazning mohiyati, u bilan aloqador inonch-e'tiqodlar, folklor va yozma adabiyotdagi badiiy talqini kabi masalalar adabiyotshunoslikda ma'lum darajada o'rganilgan. Shunday bo'lsa-da, Xizr obrazining xalq qarashlari va mifologik tasavvurdagi talqinlari, bu asotiriy personajning genetik ildizlari, qadimiy kultlar va inonchlar bilan aloqadorligi kabi masalalar yetarlicha yoritilmagan. Xizr obrazining yuzaga kelish tarixi xususida so'z yuritishdan avval «Xizr» atamasi haqidagi mulohazalarimizni bayon etaylik.

Tilshunos olim V.G.Axmetyanov Volgabo'yi xalqlari mifologiyasida ham Xizr obrazi mavjudligini aniqlab, bu obrazning genezisini arab folklori bilan bog'laydi. Uningcha, «Xizr» so'zi arab tilidagi «Xazara» («doimiy yashillik») so'zidan kelib chiqqan. Darhaqiqat, arab tilidagi «al-huzur» so'zi «yashil rang», «al-huzrat» so'zi «ko'kat, maysa», «huzari» leksemasi «yashil rangli qush», «al-xuzarat» esa «yashil» ma'nosini anglatadi.

Professor M. Seyidov ozarbayjon tilidagi «ХЫЗЫР» va arab tilidagi «Xidir» so'zlarini bir-biridan farqlab, ular genezisiga ko'ra ham farqlanishini qayd qiladi. Uningcha, Xizr - turkiy xalqlarning suv, olov, issiqlik, bahor, hosildorlik, yashillik va hayot suvi to'g'risidagi mifologik tasavvurlari asosida yaratilgan. Xidir esa arab mifologiyasi mahsulidir.

M.Seyidov Ozarbayjon xalq qo'shiqlaridan biridagi «ХЫЗЫР, ХЫЗЫР, ХЫЗ катир, var daradan od katir» (Xizr, xizr, xiz (issiqlik) keltir, bor daladan olov keltir) misralari tarkibidagi «**issiqlik**», «**olov kuchi**» ma'nolarini anglatuvchi «**ХЫЗ**» so'zi «**Xizr**» atamasining kelib chiqishi uchun asos bo'lgan» deb hisoblaydi. Atamaning ikkinchi komponenti - «**ir**» so'zi esa turkiy tillarda «**er**», «**erkak**», «**odam**» ma'nolarini bildiruvchi «**ar**» leksemasidir. Olim «**Xiz + ar**» so'zlarining birikuvidan «**ХЫЗЫР**» atamasi kelib chiqqanligini qadimgi xunn-turkiylar mifologiyasida momaqaldir oq tangrisi «Guar» (Gu+ar) nomi bilan qiyoslab isbotlash orqali «ХЫЗЫР» so'zi kelib chiqishiga ko'ra, turkiy tilga xos bo'lib, issiq, er, erkak, odam ma'nolarini anglatadi. ХЫЗЫР – bu er, qahramon, bahor elchisi, bahoriy iliqlik, olov, kuch- qudratdir», - degan muhim xulosaga keladi.

Biz ham «Xizr» atamasining etimologiyasi masalasida professor M.Seyidov fikrini quvvatlagan holda O'zbek tilidagi «**qizdirmoq**», «**qizmoq**» fe'llari tarkibidagi «**qiz**» O'zagi «Xizr» (Kizir// Qidir) atamasining kelib chiqishiga asos bo'lgan deb o'ylaymiz.

Ko'pgina ilmiy manbalarda Xizr obrazining islomdan burungi davrlarda yuzaga kelganligi qayd qilinadi. Masalan, V.V.Bartoldning yozishicha, «Xizr to'g'risidagi afsonalar musulmonlarga xos bo'lmagan xarakterga ega bo'lsa-da, ammo faqat musulmonlar orasida keng tarqalgan va boshqa diniy ta'limotlarda Xizr haqidagi

tasavvurlar mavjud emas. Shuningdek, Xizr nomi “Qur’on” da ham qayd etilmagan. Xizr obrazida xalqlarning turli davrlardagi tasavvurlari, Gelgamish haqidagi Bobil afsonalaridan to yenoq va Ilya to’g’risidagi «Ko’hna ahd» rivoyatlarigacha bari mujassamlashgan.»

E.E.Bertels esa «Xizr obrazi o’simliklar olamiga xos sifatlarni o’zida mujassamlashtirgan mifik personajlar haqidagi afsonalar bilan ma’lum darajada aloqador bo’lishi kerak», - deb hisoblaydi.

A.Klimovich Xizr to’g’risidagi tasavvurlarni ibtidoiy davr kishilari o’ylab chiqargan, bu personaj qadimgi odamlarning tabiat kuchlariga qarshi kurashishi natijasida vujudga kelgan deb hisoblaydi.

S.A.Qasqabasovning yozishicha, Xizr obrazi islomdan avvalgi tasavvurlar zahirida shakllangan bo’lib, o’zida qadimgi turkiylarning shomonistik tushunchalari va ajdodlar kultiga doir e’tiqodlarni ifodalaydi.

Xizr obrazining islomdan burungi mifologiyaga bog’lanishini boshqa olimlar ham e’tirof etishgan. Masalan, B.Sarimsoqov, M.Jo’rayevlar fikricha, Xizr obrazining genetik zahirida zardo’shtiylik an’analari yotadi.⁴² Masalan, M.Jo’rayevning fikricha, Xizr - «Avesto»da nomi keltirilgan «etti barhayot azizlar» - «axura»lardan biri. Uning yozishicha, «O’rta Osiyo mifologiyasida ajdodlar ruhi va tabiat stixiyasining homiylari haqidagi xalq qarashlari asosida 7 oliy ruh yoki tangri obrazi paydo bo’lgan. Bu mifik yettilik «Avesto»da ezgulik kuchlari sifatida talqin etilgan. Axura Mazda va uning 6 hamrohi birlashib 7 barhayot azizlar – axuralarni tashkil etadi... «Barhayot azizlar» homiyligi xalqimizning mifologik tasavvurlarida Xizr nomi ostida asrlar osha saqlanib qolgan».⁴³

Haqiqatdan ham, Xizr obrazi islomdan burun shakllangan bo’lishiga qaramasdan, avliyolar kultining keng ommalashishi jarayonida islomiyatning dastlabki davrlaridayoq musulmon diniga oid manbalardan o’rin ola boshlagan. Xususan, asli yamanlik bo’lgan adib Vahhob ibn Munabbihning «Kitob at-Tijjon»

⁴² Sarimsoqov B. O’zbek marosim folklori. – Toshkent: Fan, 1986. – B.194; Sejidov M. Azerbajchan mifik tafakkurunun gajnagları. – Baky: Jazychy, 1983. – S.104-110; Jo’rayev M. O’zbek xalq ertaklarida sehrli raqamlar. – Toshkent: Fan, 1991. – B.123-124.

⁴³ Jo’rayev M. O’zbek xalq ertaklarida «sehrli» raqamlar. – Toshkent: Fan, 1991. – B.123-124.

nomli islomiyatning ilk asrida yaratilgan asarida hazrati Xizrning Iskandar Zulqarnayn bilan birga boqiylik tog'iga chiqqanligi tasvirlangan.⁴⁴

Islomdan burungi mifologiyada homiy kuch ramzi sifatida tasavvur qilingan Xizr obrazi nasroniylik dinining g'alabasi uchun kurashgan avliyo Muzaffar Georgiyning sifatlarini ham o'zida mujassamlashtirgan. Dahshatli ilonni mahv etib, nasroniylik g'alabasini ta'minlagan Muzaffar Georgiy singari hazrati Xizr ham islom dinining keng yoyilishi uchun mo''jizalar ko'rsatuvchi personajga aylantirilgan. O'sha davr arab adabiyoti va diniy manbalaridagi Xizr obrazining talqini haqida so'z yuritgan N.Ibrohimov shunday yozadi: «Hazrati Xizr timsolida, bir tomondan, uning islomiyatga qadar yaratilgan prototipiga xos xislatlar, ya'ni nasroniylik g'alabasi uchun kurashib, ilonni mahv etgan (Xizrning asosiy vazifasi islomga ham madadkorlikdir) qahramon xislatlari jamlangan bo'lsa, ikkinchi tomondan, Xizr timsolida xalq ommasining har ishga qodir, odil va ezgu madadkor to'g'risidagi orzusi mujassamlashgan».⁴⁵

Xizr obrazining evolyutsiyasida yuz bergan ayni shu holat, ya'ni uni islom dinining himoyachisi, bu dinning keng yoyilishi uchun kurashgan qahramon sifatida tasavvur qilish an'anasining izlari ayrim adabiy - diniy manbalarda, xususan, Nosiruddin Burhonuddin Rabg'uziyning «Qisasi Rabg'uziy» asarida ham uchraydi. Mazkur asarning «Xizr va Ilyos alayhissalom so'zlari» deb atalgan faslida hikoya qilinishicha, Xizr bilan Ilyos ya'juj - ma'jujlar yurtiga borishibdi. Ular butga sig'inuvchilar bo'lib, yemishlari ko'k o't ekan. Xizr bilan Ilyos ularga murojaat etib, butga topinmaslikni va sharob ichishni to'xtatishini so'rabdilar. Ya'juj - ma'jujlar podshosi ulardan biror mo''jiza ko'rsatishni talab qilibdi. Ular: «Qanday mo''jiza tilarsan?» - deyishibdi. Podsho bir necha yillar burun qizi vafot etib ketganligini aytib, agar uni tiriltirsalaring sizlarning diningizni tan olib, imon keltirayin», - debdi. Xudoning amri bilan qiz tirilibdi-da: «Ularning so'zlari rostdur, butga topinmang, Ollohga itoat qiling. Sizni olloh yaratdi, mulk berdi. Qavmingga aytgil, imon keltirsin», - debdi. SHunda podsho: «Oshiqmagil, men o'ylab ko'rayin», - debdi. Qiz:

⁴⁴ Ibrohimov N. O'rta asr arab xalq adabiyoti.-Toshkent: Fan, 1994. -B.152.

⁴⁵ Ibrohimov N. Ko'rsatilgan asar. -B.153.

«Ey, mal'un, nimasini o'ylaysan? O'lganiga ko'p yillar bo'lgan kishining tirilib kelishi oxiratdan belgi emasmi? YAna ne so'zing bor?!» - deb otasidan yuz o'giribdi va: «YO Oллоh, jonimni olgil. Boyagi holni tilarman», - deb xudoga iltijo qilibdi. Oллоh taolo qizning jonini olibdi.

Podsho iymon keltirmagandan keyin Xizr bilan Ilyos halokat duosini o'qibdilar. Ammo Oллоh taolo bu elni darhol halok qilmasdan, Xizr bilan Ilyosning talabiga ko'ra bulutning ixtiyorini ularning qo'liga berdi. Sakkiz yil yomg'ir yog'madi, ocharchilik bo'libdi. Faqat Xizr bilan Ilyosga jannatga taom kelib turibdi. YA'juj - ma'jujlar qahatchilik va qurg'oqchilik azobidan qattiq qiynalibdilar. Oxiri ularning podshosi Xizr bilan Ilyosning huzuriga kelib iymon keltiribdi va musulmon bo'libdi».⁴⁶

Bu diniy afsonada ham Xizr islom dini ta'limotining keng yoyilishi uchun kurashgan mo''jizakor zot, Oллоh bilan muloqot qila olish darajasiga yetishgan avliyo sifatida gavdalanadi. Xizr obrazining bunday talqini uning islom dini ta'sirida xaloskor - homiy personajdan islom g'oyalarini keng targ'ib qiluvchi avliyoga aylantirilganligini ko'rsatadi.

Ayrim manbalarda Xizr payg'ambar maqomida ham tasvirlanadi. Masalan, ye.Bertelsning yozishicha, «Xizr - doimiy barhayot payg'ambar, hamma narsani biluvchi g'aroyib ko'makchidir».⁴⁷ Adabiyotshunos I.Haqqulovning fikricha, «Xizr-dunyodagi ko'pgina halqlar adabiyotida uchraydigan diniy - mifologik obraz. Afsonaga binoan, u «obi hayvon» - tiriklik suvini izlab topgan va uni ichib, abadiy hayotga erishgan payg'ambar».⁴⁸

«O'zbek tilining izohli lug'ati»da yozilishicha, «Xizr katta degan ma'noni bildiruvchi diniy-afsonaviy payg'ambar» nomidir.⁴⁹ «Navoiy asarlari lug'ati»da qayd qilinishicha, «Xizir - afsonaga ko'ra, «obi hayvon» (tiriklik suvi)ni izlab topgan va undan ichib, doimiy tirik yurgan bir payg'ambarning nomi. Kishilarga yo'ldoshlik

⁴⁶ Nosiruddin Burhoniddin Rabg'uziy. Qisasi Rabg'uziy. Ikkinchi kitob. - Toshkent: YOzuvchi, 1990. - B.68-70.

⁴⁷ Nizami. Iskandarnama. Chast 1. - Baku: 1940. - S.60, 371, 379.

⁴⁸ Haqqulov I. Zanjirband sher qoshida. - Toshkent: Cho'lpon, 1990. - B.178.

⁴⁹ O'zbek tilining izohli lug'ati. 2-tom. - M.: Rus tili, 1981. - B.323.

bilan mashhur».⁵⁰ Ushbu lug'atda «Xizrvash», «Xizrruh» leksemalari ham berilgan bo'lib, «Xizrday yo'l ko'rsatuvchi» va «Yo'l ko'rsatuvchi Xizr» ma'nolarini anglatishi aytilgan.

J.Lapasov o'zining mumtoz adabiy asarlar uchun tuzgan lug'atida Xizr so'zini «obi hayotni izlab topgan va undan ichib doimiy tirik yurgan bir payg'ambarning nomi» deb izohlagan⁵¹. Alisher Navoiy asarlari uchun tuzilgan qisqacha lug'atda ham «Xizr - tiriklik suvini ichgan payg'ambar», deb qayd qilingan.⁵²

Ko'rinadiki, «Xizr» atamasining lug'atlardagi izohlaridan bu mifik obrazga xos bir nechta yetakchi belgilar, ya'ni uning «obi hayot» suvini ichganligi uchun abadiy tiriklikka erishganligi; payg'ambarlar sirasiga mansubligi; hamisha kishilarga madadkorligi, homiyliги kabi xususiyatlar ayon bo'ladi.

Xizr nomi turli manbalarda payg'ambarlar sirasida sanab kelinsa-da, uning payg'ambar ekanligi bahsli hisoblanadi. Bu haqda Nosiruddin Burhonuddin Rabg'uziyning «Qisasi Rabg'uziy» asarida shunday deyiladi: «Xizr ma'nisi yashil bo'lur. Qayu tosh uza Xizr alayhissalom o'ltursa, ul yer ko'karur erdi. Ba'zilar aydilar, Xizr yalavoch erdi. Ba'zilar aydilar, yalavoch ermas, solih, muslih erdi. Tag'i sayramlig'. Bani Isroilda ulg'ardi. Mangu suyin ichib tirik qoldi, ammo Ilyos Mursal yalavoch turur».⁵³

Ana shu ma'lumotning o'zi ham Xizr payg'ambar emas, balki solih, donishmand, barhayotlik suvini ichganligi uchun mangu tirik kishi sifatida tasavvur qilinganligini ko'rsatadi.

Arab tilida yozilgan ayrim manbalarda Xizr Muso alayhissalom bilan suhbatlashgan donishmand kishining nomi ekanligi aytiladi. Masalan, Hasan Amidning «Farhangi Amid» nomli lug'atida «Xizr - Musoning suhbatdoshlaridan

⁵⁰ Shamsiyev P., Ibrohimov S. Navoiy asarlari lug'ati. - Toshkent: Adabiyot va san'at nashriyoti, 1972. – B.653.

⁵¹ Lapasov J. Mumtoz adabiy asarlar uchun o'quv lug'ati. - Toshkent: O'qituvchi, 1994. – B.227.

⁵² Navoiy asarlari uchun qisqacha lug'at. - Toshkent: Fan, 1993. – .303b.

⁵³ Rabg'uziy Nosiruddin Burhonuddin. Qisasi Rabg'uziy. 2-tom. – Toshkent: YOzuvchi, 1990. – B.68.

birining ismi. Obi hayot suvini ichib abadiy tiriklikka erishgan. Ba'zan u yo'ldan adashgan kishilarga yo'l ko'rsatib, ularga yordam beradi», - deb yozilgan⁵⁴.

Abu Abdulloh Muhammad ibn Ismoil al-Buxoriy «Al jomi' as-sahih» majmuasiga kiritilgan «Ilm kitobi»ning 17-bobida «Muso alayhissalomning dengiz bo'ylab Xizr alayhissalom huzurlariga borganlari» nomli hadis keltirilgan. Hadisda aytilishicha, «Ibn Abbos bilan ar-Harr ibn Qays Muso alayhissalom bilan uchrashgan kishiga (ya'ni Xizr alayhissalomga) qiziqib qoldilar. Ibn Abbos: «Xizr bilan uchrashganlar», - dedi. SHu payt ularning yonidan Ubay ibn Ka'b o'tib qoldi. Ibn Abbos uni chaqirib: «Biz Harr bilan ikkimiz Muso alayhissalomga yo'liqqan kishi to'g'risida tortishib qoldik. Rasululloh Sallollohu alayhi va sallamdan shu to'g'rida eshitganmisiz?» - dedi. «Ha, eshitganman», - dedi Ubay, - Muso alayhissalom Bani Isroil qavmlaridan bir to'dasining ichida turgan ekanlar, bir kishi kelib: «O'zingizdan olimroq biror kishi borligini bilurmisiz?» - deb so'radi. Muso alayhissalom: «Yo'q», - deb javob beribdilar. Olloh taolo Musoga: «Ha, Xizr degan bandam bordir», - deb vahiy qildi. Muso alayhissalom Xizr bilan uchrashmoq yo'lini so'radilar. Olloh taolo hut uchrashuv alomati bo'lajagini bildirdi. «Hut ko'zingdan g'oyib bo'lgach, orqangga qayt. Xizr bilan uchrashgaysen», - deyildi. Muso alayhissalom dengiz bo'ylab hut ortidan keta boshladilar. Bir vaqt Muso alayhissalomga g'ulomlari: «Qoyatosh oldiga borib to'xtaganimizda meni shayton adashtirib, hutni yo'qotdim», - dedi. Muso alayhissalom: «Bizga xuddi shu kerak edi», - dedilar. Xizrni izlab orqaga, qoyatosh tomonga qarab yurdilar. U yerda Xizr alayhissalomni topdilar va Qur'oni karimda Olloh aytib bergan Muso va Xizr voqeasi sodir bo'ldi».⁵⁵

Sa'id ibn Jubayr Abdulloh ibn Abbosga: «Navfal Bakomiy: «(Xizr bilan uchrashgan) Muso - Baniy Isroil payg'ambari ermas, balki boshqa Muso bo'lgan, deb da'vo qilayotir», - deganda, Abdulloh ibn Abbos: «Yolg'on aytibdilar, u Ollohning dushmani erkan», - debdilar.

⁵⁴ *Qarang*: Seyidov M. Ko'rsatilgan maqola. -.27b.

⁵⁵ Abu Abdulloh Muhammad ibn Ismoil al-Buxoriy. Hadis. 1. Al-Jomi' as-sahih (Ishonarli to'plam). – Toshkent: Qomuslar bosh tahririyati, 1991. – B.34.

Ubay ibn Ka'b Rasululloh xususlarida bunday rivoyat qilganlar: «Muso alayhissalom Baniy Isroil qavmiga va'z aytib turgan edilar, «Odamlarning eng olimi kimdir?» - deb so'rashdi. Muso alayhissalom: «Men hammadan olimroqdurmen», - dedilar. «Olloh bilg'aydir», - demaganlari uchun Olloh taolo u kishiga tanbeh berib, «Ikki dengizning bir-biriga qo'shiladigan yerida bir bandam bordir, u sendan olimroqdir», - degan vahiy yubordi. «Yo rabbiy, qanday qilib u kishi bilan uchrashurmen», - dedilar. «Bir savatga baliq solib olg'il, so'ng o'sha tomonga qarab yurg'il, agar baliqni yo'qotsang, Xizr o'sha yerda bo'lur», - deyildi. Muso alayhissalom YUsha' degan g'ulomlari bilan savatga baliq solib olib, yo'lga chiqdilar. Katta qoyatosh oldiga borganlarida, savatni qo'yib, uyquga ketdilar. Baliq savatdan chiqib, dengizga tushib, suzib ketdi. Muso alayhissalom va g'ulomlari taajjubda qoldilar (chunki o'sha baliq o'lik edi). Kechaning qolgan qismida va kun bo'yi yo'l yurdilar. Ertasiga tong otgach, Muso alayhissalom yigitga: «Nonushtani keltirgil, bu safarimizda mashaqqat tortdik», - dedilar. Muso alayhissalom tayinlangan joyga yetib borgunga qadar boshqa mashaqqat chekmadilar. Yigit dedi: «Ko'rdingizmi, qoyatosh oldida dam olganimizda baliqni yodimdan chiqaribman (yo'qolibdi)». «Biz istagan narsa ham xuddi shu erdi», - dedilar. Muso alayhissalom va Yusha' orqaga, qoyatosh tomonga yo'l olishdi. U yerga yetib kelishganda, kiyimini yopinib yotgan kishini ko'rdilar. Muso alayhissalom salom berdilar. Xizr: «Salom bermog'ingning o'rni ermas», - dedilar. Muso dedilar: «Men Musomen». Xizr dedilar: «Baniy Isroil Musosimi?», «Ha, Olloh bildirgan ilmingizdan menga o'rgatmog'ingiz uchun sizga ergashsam maylimi?» - dedilar Muso. «Menga ergashmoqqa sabringiz chidamaydir, ey Muso!» - dedilar Xizr alayhissalom. «Olloh taolo sizga bir ilm o'rgatgandir kim, uni men bilmasmen. Menga bir ilm o'rgatgandur kim, uni siz bilmassiz». «Inshoolloh, men sabrli bo'lg'aymen, ko'rursiz, sizga osiylik qilmasmen», - dedilar Muso alayhissalom. So'ng daryo sohili bo'ylab yurib ketishdi. Kemalari yo'q edi, bir kema o'tdi, kemadagilardan (o'zlarini) olib ketishni so'radilar. Ular Xizrni tanib, haq olmasdan olib ketdilar. Kema chetiga bir chumchuq kelib qo'ndi, bir-ikki cho'qib, suv ichdi. Xizr Musoga dedilar: «Sen bilan men bilgan ilm chumchuq dengizdagi suvni cho'qilab ozaytirolmagani yanglig',

Olloh ilmini ham hech kim kamaytirolmag'ay». Xizr alayhissalom kema taxtasidan biriga tiralib, sindirib qo'ydilar. SHunda Muso dedilar: «Haq olmasdan bizlarni olib ketayotganlarning kemasini teshib, odamlarni g'arq qilmoqchimisiz?». Xizr dedilar: «Aytmadimmi, sabr qilmassan, deb». Bu Muso alayhissalomning (Xizr alayhissalom so'zlarini) birinchi bor unutishlari edi. So'ng jo'nab ketishdi. Bir joyda Xizr alayhissalom o'ynab turgan bolalardan birining boshini qo'llari bilan uzib tashladilar. Muso dedilar: «Begunoh odamni nohaq o'ldirdingiz». Xizr dedilar: «Aytmadimmi senga, men bilan yurmoqqa sabr qilolmassan deb!» Abu Sufyon: «Xizr alayhissalom shunday deb ta'kidladilar, keyin jo'nab ketishdi», - deydi. Bir qishloq ahli mehmon qilmoqdan bosh tortdi. Qishloqda ular yiqilayozgan bir devorni ko'rdilar. Xizr alayhissalom «tuzatib quyurmen» degan ma'noda qo'llari bilan ishora qildilar. Devorni to'g'irlab qo'ydilar. Muso dedilar: «Agar xohlasang, shunga haq olursen». Xizr dedilar: «Mana bu (so'zing) sen bilan mening ajralmog'imizga sababdir». Rasulloh sallallohu alayhi va sallam: «Olloh taolo Musoni rahmat qilsin! Juda ham yaxshi ko'rar erdik uni, agar sabr qilganda (juda ajoyib narsalarni ko'rar erdi), ikkalalari o'rtasida bo'lgan ishlarni bizga hikoya qilib berishar erdi», - deb aytdilar».⁵⁶

Ushbu hadisning manbai ham aslida «Qur'oni karim» bo'lib, «Qahf» surasining 59-81-oyatlarida zikr etilgan muqaddas kalomlar⁵⁷ keyinchalik islomiy manbalarda Muso va unga hamrohlik qilgan donishmand Xizr to'g'risidagi rivoyat hamda afsonalarning shakllanishiga asos bo'lgan.

«Qur'oni-karim» oyatlari va hadislarda naql qilingan Muso va Xizr voqeasi O'rta Osiyoga islom dini yoyilishidan keyin folklorda ham ommalashib ketgan. Xususan, o'zbek folklorida mavjud bo'lgan «Xizr bilan Ilyos», «Gavkushon madrasasi»⁵⁸, «Guzari hay mahallasi»⁵⁹ kabi afsonalar syujeti yuqorida keltirilgan hadisi sharifning bevosita ta'sirida shakllangan.

⁵⁶ Abu Abdulloh Muhammad ibn Ismoil al-Buxoriy. Hadis. Al-Jomi' as-sahih (Ishonarli to'plam). – Toshkent: Qomuslar bosh tahririyati, 1991. – B.44-48.

⁵⁷ Qur'oni karim. O'zbekcha izohli tarjima. Tarjimon: Alouddin Mansur. – Toshkent: CHo'lpon, 1991. – B.210-212.

⁵⁸ Jo'rayev M., Saidova R. Buxoro afsonalari. – Toshkent: A.Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti, 2002. – B.54-55.

Hadis rivoyatida Xizrning hamrohi Muso payg'amg'ar bo'lib, Xizrning kema taxtasini sindirishi, o'ynab turgan bolaning boshini uzib tashlashi va yiqilayozgan devorni tuzatib qo'yishi uni hayron qoldiradi. Muso alayhissalom bu ishlarning sababini bilishga qiziqib, sabrsizlik qilganligi tufayli ular Xizr bilan ajralishib ketadilar.

«Gavkushon madrasasi» va «Guzari Hay mahallasi» nomli toponimik afsonalarda Xizrga bir muridlari hamrohlik qiladi. Ular Buxoro shahri guzarlarini aylanib chiqishadi. «Guzari Hay mahallasi» afsonasida aytilishicha, Xizr shogirdiga «Yo'lda bo'ladigan voqea-hodisalarning sababini mendan so'ramasang, seni o'zim bilan birga olib ketaman», - deb shart qo'yadi.

«Gavkushon madrasasi» afsonasida Xizr bir joyga kelib qolganlarida o'zicha «bo'ldi, bo'ldi, hay, hay!» - deydi. Bir uydan suv so'raganlarida xonadon bekasi iflos idishda zarda bilan suv chiqarib beradi. Xizr uni «Baxtli bo'li!» - deb alqaydi. Boshqa bir uyda istarasi issiq, go'zal juvon ta'zim bilan suv chiqarib berganida Xizr uni «baxti qaro bo'li!» - deb qarg'aydi.

Bunday holni ko'rib jahli chiqqan muridning savoliga esa Xizr: «Birinchi ayolda na husnu latofat, na dastu panja bor, shuning uchun men unga baxt ato qildim. Ikkinchi ayolga xudo baxt bergan, u bu dunyoda g'am-tashvishni ko'proq cheksa, u dunyoda baxtli yashaydi».

Hech kim yo'q joyda «hay, hay» deganimning boisi, o'sha joy bir vaqtlar kushxona bo'lgan, ko'p qon to'kilgan. O'sha qonlar «Meni yuving» deb har o'tganimda iltijo qiladi. Bu safar rozi bo'lib «hay, hay» dedim», - deb javob beribdi.

«Guzari hay mahallasi» afsonasida esa Xizr bilan muridning safari davomida sodir bo'lgan hayron qolarli voqea - hodisalar soni beshta. Yuqoridagi afsonada naql qilingan uch voqea ro'y bergandan keyin Xizr bilan muridini bir badavlat yigit ziyofat qiladi. Ketar chog'i esa Xizr «Davlating bundan ham ziyoda bo'lsin!» - deb duo qiladi. Boshqa bir joyda juda kambag'al yigit ularni mehmon qilganida Xizr uni «kuning bundan ham battar bo'lsin», - deb qarg'aydi.

⁵⁹ Jo'rayev M., Saidova R. «Buxoro afsonalari». -B.56-57.

Toqati toq bo'lgan murid bu voqealarning boisini so'raganida Xizr «bizni kutib olgan badavlat yigitga «davlatning bundan ham ziyoda bo'lsin» dedim. U bu dunyoda tug'yonga ketib, molu davlat to'plash bilan ovora. Bu foniyl dunyoning jannatida yuribdi. Boqiy dunyoning do'zaxi uniki bo'ladi. Kambag'al yigit esa boriga shukur qilib yashayapti. Bu dunyoning mashaqqatlariga chidagan insonlarga jannat eshiklari ochiq bo'ladi», - deydi.

Bu toponimik afsonalar Muso bilan Xizrning safari to'g'risida hikoya qiladigan hadis rivoyati syujetining o'zbek folklorida ommalashishi natijasida kelib chiqqan. Epik an'analarning rivojlanishi natijasida mazkur islomiy rivoyat syujetining variantlashuvi hodisasi ro'y bergan. Yuqorida mazmuni hikoya qilingan afsonalarda Xizr bilan muridning safari ikki xil tasvirlanganligining sababi ham ana shunday tarixiy-folkloriy jarayonlar bilan belgilanadi.

Yuqoridagi qisqacha tahlilning o'zi ham Xizr obrazining genetik ildizlari va kelib chiqish tarixi to'la oydinlashtirilmaganligini ko'rsatadi. Bizning fikrimizcha, Xizr obrazining kelib chiqish tarixi juda uzun bo'lib, turli zamonlarda yashagan kishilarning har xil tasavvurlari, kult miflari va e'tiqodlariga bog'lanadi. Quyida bu obrazning ana shunday genetik ildizlaridan ayrimlariga kengroq to'xtalamiz.

Dunyo xalqlari mifologiyasining eng qadimiy qatlamiga mansub asotiriy timsollardan biri «suv» bo'lib, olam va insonning yaratilishi, tabiat hodisalarining vujudga kelishi, nabotot va hayvonotning paydo bo'lishi bilan bog'liq mifologik tasavvurlar tizimida suv detali asosiga qurilgan inonch-e'tiqodlar faol ishtirok etgan. Qadimgi odamlar olamning avvalini samoviy ummon sifatida tasavvur qilganligi, suvning borliqni vujudga keltirgan asosiy tabiiy unsurlardan biri hamda g'aroyib quvvat va kuch manbai sifatida muqaddaslashtirilganligi suv kultining kelib chiqishiga asos bo'lgan.

Turkiy xalqlar mifologiyasida, xususan, o'zbek folklorida suv kultining shakliy tajassumini o'zida ifoda etgan mifologik personajlar ko'p uchraydi. Anaxita, Hubbi, Sust xotin, Chala xotin, Sut xotin singari mifologik obrazlar talqinida suv kultiga doir xalq qarashlari aks etgan. O'zbeklarning suv kulti bilan aloqador mifik tasavvurlarini o'ziga singdirgan afsonaviy personajlaridan biri Xizr hisoblanadi.

O'zbek xalq og'zaki badiiy ijodiyoti asarlari va xalq qarashlari bo'yicha to'plangan materiallarning tahlilidan ma'lum bo'lishicha, suv kulti Xizr obrazining mifologik talqinida ham alohida o'rin tutar ekan. Manbalarda qayd qilinishicha, «Xizr bilan bog'liq afsonalarning aksariyatida suv havzalari - buloq, quduq, ariqlar nomining paydo bo'lishi haqida so'z yuritiladi. Chunki mifologik tasavvurlarga ko'ra, Xizr suv kulti bilan bevosita aloqador ezgulik homiysi sanaladi. Ana shu e'tiqodiy inonch o'zbek xalq afsonalarida ham o'z aksini topgan».⁶⁰

Folklorshunoslar J.Yusupov va R.Saidovalarning o'zbek xalq afsonalaridagi Xizr obrazi tahliliga doir maqolasida ham bu mifologik homiy ko'pgina afsonalarda suv detali bilan bevosita bog'liq holda tasvirlanishi qayd qilingan.⁶¹

«Qisasi Rabg'uziy» talqinicha, «Xizr daryolarda yuradi».⁶² O'zbek xalq eposida ham Xizr ba'zida suv stixiyasi bilan bog'lab tasvirlanadi. Masalan, Rahmatulla YUsuf o'g'li repertuaridagi «Yunus bilan Misqol» dostonida tasvirlanishicha, Hazrati Xizrning bir makoni Dayrobodning etagida».⁶³ Go'ro'g'li Dayrobodga yetib borgach, «yo'l yo'qotib, chor atrofi suv bo'lib, qayoqqa borarini bilmay turganda, birdan dengizning labginasida cho'nqaygan bir tepachaning ustida kichkinagina bir chorboqchaga ko'zi tushib qolib, darrov G'irotning jilovini shu chorboqchaga burib borib, pasttakina devordan qarasa, chorbog'ning ichida, bir chorpoyaning ustida bir boboy o'tiribdi». Bu boboy hazrati Xizr bo'lib, Go'ro'g'li undan Iram bog'ining qayerdaligini bilib oladi.⁶⁴

Islomiy manbalarda ham Xizr bilan Muso alayhissalomning uchrashgan joylari dengiz bo'yida ekanligi aytiladi. Xizrning abadiy tirikligi ham uning «hayot suvi»ni ichganligi bilan izohlanadi. Shularning barchasi Xizr obrazining mifologik negizi suv kultiga bog'liqligini ko'rsatadi. Shuning uchun ham biz quyida Xizr obrazining mifoepik talqinlarida suv kultining qanday o'rin tutganligi masalasiga doir ayrim

⁶⁰ Jo'rayev M., Shomusarov Sh. O'zbek mifologiyasi va arab folklori. - Toshkent: Fan, 2001. - B.109.

⁶¹ Yusupov J., Saidova R. O'zbek xalq afsonalarida Xizr obrazi // Ilm sarchashmalari, 2002, №3. - B.45-48.

⁶² «Qissasi Rabg'uziy», 2-tom. B.68.

⁶³ Go'ro'g'li dostonlari. 1 «Go'ro'g'lining tug'ilishi». - Toshkent: YO'zuvchi.: 1996. - B.135.

⁶⁴ Ko'rsatilgan manba. -B.139.

mulohazalarimizni bayon etmoqchimiz. Xizr to'g'risidagi o'zbek xalq afsonalari va mifologik matnlaridagi suv kultiga daxldor an'anaviy epik motivlarni quyidagicha tasniflash bo'ladi:

1) **Xizr - obi hayot suvini ichib, barhayotlikka erishgan mifik personaj.** Xalqimizning mifik tasavvurlariga ko'ra, Xizr hech qachon o'lmaydigan, abadiy tirik yuradigan, hatto uzoq o'tmishda ro'y bergan voqea-hodisalarga ham guvoh bo'lgan g'aroyib asotiriy personaj sanaladi. Chunki abadiy barhayot bo'lishlik bu obrazning eng asosiy va yetakchi mifik belgisidir. Xizr deganda beixtiyor o'lim nimaligini bilmaydigan, oppoq soqolli nuroniy chol ko'z o'ngimizga keladi.

Xizrning obi hayot suvini ichganligi to'g'risidagi mifik qarashlarning ildizi «Qur'oni karim» oyatlariga borib taqaladi. Xususan, «Qahf» surasidagi 59-81-oyatlarga bu ilohiy kitobni o'zbekchaga tarjima qilgan mutarjim Alouddin Mansur tomonidan berilgan sharh - rivoyatda aytilishicha, «Muso alayhissalom Tangri taologa munajat qilib: «Bandalaring orasida mendan ilmi ziyodaroq bo'lgan kishi bormi?» - deb so'raganida, Ollo taolo: «Ha, Xizr sendan olimroq», - deb javob qilgan ekan. SHunda Muso: «U zotni qandoq izlab topurman?» - deganida, «Dengiz sohilidagi qoya oldidan topursan», - degan javob bo'libdi».⁶⁵

SHu muqaddas kalomlar ta'sirida bo'lsa kerak, keyinroq yaratilgan manbalarda Xizr dengiz va daryo bilan bog'lab tasvirlanavergan. Masalan, «Qisasi Rabg'uziy» da keltirilishicha», Ilyosning asli oti «Al-Yasa'» turur, ilmi keng uchun. Ba'zilar aymishlar, Xizr birla ikkilari mangu suyin ichdilar, qiyomatga tegi o'lmaslar. Xizr daryolarda yurar, Ilyos sahrolarda yo'ldan ozganlarga yo'l ko'rguzurlar».⁶⁶

Xizrning mangulik suvini izlab topishi va uni ichib barhayotlikka erishishi mavzusi SHarq xalqlari adabiyoti va folklorida, jumladan, o'zbek xalq og'zaki badiiy ijodiyotidan ham keng o'rin oldi. Aksariyat epik syujetlarda obi hayot suvining topilishi lavhasi Xizr, Ilyos va Iskandar obrazlari bilan bog'lanadi. Ana shu tasavvurlar xalq afsonalarida ham o'z aksini topgan. Tilshunos olim B.Jo'rayev yozib

⁶⁵ Qur'oni karim. O'zbekcha izohli tarjima. Alouddin Mansur tarjimasi. – Toshkent: CHo'lpon, 1990. – B.211.

⁶⁶ Nosiruddin Burhonuddin Rabg'uziy. Qisasi Rabg'uziy. 1-jild. - Toshkent: YOzuvchi, 1990. – B.68.

olgan quyidagi afsona Qashqadaryo vohasida keng ommalashgan bo'lib, unda Xizrning o'lik baliq yordamida hayot suvini topganligi shunday tasvirlangan: «podshoyi Iskandar obi hayot degan suv bor, deb eshitibdi. Uni ichgan kishi to qiyomatgacha o'lmas ekan. O'sha suv bir zulumoti qorong'ulikda bo'larkan. Podsho shu suvni topmoqchi bo'lib yo'lga chiqibdi. Bir baliqni o'ldirib, hayot suvini bilish uchun ko'tarib olib kelibdilar. Yo'lda chashma ko'p ekan-da, shu o'lik baliqni tashlab ko'rmoqchi bo'libdilar. Qanday suvda baliq tirilib ketsa, o'sha hayot suvi bo'ladi, debdilar. Hazrati Xizr bir yo'lga ketibdi, bir yo'lga podshoyi Iskandar jo'nabdi. Hazrati Xizrning oldidan o'n to'rtta chashma chiqibdi. SHulardan biriga o'lik baliqni solib ko'rgan ekan, u tirilib ketibdi. So'ngra Xizr shu chashma suvidan ichibdi. Iskandar topolmabdi».⁶⁷

Shu tasavvurlarning izchil rivojlanishi natijasida O'rta Osiyo xalqlari mifologiyasida Xizr mangu tiriklik, barhayotlik, o'lmas tabiat timsoli sifatida talqin qilingan.

2) **Xizr - odamlarni daryo, ariqdan o'tkazib qo'yadigan homiy.** Navoiy viloyati Xatirchi tumanidagi Ko'ksaroy qishlog'ida yashovchi Gulsafar Botirovadan yozib olingan bir afsonada aytilishicha, «bir ko'r kishi yo'lda ketayotganida bir ariqqa duch kelibdi. Ariqdan qanday o'tishini bilmay o'tirgan ekan, unga bir kishi qo'l uzatibdi. Ko'r kishi uning qo'llarini mahkam tutibdi va qo'lining bosh barmog'ida suyak yo'qligini bilibdi. SHunda bu odam Xizr ekanligini anglabdi. Xizr kishiga: «Sen meni tanib qolding, endi tila tilagingni!» - degan ekan, ko'r kishi: «Dunyodagi jamiki odamlarning ko'zini ko'r qil, ular ham menga o'xshab ko'r bo'lib qolishsin» - debdi. SHunda Xizr: «Ey badbaxt, odamlarga so'qirlik tilaguncha o'zingga ro'shnolik so'rasang bo'lmasmidi!» - deb g'oyib bo'lib qolibdi».

«Hasan va Hurliqo» ertagida esa Xizr magik xususiyatga ega bo'lgan sehrli toshlar vositasida katta daryoni yettiga bo'lib, qahramonlarning narigi qirg'oqqa o'tishiga ko'maklashadi. Akasini yo'qotib, cho'lda adashib qolgan Hurliqoga yo'liqqan Xizr qizning qo'lga yetti dona tosh beradi. «Bir kunlik yo'l yursang, falon yerda katta daryo bor, o'sha daryoga yetganda yetti dona toshni tashlasang, yetti

⁶⁷ Jo'rayev B. YUqori Qashqadaryo o'zbek shevalari. - Toshkent: Fan, 1969. – B.62-63.

ariqqa bo'linadi», - deydi Xizr. Bizningcha, bu epik motiv suv kulti, afsonaviy homiy - ajdodlar madadiga ishonish hamda «etti» raqamining magik xususiyatlari to'g'risidagi xalq qarashlarining qo'shilishi natijasida kelib chiqqan.

3) **Xizr - nuroniy chol ko'rinishida namoyon bo'lib, suv so'raydigan g'ayrioddiy personaj.** Ayrim joylarda Xizr bilan uchrashgan kishilarning hikoya qilishlaricha, bu afsonaviy homiy o'zi duch kelgan odamdan suv so'ragan ekan. Masalan, navoiylik Muhayyo Jo'rayevadan yozib olingan ma'lumotga ko'ra, bir kishi uyining oldidagi bir daraxt tagida dam olib o'tirgan ekan. Shu payt uning oldida bir oppoq soqolli nuroniy chol paydo bo'lib qolibdi. Salomlashgandan keyin haligi chol u kishidan bir kosa suv olib kelishni so'rabdi. Uy egasi «xo'p» deb ichkariga kirib ketibdi va birozdan keyin bir kosa suv ko'tarib qaytib chiqsa, haligi chol yo'q emish. Ammo o'sha kundan boshlab u kishining ishlari yurishib, baxtli va farovon hayot kechira boshlabdi. Chunki u kishiga uchragan chol hazrati Xizr bobo ekan.

Xizrning suv so'rashi motivi Buxoro shahridagi tarixiy obidalar va joy nomlarining kelib chiqishi to'g'risidagi toponimik afsonalarda ham mavjud. Masalan, «Gavkushon madrasasi», «Guzari Hay» afsonalarida Xizrning bir ayoldan suv so'rashi va suv olib chiqqan kishini alqashi tasvirlanadi.⁶⁸

4) **Xizr - suv manbaini topish yo'lini aytib maslahat beruvchi personaj.** Nurota tumanining G'ozg'on qishlog'ida yashovchi SHohista Mavlonovadan yozib olingan afsonada aytilishicha, G'ozg'on yaqinidagi Korizi kalon hazrati Xizrning karomatlari bilan bunyod bo'lgan ekan. Bundan ming yillar oldin bobolarimiz suvga zoriqib qolibdilar, shunda Xizr alayhissalom bir cho'ponga yo'liqib shunday debdi: «Ey cho'pon, men sizlarning suvga zor ekanliklaringizni bilaman, agar sersuv buloq ko'zini topmoqchi bo'lsangiz, bir qo'ra qo'yni bir hafta suvsiz qo'yib yuboring, o'sha qo'ylar qayerga borib to'planib boshini yerdan ko'tarmasa, o'sha joyni kovlang. U yerda nihoyat sersuv buloq bor».

CHO'pon Xizr alayhissalomning aytganlarini qilibdi va qo'ylar bosh ko'tarmagan joyni ko'pchilik bo'lib kovlay boshlabdilar. Haqiqatan ham, katta buloq

⁶⁸ Jo'rayev M., Saidova R. Buxoro afsonalari. - Toshkent: A.Qodiriy nomli Xalq merosi nashriyoti, 2002. – B.54-56.

ko'zi ochilib, suv otilib chiqib, tezda tevarak atrofni suv bosibdi. YAylovlar suv ostida qolish xavfi tug'ilibdi. Shunda Xizr alayhissalom yetib kelib cho'ponlardan bir kigiz, qozon keltirishni buyuribdi. Cho'ponlar qozonni buloqning ko'ziga bosibdilar va suv to'xtabdi. Shunda besh barmoqlarini kigiz ustiga bosibdilar va beshta barmoq orasidan suv chiqib, ariq bo'ylab oqa boshlabdi. Shundan beri odamlar «Korizi kalonga xo'jai Xizr nazar qilgan» deyishadi.

Ko'rinadiki, buloqning paydo bo'lishi haqidagi o'zbek xalq afsonalarining nisbatan qadimiy namunalarda suv yo'lining ochilishi mifologik homiy - suv kulti haqidagi qarashlarni o'zida mujassamlashtirgan Xizr obrazi ishtirok etadi.

5. Xizr - hassasini tekkizgan joydan suv chiqaruvchi mifik qahramon.
O'zbek xalq toponimik afsonalarida u yoki bu suv havzasi, buloq, soy, jilg'a, ko'lining hosil bo'lishini Xizrning hassasi bilan bog'lab tushuntiradigan syujetlar ko'p uchraydi. Nurotadagi G'ozg'on chashmasining paydo bo'lishi ham Xizr alayhissalom bilan bog'lanadi. Aytishlaricha, olloh taolo arshi a'lodan boqib, ko'kka bir nur yo'g'rilganligini ko'rib qolibdi va Xizrni o'sha yoqqa yo'llabdi. Xizr alayhissalom o'sha nur osmonga ko'tarilgan yerga o'z hassalarining uchini suqadilar va yerdan suv otilib chiqib, sahroga oqa boshlaydi. Hazrati Iskandar o'z askarlari bilan sahrodan kelayotganlarida o'sha nurni ko'rib, askarlarini o'sha yoqqa buradilar va shu chashmaga duch kelib, bu yerda mustahkam qal'a bunyod etadilar. Nurotaning chashmasi suviga qo'shimcha Iskandar yana 360 ta koriz kovlatib, cho'lni obod qilibdi.

Navoiy viloyatining Navbahor tumanidagi «Jilbuloq», «Quloq ota» kabi chashmalarning vujudga kelishi to'g'risidagi afsonalarda ham «hassa» detaliga duch kelamiz. Aytishlaricha, «kunlardan bir kuni xo'jai Xizr buva egnilarida kiyimlari qirq yamoq, juldur chopon, ko'hna kuloh kiygan bir faqir qalandar kishi sifatida Sarmishdagi bir to'yga boribdilar. Shunda odamlar: «Bu palakat gadoy qayoqdan kelib qoldi» - deyishib uni to'yxonaga kiritmay, oldilariga solib quvib yuboribdilar. Xizr buva qochib ketayotib qarasalar, quvg'inchilar yaqin kelib, yetay-etay deb qolishganmish. SHunda u kishi hassalari bilan yerni bir urgan ekanlar, o'sha joydan sersuv chashma paydo bo'lib, izidan quvib kelayotgan odamlar buloqdan o'tolmay

ortda qolib ketishibdi. Xo'jai Xizr buva qutulganlariga shukur qilib: «Ilohim, ushbu buloqni suvi bandalarimning dardiga shifo bo'lsin! Hech kimga zarar yetkazmay hamisha jildirab oqib tursin!» - deb duo qilgan ekanlar, boyadan beri ko'pirib turgan chashma birdan pasayib, sekingina jildirab oqa boshlabdi. SHundan beri bu buloqning oti Jilbuloq bo'lib qolgan emish».⁶⁹

Mazkur epik motivning o'zbek xalq afsonalari syujet silsilasida keng ishlanishi jarayonida aslida Xizr nomi bilan bog'liq bo'lgan mifologik talqinlar turli epik qahramonlar hamda tarixiy shaxslarning epiklashtirilgan obrazlari siymosiga ko'tarilgan. Pahlavon Mahmud nomi bilan aloqador Xorazm afsonalarini fikrimiz dalili sifatida keltirishimiz mumkin. «Pahlavon otaning hassasi» afsonasida aytilishicha, Xiva yaqinidagi bir qishloqning aholisi suvsizlikdan qiynalib qolishganida Pahlavon Mahmud Jayhun bo'yiga borib, hassasi bilan daryo qirg'og'ini bir urgan ekan, hassa o'rnidan sharillab suv oqa boshlabdi.⁷⁰

Qirg'iziston Respublikasining Novqat tumanidagi Obishir ota chashmasi va shu nom bilan ataluvchi mo''jazgina sharsharaning paydo bo'lishi haqidagi afsonada ham «hassa» detali ishtirok etadi. Bu afsonada hassa bilan toshni teshib chashma ko'zini ochgan qahramon Dovud alayhissalomdir.

Turkiy xalqlarning qadimiy mifologik qarashlarini tadqiq etgan A.M.Sagalayevning «hassa - o'rol-oltoy xalqlarining kosmogonik asotirlarida olamning yaratilishi jarayonida qo'llanilgan dastlabki ilohiy ashyo»⁷¹ degan fikriga asoslangan folklorshunos M.Jo'rayevning yozishicha, «agar afsonaviy dunyo og'ochi - hayot daraxtining ildizlari zamin tubidagi obi hayot suvidan bahra olishi haqidagi mifologik qarashlarga asoslanadigan bo'lsak, Xizrning hassa vositasida shifobaxsh buloq ko'zini ochishi motivida mifologik qahramonning yaratuvchilikdan iborat

⁶⁹ Ipak yo'li afsonalari. To'plab, nashrga tayyorlovchi: M.Jo'rayev. - Toshkent: Fan, 1993. - .87b.

⁷⁰ «Ipak yo'li afsonalari». -B.39.

⁷¹ Sagalayev A.M. Urolo-altayskaya mifologiya. Simvol i arxetip. - Novosibirsk: Nauka, 1991. - S.40.

kosmogonik funksiyasi o'zining ramziy-badiiy ifodasini topgan deya xulosa chiqarish mumkin bo'ladi».⁷²

Demak, Xizrning hassa vositasida buloq ko'zini ochishi motivining tarixiy asoslari qadimgi mifologiyaga bog'lanadi. Ibtidoiy jamoa tuzumining asosiy ideologiyasi va qadimgi odamning olam haqidagi dastlabki tasavvurlari majmuasi hisoblangan mifologiya badiiy tafakkurning shakllanishida muhim o'rin tutgan. Mif diffuziyasi natijasida qadimgi asotiriy syujet, obraz va tasavvurlarning asosiy qismi folklorning epik janrlariga ko'chgan. Mif asosan afsona janrining badiiy shakli vositasida ommalashgani, ya'ni kichik-kichik hikoyalar tarzida bayon qilinganligi sababli qadimgi asotirlardagi mifologik qahramonning faoliyatini aks ettiruvchi motivlarning aksariyati folklorning ertak, afsona kabi janrlari syujet silsilasida saqlanib kolgan. Shuni qayd qilish lozimki, mif motivlari folklarga aynan ko'chirilmagan. Xususan, «hasa» detali mifda samoviy mavjudlikning muayyan ko'rinishini vujudga keltirish, ya'ni mifik personajning yaratuvchilik faoliyatini izohlash, tushuntirishdan iborat etiologik vazifa bajargan. Afsonalarda esa detal bilan aloqador epik motivlar badiiy-estetik qonuniyatlar doirasida qo'llanilgan bo'lib, xayoliy-epik qahramonlarning g'ayrioddiy xususiyatlarini bo'rttirib tasvirlash, muayyan hodisalarga sirlilik, mo''jizaviylik baxsh etish maqsadida keltirilgan.

Demak, tabiatning boqiyliqi, hayotning abadiyligi, bahor, yashillik, yasharish va ezgulik timsoli sifatida tasvirlangan Xizr obrazi xalqimizning suvga sig'inish bilan bog'liq udumlari, ishonch va tasavvurlarini ham o'zida mujassamlashtirgan.

Xizr obrazining kelib chiqishi va genetik asoslari dexqonchilik madaniyati va hosildorlik kultlari bilan ham chambarchas bog'langan. O'rta Osiyo xalqlari dexqonchilik madaniyati an'analari, udum va marosimlarida bu obraz muhim o'rin tutganligi ilmiy adabiyotlarda ham qayd qilingan.

Dehqonlar orasida mavjud bo'lgan mifologik qarashlar bo'yicha Xizr afsonaviy homiy, u hosilning mo'l bo'lishi va yilning barakali bo'lishini ta'minlar emish.

⁷² Jo'rayev M. O'zbek xalq nasri janrlarini tasnif qilish mezonlari // O'zbek tili va adabiyoti, 1996, №5. – B.30.

YAshil to'n kiygan oq soqolli nuroniy chol ko'rinishida namoyon bo'lgan Xizr dalalarni kezib yurib, ekinlarga baraka ato qilarmish.

O'rta Osiyo xalqlarida ekinzorlar Xizr kezaadigan muqaddas joylardan biri deb qaraladi. Masalan, Ishkashim tojiklari ekinzorni «Xiziri zamin», ya'ni «Xizrning yeri» deb ataydilar. Shuning uchun o'roqchilarni «tezroq o'rimni tugatinglar, bo'lmasa Xizr yeri sizlarni boshog'riq qiladi» deyidilar.

Navbahorlik YOrqinoy Aslonovadan 2001 yilda yozib olingan bir afsonada ham ekin ekilmagan yerning serhosil dalaga aylanishi Xizrning ko'rsatmasi va maslahati bilan amalga oshganligi hikoya qilinadi. Bu afsonada voqealar rivoji an'anaviy tush motivi bilan boshlanadi: «Bir kishi bir kuni tushida soqollari oppoq bir kishini ko'ribdi. U odam juda nochor ahvolda yashar, kambag'al ekan. Bolalari juda ko'p, ularni boqolmas ekan. Tushida Xizr bobo bir yerni ko'rsatib: «O'sha yerni yaxshilab ag'darsang oltin topasan», - debdi. U kishi Xizr ko'rsatgan yerni terlab - pishib ag'daribdi, lekin oltin chiqmabdi. Ertasiga Xizr bobo yana tushiga kirib o'sha ag'darilgan yeriga bug'doy sepishni maslahat beribdi. Xizr bobo aytganday qilib yerga don sepgan ekan, mo'l-ko'l hosil olibdi».

Bu afsona Xizrning serhosil baxsh etuvchilik xususiyatiga egaligi to'g'risidagi xalq qarashlari asosida paydo bo'lgan.

Xalq orasida ekini baravj bo'lib o'sayotgan dehqonlarning dalasiga «Xizr nazar solgan», «Xizrning etagi tegib ketgan», «Xizr etagini sudrab o'tgan» joy deb ta'rif beriladi. Bu o'rinda ham Xizr va Bobodehqon obrazlari vazifadoshlik maqomida bo'lib, har ikki personajning mifologik negizi qadimgi ajdodlarimizning dehqonchilik madaniyati an'analari hamda hosildorlik kulti bilan aloqadorligini ko'rsatadi.

Xivaliklar e'tiqodicha, Xizr dehqonlarning piri bo'lmasa ham, umuman baraka baxsh etuvchi hisoblanadi. Agar u boqqa, ekinzorlarga, bug'doy chosh qilingan xirmonga nazar solsa, hosil mo'l bo'lar ekan.

Xalqimiz Bobodehqonni Xizr qiyofasida ham tasavvur qilganligiga yana bir isbot shundan iboratki, dehqonlar bug'doy o'rish chog'ida qaysi bir o'roqchining oldidan qo'sha bosh bug'doy chiqib qolsa, uni Xizr nazari tushgan kishi deb alqaydilar. Navbahor tumanidagi Arabxona qishlog'ida yashovchi Botir Alibekovdan

yozib olingan ma'lumotga qaraganda Xizrning muborak qo'li tekkan boshqoq pishib yetilgan vaqtida qo'sha bosh bug'doyga aylanadi. Qaysi bir o'roqchining oldidan qo'sha bosh bug'doy chiqib qolsa, u o'zini behad baxtli sanaydi, boshqoqni uyiga olib borib, ko'rinarliroq joyga osib qo'yadi. Bunday kishining xonadoni Xizrning barakasidan yil bo'yi bahramand bo'lib yuradi deyilar.

Qashqadaryoliklar ham «dehqonchilikning ko'zini biladigan kishilarni «Xizr ko'rgan» yoki «Xizr ko'rganning bolasi» deyishgan».⁷³ Buning isboti tariqasida Xizr odamlarga bug'doy donini hadya etuvchi, don ekan kishilarning hosili yetilgan paytda xirmon yonida paydo bo'lib, bug'doy so'rovchi, bug'doy xirmoniga baraka baxsh etuvchi afsonaviy homiy ekanligi to'g'risidagi xalq qarashlarini misol qilib keltirish mumkin. Zero, o'zbek xalq afsonalarida dehqonlarning bug'doy doniga ega bo'lishi va yerga don sochishni o'rganishi ham Xizr obraziga bog'lab tushuntiriladi.

Xalqimiz orasida Xizrning duosi yoki nazari tufayli bug'doy hosilining mislsiz darajada barakali bo'lganligi to'g'risida bir qator afsonalar ham mavjud. Bu afsonalarda serhosillikka erishish Xizr obrazi bilan bevosita bog'liq holda tasvirlanishi mazkur mifik personaj o'zida hosildorlik kultining muayyan qirralarini aks ettirishini ko'rsatadi.

Dehqonlar orasida «bug'doyni choshlash» degan bir odat mavjud. Xirmonga uyulgan g'aramlar galagovdan chiqarilib, bug'doy donlari somondan ajratib olingach, xirmonda qip-qizil chosh hosil bo'ladi. Choshni maxsus g'alvir bilan o'rta to'playdilar va toza dondan bir g'alvir to'ldirib olib xirmondagi choshni aylantirib oladilar. Keyin ana shu g'alvirdagi bug'doyni choshning ustiga to'kadilar. Bu udum Navoiy viloyatining Xatirchi tumanida «bug'doy choshlash» deb atalsa, Qashqadaryo viloyatining ziroatchiligida «choshning belini bog'lash» deyiladi.⁷⁴

Dehqonlar ana shu udum vositasida choshni yomon ko'zdan saqlashga harakat qilish bilan bir qatorda unga Xizr nazar solishiga umid qiladilar. Somondan ajratilgan bug'doy choshini ma'lum vaqt xirmonda qoldirib, dehqonlarning o'zlari chetga o'tib

⁷³ Rahmonov F.Sh. Qashqadaryo vohasi aholisining ziroatchilikka oid urf-odatlar va marosimlari (XIX asrning oxiri - XX asrning boshlari). Tarix fanlari nomz. ilmiy darajasini olish uchun yozilgan diss. – Toshkent: 2001. – B.47.

⁷⁴ Rahmonov F.Sh. Ko'rsatilgan manba. -.146 b.

choy ichish bilan mashg'ul bo'ladilar yoki dam oladilar. Ba'zi joylarda chosh bir kecha xirmonda qoldiriladi. Aytishlaricha, shunday qilinsa, ertasi kuni ayni sahar payti Xizr kelib choshga nazar tashlar emish. Xizr nazari tushgan bug'doy hosili esa barakali bo'ladi deydlar.

Xorazmlik dehqonlar xirmondagi donni somondan ajratib, chosh qilingandan keyin bug'doy choshining ustiga kesak qo'yadilar va uni «Xizr kesagi» yoki «baraka kesagi» deb ataydilar. Odatda «Xizr kesagi» ariq qaziganda chiqqan loydan yoki eski devor kesagidan doirasimon shaklda o'yib olinadi va bu kesak qo'yilgan choshga Xizr nazar soladi deb ishonadilar. Xirmondagi bug'doyni qoplarga solib, uyga tashigandan keyin ham «baraka kesagi»ni tashlab yubormaydilar. Uni bug'doy solingan qoplarning ustiga qo'yadilar va kelasi yil o'rim-yig'im vaqtigacha asrashga harakat qiladilar.

Xizrning xirmonga nazar tashlashiga ishonish an'anasi xorazmlik dehqonlar orasida ham keng tarqalganligini etnograf olim G.P.Snesarevning quyidagi so'zlaridan bilib olish mumkin: «Hosilni yig'ishtirib olish bilan aloqador marosimlar silsilasi haqida to'xtalganda ikki holatga e'tiborni qaratish kerak bo'ladi. Bug'doy chosh qilgandan keyin ma'lum vaqt xirmon atrofida hech kim qolmaydi, ya'ni xirmon qarovsiz qoldiriladi. Bu xirmon yonida hech kim bo'lmasa, o'sha payt Xizr kelib choshga qo'lini tegizadi degan ishonch bilan aloqador odatdir. Shuning uchun bug'doy doni somonidan ajratilgach, dehqonlar bel bilan bug'doy donini chosh qilib to'playdilar va Xizr choshga qo'l urganda uning muborak panjasining izlari yaxshiroq bilinib tursin degan niyatda choshning yuzasini hamda atrofini yaxshilab tekislab chiqadilar».

Xizrning choshga nazar tashlashi to'g'risidagi mazkur etnografik ma'lumot o'zbek xalq mehnat qo'shiqlarida ham o'z aksini topgan. Xalq nazdida sahar, ayni tong chog'i rizq-ro'z ulashiladigan vaqt. Shuning uchun odamlar erta uyqudan uyg'ongan kishining rizqi butun bo'ladi, deb naql qiladilar. Xizrning «ayni sahar bo'lganda» choshga nazar solishi haqidagi e'tiqodiy qarashlar ham ana ishonchlar bilan uzviy bog'liqdir.

Xizr o'zbek dehqonlari tasavvurida hosildorlik g'oyasini o'zida ifodalovchi pir, homiy sanaladi. Ayrim joylarda Xizr obrazi Bobodehqon timsoli bilan baravarlashtirilganligi ham kuzatiladi. Masalan, Qashqadaryo viloyatining Chiroqchi tumanida yashovchi Tursun To'rayevdan yozib olingan mehnat qo'shiqlaridan birida «ayni sahar payti» dehqonning dalasiga «Xo'jai Xizr» nazar tashlashiga bo'lgan istak shunday ta'riflanadi:

Mayda, mayda morisin, maydayo, mayda,
Don solindan arisin, maydayo, mayda,
Ayni sahar bo'lganda, maydayo, mayda,
Xo'jai Xidir dorisin, maydayo, mayda⁷⁵.

Xuddi shu ijrochidan yozib olingan mazkur qo'shiqning davomida ushbu to'rtlik biroz o'zgarishlar bilan takrorlanadi. Bunda to'rtlikning dastlabki ikki bandi hech o'zgarishsiz qaytarilgani holda, keyingi misralari quyidagi talqinga ega bo'lgan:

Mayda, mayda morisin, maydayo, mayda,
Don somondan arisin, maydayo, mayda,
Tong shamoli esganda, maydayo mayda,
Bobodehqon dorisin, maydayo mayda⁷⁶.

Xalq qo'shiqlarida an'anaviy formula yoki tayyor qolip holiga kelib qolgan «Ayni sahar bo'lganda» misrasi «Tong shamoli esganda» misrasi bilan almashganligi hamda keyingi qatorda Bobodehqon nomining qayd qilinishi dehqonlar orasida Xizr va Bobodehqon obrazlari funksional jihatdan mushtarak mifologik personajlar sifatida ommalashganligini ko'rsatadi.

Qashqadaryo viloyatining Koson tumanidagi Rayimso'fi qishlog'ida yashovchi 45 yashar Akram Jumayevdan yozib olingan «Mayda» qo'shig'ida ham Bobodehqon va Xidir obrazlari hosilning mo'l bo'lishini ta'minlovchi homiy kuch timsoli sifatida tasvirlangan:

Sening enang siyirdi, maydayo, mayda,

⁷⁵ Kamol Ochil. Qaldirg'ochni qo'ndirgan qo'shiq. - Samarqand: «Zarafshon» nashriyoti, 1992. - B.57.

⁷⁶ Yuqoridagi manba. -B.57.

Suvdan burnin jiyirdi, maydayo mayda,
Bobodehqon bobomiz, maydayo mayda,
Sizni ho'pga buyurdi, maydayo mayda.

Mayda, mayda morisin, maydayo, mayda,
Don somondan arisin, maydayo mayda,
Ayni qizil bo'lganda, maydayo mayda
Xo'jai Xidir dorisin, maydayo mayda⁷⁷.

Xizrni dehqonchilik bilan bog'liq homiy, mo'l hosil baxsh etuvchi afsonaviy qudrat sohibi deb tasavvur qilish boshqa turkiy xalqlar mifologiyasiga ham xos bo'lgan an'analardan biri. Masalan, uyg'ur mifologiyasida Xizr - dehqonlarning piri deb tasavvur qilinadi. Uyg'urlardan yozib olingan shomon qo'shiqlaridan birida ana shu tasavvurning izlari aks etganligini ko'ramiz:

Dihkanciga pir bolgan,
Hazreti Hızir atadir.
Sizdin medet tileymen,
Devdige deva tileymen.⁷⁸

Ya'ni:

Dehqonlarga pir bo'lgan,
Hazrati Xizr otadir,
Sizdan madat tilayman,
Dardiga davo tilayman.

Qadimgi suv, issiqlik, hosildorlik kultlari bilan bog'lanib kelgan Xizr obrazi turkiy xalqlarning dehqonchilik madaniyatiga aloqador mifologik tasavvurlari tizimida ham muhim o'rin tutgan. U mo'l hosil ato etish qudratiga ega bo'lgan mifologik personaj deb qaralganligi uchun uyg'urlarda Xizr dehqonlarning piri sanalgan.

⁷⁷ Yuqoridagi manba. -B.60.

⁷⁸ Inan Abdulkadir. Tarihte ve bugun scamanizm. - Ankara, 1995.- 4-baski. - S.121.

Xullas, turkiy xalqlar mifologiyasida, jumladan, o'zbeklarning mifik tasavvurlari tizimida ham Xizr obrazi hosildorlik, qut-baraka va mo'l-ko'lchilik g'oyalari bilan chambarchas bog'lanib keladi. Dehqonlarning piri sanalgan Bobodehqon timsolining ayrim qirralari Xizr obraziga ko'chirilganligi, bug'doy ekib dehqonchilik qilish an'anasining kelib chiqishi ham Xizr bilan bog'lab talqin qilinishi bu mifologik personaj o'zida hosildorlik kultining g'oyalarini tashiganligidan dalolat beradi. Binobarin, Xizr bilan aloqador mifologik qarashlarning genetik ildizlari va bu asotiriy obrazning kelib chiqishi O'rta Osiyoda yashagan qadimgi ajdodlarimizning dehqonchilik madaniyati an'analari bilan ham bevosita aloqadordir.

O'zbek mifologiyasida tabiatning erta bahorgi uyg'onishi, qor va muzlarning erishi hamda o'simliklarning o'sa boshlashi ham Xizr obrazi bilan bog'lab tasavvur qilingan. Xatirchilik kekse dehqonlar qish qattiq kelgan yili bahorga borib birinchi marta kunlar isiy boshlaganini ko'rishsa, «muzga xo'jai Xizrning hassasi tegibdi-da», - deyдилar. Aytishlaricha, Xizrning hassasi tekkan joyga harorat baxsh etilib, muz va qorlar erib ketar, yerda o't-o'lanlar o'sib chiqar emish.

Bu mifik qarash boshqa turkiy xalqlarga, jumladan, qozoqlarga ham ma'lum bo'lgan. A.Divayev yozib olgan ma'lumotlarga ko'ra, qozoqlar savr oyining 15-kunini «Xizr-Ilyosning qamchisi» deb atashar ekan. Ularning tasavvuriga ko'ra, aynan o'sha kuni Xizr - Ilyos o'z qamchisini siltab urar va muzlar erib, daryolar oqa boshlar emish.

Sharqshunos G.N.Potanning qayd qilishicha, qirg'izlar «Kidir (ya'ni Xizr - F.N.) har yili bahorda bir marta o'z qamchisini ko'taradi va shu paytda yerning tangadek joyida ham qor qolmaydi» deb o'ylaydilar.

Xizr obrazining kelib chiqishi hosildorlik kultlarining mifologiyasi bilan aloqadorligini tasdiqlaydigan yana bir muhim detal bu mifik personajning o'simliklar, yashillik, maysa rangi bilan bog'liq holda tasavvur qilinishidir. Ozarbayjon olimi M.Taxmasib Xizr obrazining kelib chiqishini midiyaliklarning asotirlari bilan tekshirar ekan, «Xidir yoki Xizr aslida yashillik ma'budi» degan xulosaga kelgan.

M.Seyidov bo'lsa 1965 yildayoq Xizr obrazining qadimgi ozarbayjon mifologiyasidagi yashillik, suv va uylanish, oila qurish ma'budi O'lank bilan aloqadorligini qayd qilgan edi.

O'zbek folklorida ommalashgan to'y marosim qo'shiqlarida ham «o'lan» va «Xizr» tushunchalarining yonma-yon qo'llanilishi holati uchraydi:

O'lan aytib to'ylarni gul qilasiz, yor-yor,

Bu Xizrni o'zingizga pir qilasiz, yor-yor.⁷⁹

Ammo «o'lan» va «Xizr» obrazlarining tarixan aloqadorligi jiddiy ilmiy tekshirishni talab qiladi. M.Seyidov o'zining keyinroq nashr etilgan monografik tadqiqotida bu ikki mifologik personajning o'xshash jihatlarini va genetik ildizlaridagi yaqinlikni kengroq tahlil qildi. Olimning aniqlashicha, ozarbayjon folklori Xizr yoz, issiqlik, qut-baraka va yashil tabiatning mifologik timsolidir.

G.P.Snesarev Xizrning o'simliklar bilan bog'liq mifologik qarashlarga aloqadorligi to'g'risida quyidagilarni yozadi: «O'rta Osiyo xalqlari inonchlari sistemasida Xizr obrazi o'simliklar bilan assotsiatsiyalanadi. Balki, musulmon agiologiyasining ayni ana shu personaji qadimgi nabotot olami ilohlarining u yoki bu jihatlarini o'zida aks ettirgandir».

O'zbek folklori va xalq qarashlarida Xizr obrazining o'simliklar bilan timsollashtirilishiga doir ko'plab faktlar mavjud. Pop tumanidagi Uchbuloq qishlog'idan yozib olingan xalq qarashiga ko'ra, Xizrning qadami tekkan joydan maysalar ko'm-ko'k bo'lib ko'karar ekan. U odamlarga turli qiyofada duch kelganida, uning Xizr ekanligini bilishmas va ikki qadam tashlagach, oyog'i tekkan joydan maysalar o'sib chiqqanligini ko'risharkan. SHu payt Xizr ko'zdan g'oyib bo'larkan.⁸⁰

Xizrni yashillik, maysazor, o't-o'lan timsoli deb tasavvur qilish, qadimiy mifologik an'analardan biridir. «Qisasi Rabg'uziy»da yozilishicha, Xizr «qayu yerda o'ltursa, ul yer ko'karur erdi».⁸¹

⁷⁹ Oq olma, qizil olma. O'zbek xalq ijodi. - Toshkent: Adabiyot va san'at nashriyoti, 1972. – 160 b.

⁸⁰ Tog'ayeva D. Bismilloh deng. – Samarqand: «So'g'diyona» nashriyoti, 1996. – 22 b.

⁸¹ «Qisasi Rabg'uziy», 2-tom. -.68 b.

Arab tilidagi manbalarda aksariyat hollarda bu mifik personaj nomi «Xidir» shaklida berilgan. Masalan, Firuzobodiy «Qomusi»ning 1-jildida yozilishicha, «Xidir - bu avliyo Abul-Abbos an-Nabidir. Aytishlaricha, uning ismi Ahmad yoki Bilya bo'lgan ekan. U qayerdan o'tsa, o'sha joy yam-yashil ko'kalamzorga aylanarkan. SHuning uchun unga «Xidir» deb nom qo'yishgan. Ko'pgina tadqiqotchilar uning hozir ham hayot ekanligini qayd qiladilar».

Ko'rinadiki, Firuzobodiy Xizr (Xidir)ni reallashtirishga, ya'ni uni tarixan yashagan (va ayni chog'da ham hayot bo'lgan) real shaxs sifatida talqin qilmoqda. Bizningcha, bu o'rinda Xizrga xos ikki muhim belgi - o'simlik kultiga aloqadorlik (ya'ni uning qadami tekkan joy maysazorga aylanishi) hamda doimiy barhayotlik (hozir ham yashayotganligi) arab folklorida ham saqlanganligi qayd qilingan. Xizrga xos bo'lgan bu kabi sifatlar turkiy va arab xalqlari uchun mushtarak xususiyat kasb etadi.

Barcha manbalarda Xizrning asosiy belgilaridan biri sifatida yashil rang timsoli qayd qilinadi. I.Haqqulov fikricha ham «arablarda yashil rang - ilohiy rang hisoblangan. Shuning uchun Xizr badiiy ijodda to'ni va sallasi yashil (oq ot mingan, qo'lida uzun nayza) mo'ysafid qiyofasida tasvirlangan».⁸²

Xuddi shunga o'xshash fikrni adabiyotshunos Tohir Rashid Xo'janing bir maqolasida ham uchratamiz: «Xizr - yashil kiyimdagi tirik jonzot. Islom aqidasi es, payg'ambarlardan biri».⁸³

O'rta asr arab xalq adabiyotining yorqin namoyandalardan biri «Siyrat Hamza Al-Bahlavon»da Xizr obrazi oq ot mingan yashil to'nli oqsoqol - mo'ysafid ko'rinishida tasvirlangan. Bu asarda Xizr ismining qayerdan kelib chiqqanligini soddalarcha tushuntirishga urinish bor (al-Xidr-al-Axdar - «yashil to'nli Xizr»). Ma'lumki, yashil rang arablarda muqaddas sanalib, musulmonlar bayrog'i yashil rangda bo'lishi ham shundan kelib chiqqan.⁸⁴

⁸² Haqqulov I. Zanjirband sher qoshida. – Toshkent: Cho'lpon, 1990. – .178 b.

⁸³ Tohir Rashid Xo'ja. Xizr obrazi va uning klassik she'riyatdagi talqini (XV asr birinchi yarmi she'riyati asosida) // O'zbek tili va adabiyoti, 1991, №2. – .3 b.

⁸⁴ Ibrohimov N. O'rta asr arab xalq adabiyoti. – Toshkent: Fan, 1994. – 153 b.

YAshillik - Xizr obraziga xos eng muhim belgilardan biri. Bu mazkur mifik obrazning suv, o'simlik, yoshlik, doimiy barhayotlik bilan chambarchas bog'lanib kelishini ko'rsatadi.

Aslida bu rang Xizrga xos yetakchi belgilardan biriga aylanishining sababi, Xizr obrazining genezisida o'simliklar kultiga aloqador ishonchlar muhim rol o'ynaganligida deb bilamiz.

Keyinchalik ozarbayjon olimi M.Seyidov Xizr obrazi qadimgi turkiylarda o'simliklar dunyosi, oila va nikoh homiysi sifatida ulug'langan Ulang nomi ilohga xos belgilarni ham o'ziga singdirib yuborilganligini aniqlab, bu ilmiy farazini qator dalillar bilan isbotlashga harakat qilgan edi.

Garchi qadimgi turkiy mifologiyada o'simliklar olami va nikoh bilan bog'liq ilohning nomi «**O'lang**» deb yuritilganligi ancha isbottalab ilmiy faraz bo'lsa-da, Xizr obrazining tarixiy-genetik ildizlari o'simliklar va hayot daraxti haqidagi mifologik qarashlarga bog'lanishi to'g'risidagi mulohazalar qiziqish tug'dirishi tabiiy. Xizr yurgan yoki uning qadami tekkan joy maysazorga aylanishi haqida xalq qarashlari ham ana shu mifik tasavvurlar asosida kelib chiqqan.

Xizr obrazining o'simliklar olami bilan bog'liq holda tasavvur qilinishiga oid dalillar o'zbek xalq dostonlarida ham uchraydi. Masalan, «Oshiq G'arib va Hiloli pari» dostonida Xizr qahramonga sehrli giyoh hadya etishi tasvirlangan. G'arib SHohsanam bilan xayrlashib, Bag'dod shahriga qarab ketayotganda yo'lidan adashib, qirq kecha-kunduz hayron bo'lib yurganida sahar chog'ida bir boboga duch keladi. Bu Xizr bobo edi. U yerdan bir giyohni olib, G'arib qo'lga beradi. G'arib bu giyohning xosiyati nima ekanligini so'rganida Xizr shunday deb javob beradi:

Saqlagil o'zingda mehriyoni,
Qadam bosgan yering lolazor bo'lar,
Dilingnan qo'ymagil zikri samoni,
Saning bosgan izing guluzor bo'lar.

Har kim bu giyohni o'zinda tutsa,
Qutular boshina har balo tushsa,

Xudoning otini ko'nglinga solsang,
Etti pushting mudom xushxabar bo'lar.

Har kim ko'rsa sani bo'lar mehribon,
Mudom sanga bo'lsam deydi jonajon,
Eshitgan ko'p odam chekadi fig'on,
Parizodlar sanga giriftor bo'lar.

Har yerda o'zingni yaxshi atasang,
O'tganlarning arvohini shodlasang,
Xizr bobom deyib bizni yodlasang
Bosha ish tushganda madadkor bo'lar.⁸⁵

Dostonda tasvirlanishicha, shundan keyin Xizr bobo mehriyoga dam solib, ro'molga tugib G'aribga beradi. Ro'molni yuziga surtganda G'aribning husni avvalgisidan ham yuz chandon ortiq bo'libdi. Bu asarda ham Xizr bobo birdan ko'zdan g'oyib bo'lib qoladi.

⁸⁵ Ojiza. She'r va dostonlar. – Toshkent: 2003. – B.81-82.

II.2. Xizr mifologik obraz sifatida

Xalq qarashlarida Xizr odamlarga ekinzorda, paxta dalasida yoki daraxt tagida ko'rinishi ham o'simliklar kultining bevosita ta'sirida yuzaga kelgan tasavvurdir. Masalan, G'ijduvon tumanidagi Gajdumak qishlog'ida yashovchi 23 yashar Rahmonova Xurshidaning hikoya qilishicha, uning marhuma opasi Mukarram Buxoro davlat pedagogika institutida o'qib yurgan vaqtida paxta terimiga chiqibdilar. Bir kuni u tergan paxtasini ikki etakka solib, ikki yelkasiga osib tarozi yoniga olib bormoqchi bo'lib turganida orqasida oppoq soqolli bir nuroniy paydo bo'libdi va: «Qizim, paxtang og'ir emasmi, olib kel, birini men ko'tarishaman», - debdi. Bobo qo'yarda-qo'ymay paxtani tarozi yoniga olib boribdi. Qiz: «Bobo, qo'ying shu yerga, rahmat» deb orqasiga qarasa, etakdagi paxta yonida turar, ammo bobo yo'q emish.

Navoiylik Muhayyo Jo'rayevaning aytishicha, bir kishi daraxt tagida dam olib o'tirgan ekan, bir chol kelib qolibdi-da, undan bir kosa suv so'rabdi. U kishi «Xo'p bo'ladi» deb suv olib chiqish uchun uyiga kirib ketibdi. Bir kosa suv bilan qaytib chiqsa, chol yo'q emish. U hayron bo'libdi, ammo o'sha kundan baxtli yashay boshlabdi. O'sha chol Xizr buva ekan.

Samarqand viloyati Nurobod tumanidagi Ostona qishlog'ida yashovchi Sayfiyeva Rahimadan yozib olingan ma'lumotga ko'ra, Rahmon bobo degan bir kishi yosh bola payti anjirning tagida uxlab qolibdi. Bir kekxa chol uni uyg'otibdi va bolaga qarab: «Sening bolalaring ko'p bo'lib, baxtli hayot kechirasan», - debdi. SHunda Rahmon bobo tush ko'ryapman, deb yaxshilab qarasa, oldida hech kim yo'q emish.

YUqoridagi ikki axborotchining ma'lumotida qahramon bilan Xizrning uchrashuvi daraxt ostida yuz bergan. Bu o'rinda daraxt obrazi qadimgi mifologiyadagi «hayot daraxti»ga aloqador detal. Hayot daraxti ko'k, zamin va yer osti olamlarini o'zaro tutashtirib turuvchi mifologik vosita vazifasini bajargani kabi

yonida Xizr bilan qahramonning uchrashuvi sodir bo'lgan daraxt ham o'z va o'zga dunyo vakillarining yo'li kesishadigan afsonaviy epik makon vazifasini bajargan.

Buxoro viloyatining G'ijduvon tumanidagi Xo'ja Ajuvandi qishlog'ida yashovchi Qahharova Nafisadan yozib olingan quyidagi hikoyada esa Xizr bevosita qahramonni o'simlik yoniga olib boruvchi g'ayritabiiy personaj sifatida gavdalanadi: «Bizdan yuqoriroqdagi qishloqda 91 yoshga kirib vafot etgan Hanifa ismli bir momo yashaganlar. U momo yoshligida Xizrni ko'rgan ekan. Uning aytishicha, endigina yetti yoshga kirgan paytda o'gay onasining qistovi bilan ayni qish chillasida hilbo'y (yalpiz) terishga chiqibdi. Yig'lay-yig'lay yo'l yuribdi, oxiri oyoqlari holdan toyib, bir baland tepalik ustiga o'tiribdi. SHunda uning oldiga bir mo'ysafid chol kelib:

- Qizim, nimaga yig'layapsan? – debdi. Hanifa buvi bo'lgan voqeani aytib berib:

- Buvajon, axir hamma joy qor bo'lsa, qayerdan hilbo'y teraman? - deb yig'lay boshlabdi.

- SHunga shunchami, qizim. Men hilbo'y bor joyni bilaman, yur, birgalikda hilbo'y teramiz, - deb mo'ysafid chol uni yetaklab hilbo'y ko'p joyga eltibdi. Hanifa hilbo'ylar ko'pligini ko'rib hayratdan qotib qolibdi va birgalikda hilbo'y tera boshlabdi. Paqir endi to'la boshlaganida orqasiga qarasa, haligi mo'ysafid chol yo'q emish.

Hanifa cholning Xizr ekanligini bilmay, qo'rqib uyiga yugurib kelibdi-da, qirq kun isitma qilib yotibdi. SHunda qirqinchi kuni Hanifaning tushiga haligi uchratgan mo'ysafid chol kirib: «Qizim, sen o'sha kuni mendan qo'rqdingmi? Sen hali uzoq umr ko'rasan, nechta nevara, abiralarni katta qilasan, ularni uylik-joylik qilib, rohat-farog'atda yashaysan», - debdi. Shundan keyin Hanifa tuzalib ketibdi. U ko'rgan mo'ysafid chol Xizr ekan.

«Gurgon» afsonasida aytilishicha, Xo'jai Xizr bir joyda uxlamoqchi bo'lib, hassasini yerga suqib qo'yibdi. Uyg'onib qarasa, hassadan do'lana daraxti paydo bo'lgan ekan».⁸⁶

Ayrim afsonalarda Xizr nazari tushgan, ya'ni u nigoh tashlagan, qaragan joy yam-yashil o'tloqqa, daraxtzor boqqa aylanib qolishi hikoya qilinadi. Xususan,

⁸⁶ «Buxoro afsonalari». -B.57.

Navoiy viloyatidagi Sarmish darasida joylashgan soya-salqin, serdaraxt oromgohning paydo bo'lishi ham Xizr bilan bog'lanadi. O'sha darada cho'ponlik qiluvchi 56 yashar Sa'dulla Yodgorovning aytishicha, bir kuni Sarmish tog'larining ustidan o'tib borayotgan xo'jai Xidir eng baland cho'qqiga chiqib tevarak-atrofni tomosha qilibdi. SHunda Sarmish darasidagi bir buloqqa ko'zi tushib, «juda xushmanzara joy ekan», - debdi. O'shandan beri Xizr nazari tushgan joyda daraxtlar, maysalar, o't-o'lanlar ko'karib so'lim oromgohga aylangan emish.

Bu mifologik tasavvurlarning barchasi Xizr obrazining tasviri va talqinida o'simliklar olami, yashillik, maysa va yasharish g'oyasi yaqqol aks etganligini ko'rsatadi.

Xizr obrazining o'simliklar bilan bog'liqligi, ya'ni bu mifik personajning g'ayritabiiy xususiyatlari u yoki bu o'simlik bilan bog'liq holda namoyon bo'lishi haqidagi xalq qarashlari ham Xizr obrazining genetik asoslari hosildorlik kultini o'zida ifoda etgan qadimgi mifik personajlar bilan mushtarak negizga egaligini ko'rsatadi.

Folklorshunoslikda mavjud bo'lgan ilmiy qarashlarga ko'ra, Xizr obrazining genetik ildizlari ota-bobolar ruhining madadkorligiga sig'inish an'analari bilan chambarchas bog'langan. Qozoq folklorshunos olimi S.A.Qasqabasov Xizr obrazining genetik ildizlari ota-bobolar arvohiga sig'inish an'anasi bilan bog'liqligini asoslash uchun quyidagi dalillarni keltirgan: «КЫЗЫР (КЫДЫР) – bu to'kinlik, baxt va boylik timsoli. ..U notanish kimsa, qariya yoki darvesh qiyofasida namoyon bo'ladi. Qidirning namoyon bo'lishi va inson bilan uchrashuvi holati ertaklardagi marhum ajdodlar ruhining harakatini eslatadi. Bu ko'z o'ngimizda musulmon olamida keng tarqalgan marhumlar ruhining, ya'ni g'ayb olami vakilining namoyon bo'lishi emasmikin? КЫЗЫР (КЫДЫР) musulmonchilikdagi marhum ajdodlar ruhi, ko'zga ko'rinmas, g'aroyib mavjudod».⁸⁷

O'zbek xalq dostonlaridagi mifologik obrazlarni o'rgangan G'.Akramovning yozishicha, Xizr obrazini «ibtidoiy jamiyatdagi ajdodlar kulti haqidagi tasavvurlar va

⁸⁷ Kaskabasov S.A. Ko'rsatilgan asar. -B.202.

qarashlar bilan bog'lash to'g'ri bo'ladi».⁸⁸ YOsh olim T.Rahmonovning yozishicha, «folklorning epik asarlarida asosan nuroniy chol qiyofasida insonga ko'rinuvchi Xizr obrazi ajdodlar kultining feodalizm davri ruhiga mos holda o'zgarib, diniy qobiqqa o'ralib, badiiy asarda yashab qolgan ko'rinishidir».⁸⁹

Xizr obrazi o'zining g'oyibdan bor bo'lish va birdan ko'zdan g'oyib bo'lish belgisiga egaligi mazkur mifologik personaj to'g'risidagi qarashlarning ildizlari bevosita ota-bobolar ruhi, o'tganlarning arvohi haqidagi tasavvurlarga ham bog'liqligini ko'rsatadi. Chunki xalq qarashlariga ko'ra, ajdodlar ruhi-arvohi ham xuddi Xizr singari birdan paydo bo'lar va qanday namoyon bo'lgan bo'lsa, shundayligicha g'oyib bo'lib qolar emish. Binobarin, Xizr obrazi o'zining ana shu belgisiga ko'ra ajdodlar kultiga sig'inish an'anasi asosida kelib chiqqan boshqa bir mifik personaj - chiltonlarga yaqin keladi.

O'zbek xalq eposidagi epik an'anaga ko'ra, qahramonning g'ayritabiiy homiylari sanalayotgan paytda Xizr va chilton obrazlari yonma-yon keladi. Chiltonlar xalq tasavvurida qirq nafar ezgu ruhlar bo'lib, odamlar ko'ziga ko'rinmaydigan bu g'ayritabiiy kuchlar hamisha insonlarga madad berish, ularni qo'llab-quvvatlash vazifasini bajaradilar. Chiltonlarning o'zaro munosabati ham ma'lum bir tuzilma holatida shakllangan deb tushuniladi: ular haftan, setan va yaktanlardan iborat hamda qutbning ixtiyoriga bo'ysunadilar. Xuddi Xizrga o'xshab chiltonlar ham odamlarning tushiga kirib yordam beradi. Doston qahramonlarining doimiy homiylari qatorida chiltonlar ham tilga olinadi.

«Go'ro'g'lining bolaligi» dostonida tasvirlanishicha, chiltonlar qahramonga qalandar tarzida ko'rinadi. E'tibor berilsa, qalandar bo'lib ko'rinish Xizrga ham xos xususiyat. Dostonda bayon qilinishicha, Go'ro'g'li G'irotni minib YOvmitning xonaqosining yonidan o'tib ketayotganda xonaqohda ko'plab qalandarlar o'tirganini ko'rib qoladi. Ular Go'ro'g'lini otidan tushirib xonaqohga olib kiradilar va podsholik ko'ylagini kiydiradilar. Go'ro'g'li kuylakning yoqasidan boshini chiqarib qarasa, na

⁸⁸ Akramov G'. «Go'ro'g'li» turkumida mifologik obrazlar // Adabiyotshunoslikka oid tadqiqotlar. – Toshkent: 1978. - B.188.

⁸⁹ Rahmonov T. Qadimgi miflar o'zbek folklori epik motivlarining o'zagi sifatida. Filol. fanlari nomzodi disser. – Toshkent: 1997. - B.104.

oti bor, na qalandarlar bor: xonaqohda yakka o'zi turibdi⁹⁰. Bu qalandar bo'lib ko'ringan kishilar aslida chiltonlar edi, ular G'irotni tarbiyalash uchun Go'ro'g'lining qo'lidan olib ketishgan.

Otini izlab yurgan Go'ro'g'li tog'da o'zining G'irotni ko'rib qoladi. U otini tanib, tutib minib olib ketayotganda oldidan bir bobo chiqib, uni to'xtatadi. Keyin har ikkisi kurashib, kim yengsa, ot o'shaniki bo'lishiga kelishib oladilar. SHunda chol Go'ro'g'liga qarab:

Bu yer er Xizrning tog'i bo'ladi,
Kim yiqsa shu otni yutib oladi,
Bordiyu yiqilsang, ko'rgin o'zingdan,
Undan keyin ot bo'ladi bizniki, - deydi⁹¹.

Bundan ko'rinadiki, G'irotni tarbiyalagan va Go'ro'g'li bilan kurash tushib, uni sinab ko'rgan chol Xizrdir. Xizr obrazining bu dostonidagi eng asosiy funksiyalaridan biri qahramonni chiltonlar huzuriga boshlab borishdan iboratdir.

CHol Go'ro'g'li bilan kurashib, bir necha marta yengadi, shunda ham qahramon otiga talabgor bo'lib tura bergach, chol «shu yaqinda qozixona bor» deb Go'ro'g'lini bir g'orga olib boradi. G'or ichidagi qirq qalandar Go'ro'g'lini to'rda qo'yilgan sandal yoniga boshlab boradilar. Sandal atrofida o'tirgan to'rt odamdan biri: «Qani Go'ro'g'li, marhamat qil. Ammo bilginki, bu yer chilton, G'ovsul-G'iyoslarning joyi. Sen shu ot sabab bo'lib bu yerga kelib qolding. Endi bu yerdan quruq ketma. Uch martaba so'raymiz, qani ayt. Ot tilaysanmi, zot tilaysanmi? - debdi. Go'ro'g'li uch marta so'ralganda ham ot tilaydi. SHundan keyin G'ovsul-G'iyos: «Bo'lmasa, bizlar senga uch narsa qo'shib beramiz. Birinchidan, o'z tilaganing shu G'irko'k oting bo'lsin, o'zing bilan teng umrlik bo'lsin. Ikkinchidan, umring ziyoda bo'lsin - yoshing bir yuz yigirmaga yetsin. Uchinchidan, YUnus va Misqol parilar yoring, CHambil shahring bo'lsin. To'rtinchidan, har qanday yarador bo'lsang, yulduzlarni ko'rib tuzalib ketadigan bo'lgin, omin», - debdi⁹².

⁹⁰ «Go'ro'g'li» dostonlari. 1. «Go'ro'g'lining tug'ilishi». – Toshkent: YOzuvchi, 1996. – B.74-75.

⁹¹ Yuqoridagi manba. -B.79.

⁹² «Go'ro'g'li» dostonlari». -B.80-81.

Bu o'rinda ham chilton va Xizr obrazlari talqinida umumiylik borligini ko'ramiz. CHiltonlar Go'ro'g'lining yoshi bir yuz yigirmaga yetishi, CHambilga xon bo'lishi, YUnus va Misqol parilarga uylanishi, yarasi yulduz ko'rganda tuzalib ketishini oldindan bashorat qiladilar. Xizr haqidagi xalq qarashlarida ham ayni holatni ko'ramiz.

Kattaqo'rg'on shahrida yashovchi Feruza Rahmatovanning hikoya qilishicha, uning onasiga o'n besh yoshlik paytida Xizr yo'liqqan. Bir kuni u o'qigan kitoblarda tasvirlangan chalkash taqdirilar to'g'risida o'ylab, xayol surib ketayotgan ekan, orqasidan kimdir ismini aytib chaqirganini eshitib qolibdi. O'girilib qarasa, oppoq libosli nuroniy bir qariyani ko'ribdi. Uning egnidagi qordek oppoq libosi, oppoq soqol-mo'ylovlari, qo'lidagi asosi uni nurli ko'rsatar edi. CHol: - Jabbor merganning qizimisan? - debdi. Qiz bosh irg'atib tasdiqlagach, u so'zini davom ettiribdi:

- Qizim, men seni yaxshi bilaman. Sen baxtli bo'lasan, sevib turmush qurasan. Samarqandga kelin bo'lib tushasan, o'n uchta farzand ko'rsan, ammo uchtasini tuproqqa berasan. Hayotingda qiyinchiliklar uchraydi, lekin sen o'zingni yo'qotma. Xudo senga bir karomatli kasb beradi, uni xor qilma. Lekin bilib qo'y, 33, 59 yoshingda bir xavf bor, uni yengsang yashaysan, - debdi. Qiz bu gaplardan hayron bo'lib, boshini ko'tarib qarasa, chol yo'q emish.

Haqiqatan ham, cholning hamma aytganlari amalga oshibdi. Samarqandga turmushga chiqib, 13 farzand ko'ribdi, ammo uchta bolasi yoshligida nobud bo'libdi. O'zi tabib bo'lib yetishibdi, 33 yoshida bir operatsiya qilinibdi, ammo 59 yoshida kasallanib vafot etibdi. Qizga taqdirini bashorat qilgan chol Xizr ekanligini uning tasviridagi «oq» rang timsoli va birdan paydo bo'lib, zumda g'oyib bo'lish xususiyatidan ham bilsa bo'ladi.

«Sirdaryo» afsonasida⁹³ ham Xizr ayni shu funksiyani bajaradi: «Bir boyning o'g'li tongda sayr qilib yurib, bir daryoning bo'yiga kelib qolibdi. Qarasa oppoq kiyimli bir nuroniy chol har qayerdan barglarni terib kelib, ikkitadan qilib daryoga tashlayotgan ekan. Yigit buning sababini so'raganda, chol: «Ey bo'tam, men yer yuzidagi insonlarning taqdirini bir-biriga bog'layapman», - deb javob beribdi.

⁹³ «Buxoro afsonalari». -B.77-78.

Afsonaning oxirida insonlarning taqdiri bir-biriga bog'lanadigan bu kun «Xizr kuni» deb yuritilishi aytiladiki, bundan daryo bo'yida o'tirib, barglarni juftlab tashlayotgan chol Xizr ekanligini anglaymiz.

«Go'ro'g'lining tug'ilishi» dostonining yuqorida parchasi tahlil qilingan Rahmatulla YUsuf o'g'li variantida epik qahramonga chiltonlar tomonidan berilgan ot hamda uch in'omning mohiyati G'ovsul-G'iyos tomonidan bayon etilsa, dostonning Po'lkan shoirdan yozib olingan variantida bu maqsad Xizr (Xidr) bobo tilidan ifodalanadi. Po'lkan shoir talqinicha, chiltonlar orasidan Xidr bobo o'rnidan turib shunday deydi:

YUz yigirma beshga kirsin G'irko'king,
Ikkovginang birday qari, Go'ro'g'li!
Soqibulbul sayis bo'lsin, Go'ro'g'li..
Hukumatli tiling bo'lsin, Go'ro'g'li,
YOv olmasin, qiyomatda suv olsin,
Avaz, Hasan o'g'ling bo'lsin, Go'ro'g'li.
CHambilning podshosi bo'lding, Go'ro'g'li,
Oxiri armonli bo'lding, Go'ro'g'li,
Majlisdan quruq ketding, Go'ro'g'li,
Bir uyadan yolg'iz uchding, Go'ro'g'li⁹⁴.

Qodir baxshi Rahim o'g'li ijro etgan «Zaydinoy» dostonida esa Go'ro'g'lining taqdirini bayon etuvchi bu bashorat chiltonlar tomonidan aytiladi. Doston talqinicha, chiltonlardan biri gapirib turganida qolganlari «ovmin», «ilohi omin» deb duo qilib turadilar. CHiltonlar Go'ro'g'li o'ziga ot so'rab, zot tilamaganidan so'ng, uning befarzand o'tishidan kuyinib, taqdiri-hayot yo'lini shunday tasvirlaydilar.

Hoy, attang-a, gap ma'nosin bilmading,
Gap ma'nosin bilib o'ylab ko'rmading,
Tizzangga ob quchib-quchib suymading,
Oting qolsin yorug'i yo'q, Go'ro'g'li.

⁹⁴ «Alpomishnoma». -B.348.

Obqolar deb qo'rqding hayvon G'irotni,
Nasib qilsin senga Chambil elati,
Senday sherning endi bo'lmas farzandi,
Oting qolsin avlodi yo'q, Go'ro'g'li⁹⁵.

Bu dostonda chiltonlar asosan Go'ro'g'lining farzandsiz o'tishiga ishora qilib, uning necha yoshga kirishi, kimga uylanishi, yarasi yulduz ko'rganda bitishi haqida gapirmaydilar. Mazkur dostonni tahlil qilgan folklorshunos olimlar M.Murodov va A.Ergashevlarning yozishlaricha, «duo- bashoratning chiltonlar tomonidan berilishi Qodir baxshi variantining qadimiyligini ko'rsatadi. Chunki epik homiylik ko'rinishi avval paydo bo'lgan va bu, ehtimol, ko'p xudolik bilan bog'liqdir. Ayni vaqtda chiltonlar, Er Xidir, Qambar chol bir xildagi homiy emas. Shuningdek, Po'ltan shoirida ko'rsatilganidek, Xidir chiltonlar bilan yurmaydi, u chiltonlardan emas. Garchi ularning uchalasi ham bir xil vazifani - qahramonga ko'mak berib, ularni ezgu ishlarga boshlash, boshlariga og'ir kun kelganda osonlashtirishga xizmat qilsalarda, bu yordam har biriga xos yo'sinda kechadi»⁹⁶.

Mualliflar to'g'ri ta'kidlaganlaridek, Xizr chiltonlardan biri emas, u alohida mustaqil mifik obraz. Bu ikki obrazning shakllanish tarixi ham bir xil emas. Chiltonlar obrazi ibtidoiy davrdagi «yashirin jamiyat»lar va ular tomonidan o'tkazilgan sinov marosimlari to'g'risidagi mifologik qarashlar negizida kelib chiqqan.

M.S.Andreyevning yozishicha, chiltonlar qirq nafar ezgu ruhlar bo'lib, odamlarning ko'ziga ko'rinmaslik, yaxshilikni qo'llab-quvvatlash, kishilarga homiylik qilish xususiyatiga ega⁹⁷.

Xalq eposida homiy-personaj sifatida tasvirlanadigan sehrli chol – Xizr obrazining genetik ildizlari mifologik ritualga kirib boradigan «qirq chilton»lar bilan aloqador bo'lishi mumkin. Chunki chiltonlar to'g'risidagi tasavvurlar zahirida ham

⁹⁵ «Alpomishnoma». I. -B.348-349.

⁹⁶ «Alpomishnoma». I. -B.349.

⁹⁷ Andreyev M.S. Chiltany v sredneaziatskix verovaniyax // Sb. «V.V. Bartoldu». - Tashkent, 1927. - S.334-348.

ma'lum darajada ajdodlar kulti hamda ibtidoiy jamiyat hayoti bilan bog'liq real voqelik yotadi.

Qadimiy tushunchaga ko'ra, «chiltonlar» g'ayritabiiy kuchga ega, kunduz kuni oddiy odam, ba'zan esa devona qiyofasida keladilar. SHuning uchun ham ulardan shubhalanmaydilar. Devona, darvesh, qalandar ko'rinishlarida namoyon bo'lish Xizrga ham xos belgilardan biri.

Etnograf olim M.V.Sazonovanning fikricha, chilton haqidagi tasavvurlarning ildizlari ibtidoiy marosimlardan biri- yosh o'spirinlarni sinovdan o'tkazish udumiga bog'lanadi. Uning taxminiga qaraganda, «Chiltonlar haqidagi tasavvurlar sinov shartlarini bajarishga tayyorgarlik ko'rayotgan o'smirlarning ma'lum bir muddat o'z qabiladoshlari ko'ziga ko'rinmaslik an'anasi, ya'ni yoshirinib yurib, sinovdan o'tgach, to'laqonli erkak sifatida namoyon bo'lishi bilan bog'liq».

Bizning fikrimizcha, M.V.Sazonovanning «chilton» obrazi genezisi haqidagi taxmini haqiqatga ancha yaqin. Chunki chiltonlarning odamlar ko'ziga ko'rinmasligi to'g'risidagi mifologik tasavvurlar sinov shartlarini bajarishga tayyorgarlik ko'rayotgan o'smirlarning ma'lum muddat o'z qabiladoshlari ko'ziga ko'rinmaslik tabusiga amal qilishi asosida kelib chiqqan.

Folklorshunos olim M.Jo'rayev ertaklardagi «qirq qaroqchi» obrazining genetik asosini chiltonlar haqidagi qarashlarga bog'lab tushuntirar ekan, «qirq qaroqchi obrazi ibtidoiy jamiyatdagi sotsial tabaqa - «yashirin jamiyat»lar haqidagi qadimgi mifologik tasavvurlar asosida paydo bo'lgan», - deb yozadi.⁹⁸

Xalq qarashlari, mifologiya va folklorda chilton hamda Xizr obrazlari qahramonga homiylik qiluvchi mifologik personaj sifatida qo'llaniladi. Bu ikki obraz orasida ma'lum o'xshashliklar ham bor. Ular quyidagilardan iborat:

1) Xizr ham, chilton ham odamlarga yaxshilik qiluvchi, kishilarni qo'llab-quvvatlovchi ezgu kuch sifatida tasavvur qilinadi;

2) har ikkala mifologik obraz hamisha ham odamlar ko'ziga ko'rinavermaydi, ular qahramonga yordam berish uchun g'oyibdan paydo bo'lib, bir zumda ko'zdan

⁹⁸ Jo'rayev M. O'zbek xalq ertaklarida sehrli raqamlar. - Toshkent: Fan, 1991. – B.144.

g'oyib bo'ladilar. SHuning uchun chiltonlarni «g'oyib eran», «eranlar» deb ham atashadi;

3) Xizr bilan chilton obrazlarining genetik asoslari qadimgi mifologik tasavvurlarga borib bog'lanadi;

4) folklor asarlarida, xususan, dostonlarda Xizr va chilton obrazlari epik qahramonning mifologik homiysi funksiyasini bajaradi.

SHu bilan bir qatorda Xizr va chilton obrazlari bir-biridan farqlanuvchi xususiyatlari quyidagilardan iborat:

1) Xizr - oppoq soqolli nuroniy chol qiyofasida tasavvur qilinadigan monosemantik obraz. «Chilton» esa qirq nafar ko'zga ko'rinmas ezgu ruhlarning umumlashma nomidir. Binobarin, chilton o'z ichiga yaktan, setan va haftan kabi tushunchalarni, ular bilan bog'liq tasavvurlarni ham umumlashtiruvchi ko'p ma'noli tabiatga ega bo'lgan obraz hisoblanadi;

2) Chilton obrazi g'or, qabriston, tog' kabi quruqlikka dahldor makonlar bilan bog'liq bo'lsa, Xizr ham quruqlik, ham suvlikdan iborat makonga aloqador bo'lgan obrazdir. Ayrim manbalarda, Xizr suvlikda odamlarga yordam beruvchi personaj sifatida talqin qilinadi;

3) o'zbek xalq toponimik afsonalarida (masalan, «Gurgon», «Jilbuloq», «Gavkushon madrasasi», va h.k.) joy nomlarining paydo bo'lishi Xizr sarguzashtlariga bog'lab izohlanadi. Chilton obrazi tasvirida esa toponimik kod bilan bog'liq talqin uchramaydi;

4) Xizr obrazining tarixiy asoslari suv, olov, o'simlik va hosildorlik kultlari. Ajdodlar ruhining homiyligi haqidagi qarashlar bilan bog'liqdir. Chilton to'g'risidagi xalq qarashlari bo'lsa ibtidoiy jamoa tuzumi davridagi sinov marosimlari va bu marosimlarni tashkil qilib, o'tkazuvchi «yashirin jamiyat»lar haqidagi mifologik talqinlar asosida kelib chiqqan;

5) xalq qarashlariga ko'ra, Xizrni o'ng qo'lining bosh barmog'ida suyagi bo'lmasligi belgisiga ko'ra tanib olish mumkin deyiladi. CHiltonlarning esa ana shu kabi tanirlik belgisi yo'q;

6) Xizr nazari tushgan, uning qadami tekkan joy ko'kalamzorga, barakali joyga aylanadi. CHilton nigohi esa bunday xususiyatga ega emas.

Ana shu kabi farqli belgilarning barchasi Xizr va chilton obrazlari genetik ildizlari va vazifasiga ko'ra alohida mustaqil personajlar ekanligini ko'rsatadi.

Xizr obrazining genezisi O'rta Osiyo xalqlarining ajdodlar kultiga doir qarashlariga aloqadorligini tasdiqlash uchun mamlakatimizning turli viloyatlarida mavjud bo'lgan «G'oyib ota», «G'oyib bobo» degan muqaddas joylar va qadamjolar haqidagi xalq qarashlarini ko'rib chiqish ham foydali bo'ladi.

Xullas, Xizr va Ilyos obrazlari asli bir mifologik asosga ega bo'lib, badiiy tafakkur taraqqiyotining tadrijiy rivoji davomida dastlab og'zaki asarlarda, keyinchalik yozma adbiy asarlarga singdirilgan. SHu o'rinda Nosiriddin Burxoniddin o'g'li Rabg'o'ziyning "Qisasi Rabg'o'ziy" asari adibning ajdodlaridan eshitgan keyinchalik kitobat qilinganligini esdan chiqarmasligimiz lozim.

XULOSA

Folklor asarlari san'atning boshqa turlari qatori o'zining mazmun mohiyati bilan umumbashariy qadriyatlar tizimini o'zida mujassamlashtirganligi bilan ham ma'naviyatimiz sarchashmasi sifatida muhim ahamiyat kasb etadi. Asrlar davomida xalqimiz tomonidan yaratilib og'izdan-og'izga, avloddan-avlodga o'tib kelayotgan folklor asarlari syujet tizimida faol ishtirok etuvchi pari, ajina, alvasti, dev, yalmog'iz kampir mortu, ozitqi singari demonologik xarakterdagi hamda ajdodlar tomonidan ezgulik timsoli, epik homiy sifatida tasavvur qilingan mifologik obrazlarning

monografik nuqtai nazardan tadqiq etish badiiy ijodiyotimiz ibtidosi va xalq badiiy tafakkuri tadrijiy takomilini aniqlashda muhim o'rin tutadi.

Ma'lumki, turkiy xalqlar folklorining mifologiyaga bevosita daxldor personajlaridan bir guruhi epik qahramonning homiysi, g'ayritabiiy ko'makchisi va yordamchisi vazifasida kelishi bilan boshqa tipdagi mifik obrazlardan farqlanib turadi. Xususan, Xizr obrazi bilan bog'liq xalq tasavvurlari xilma-xil bo'lib, hozirga qadar folklorshunoslarimiz tomonidan turli munozaralarga sabab bo'lib kelmoqda. Biroq Xizr bilan bog'liq xalq qarashlari, mazkur mifik obrazning epik motiv va syujetlar tizimidagi ishtiroki, Namro'd, Xizr, pari obrazlarining turli xil talqinlarini o'zida ifodalagan yozma manbalar o'zbek folklorida ushbu asotiriy personajga aloqador yaxlit tizim holida shakllangan mifologik qarashlar silsilasi mavjudligini ko'rsatadi.

“Qisasi Rabg'o'ziy” o'zining boy mifologik tasavvurlar va obrazlari bilan ajdodlarimizning uzoq tarixiy bosqichlardagi duyoqarashlarini badiiy ifoda etgan. “Qisasi Rabg'o'ziy”da asosiy personaj sifatida keltirilgan mifologik obrazlar o'z syujeti va parallel motivatsiyasi bilan badiiy tafakkur olamida kezib yuradi. Mifologik tasavvurlar tizimining badiiy rivoji va epik diffuziyasi natijasida yuzaga kelgan an'anaviy obrazlardan biri Xizr bo'lib, u ajdodlarimizning g'ayritabiiy ezgulik kuchlari hamda ilohiy homiy bilan aloqador dastlabki ishonchlari, shuningdek, tabiatni poetik idrok etishning birlamchi hosilalari sintezining mahsulidir. Ilyos Xizrning poetik ekvivalenti sifatida qaralmog'i lozim. Chunki, bu ikki nom ostidagi obrazlarning adabiy arsenalda bajaradigan badiiy vazifalari, ularning turli inonchlar bilan aloqadorligi tarixat bir o'zakdan tashkil topganigini, tarixiy ildizlari birgina mifologik tasavvur mohiyatiga aloqadorligini ko'rsatadi.

Ilyos va Xizr obrazining tarixiy ildizlari va tadrijiy takomili, badiiy matnda bajaradigan poetik vazifalarini tadqiq etishga bag'ishlangan mazkur ilmiy ishimizda ko'rib chiqilgan masalalar yuzasidan quyidagicha umumiy xulosalarga keldik:

1. O'zbek folkloridagi g'ayrioddiy homiy-personaj sifatida tasavvur qilingan mifologik obrazlar orasida suv, olov, o'simliklar dunyosi, ota-bobolar ruhining

madadkorligiga ishonish an'analari bilan bevosita bog'liq holda yuzaga kelgan Xizr obrazi alohida o'rin tutadi. Xizr asosan islomni qabul qilgan turkiy xalqlar folkloridagina keng ommalashgan an'anaviy mifologik obraz hisoblanadi. Islom diniga e'tiqod qilmaydigan yoqut, hakas, tuva va boshqa turkiy xalqlarda Xizrning vazifasini boshqa mifologik homiy-personajlar bajaradi. Bu esa Xizr obrazining turkiy xalqlar folklorida ommalashishi islom dinining yoyilishi bilan bevosita bog'liq emasligini ko'rsatadi. Turkiy xalqlar folkloridagi Xizr obrazining talqiniga doir ilmiy manbalar bu personaj haqidagi xalq qarashlarining genetik ildizlari qadimgi turkiy mifologiyada mavjud bo'lgan ota-bobolar ruhining asotiriy timsoli sifatidagi tasavvurlarga borib taqalishini ko'rsatadi.

2. Xizr - o'zbek mifologiyasida odamlarga yaxshilik qiladigan, ezgu homiy sifatida ularning mushkullarini oson qilib, qut-baraka va mo'l hosil baxsh etadigan an'anaviy asotiriy personajlardan biri. Xalqimizning mifologik tasavvurlariga ko'ra, Xizr ajdodlar ruhining timsoli bo'lib, u qiyin ahvolda qolgan kishilarga madad beruvchi afsonaviy homiy, donishmand oqsoqol va obi hayot chashmasining suvidan ichganligi uchun doimiy barhayotlikka erishgan ezgu kuch hisoblanadi. Xizr obrazi ko'pgina turkiy xalqlar, shuningdek, arab, fors, tojik xalqlari folklori hamda yozma adabiyotida keng tarqalgan an'anaviy mifologik personajlardan biri sanaladi. Bu obraz odamlarga yaxshilik qiluvchi ezgu homiy, cho'lda yoki dengizda adashganlarga yo'l ko'rsatuvchi g'aroyib inson, o'simliklar olamining homiysi, mo'l hosil baxsh etuvchi mo'jizakor qudrat sohibi, baxt va davlat ato qiladigan ezgu pir, epik qahramonlarning doimiy hamrohi sifatida tasvirlanadi.

3. O'zbek folklorida bu mifologik personaj boshiga mushkul ish tushgan epik qahramonga homiylik qiluvchi afsonaviy xaloskor, zukko maslahatlari bilan yaxshilik qiluvchi donishmand, hayot suvini ichganligi uchun abadiy barhayotlikka erishgan afsonaviy payg'ambar, shifobaxsh chashmalarning ko'zini ochgan g'ayrioddiy madadkor, cho'l va sahrolarda g'oyibdan paydo bo'lib, qiyin ahvolda qolgan kishilarga ko'mak beruvchi ezgulik timsoli, dehqon dalasiga mo'l hosil va baraka ato etuvchi hosildorlik ramzi, odamlarni hamisha qo'llab-quvvatlab turadigan ezgu pir

yoki aziz avliyolardan biri sifatida talqin qilinadi. “Qisasi Rabg’o’ziy”da Ilyos ham ayni tavsifga egadir.

4. Pari obrazi dastlab O’rta Osiyo hududida yashagan ajdodlarimizning zardo’shtiylikdan avvalgi dehqonchilik marosimlari, hosildorlik inonchi va u bilan bog’liq xalq qarashlari asosida kelib chiqqan mifik homiy timsoli bo’lgan. Basharti hosildorlik inochining ritual asosi-ezulik timsoli deb qaralgan suv bo’lgan ekan, parining hosildorlik kultiga aloqador jihatlari keyinchalik suv parisi obrazida mujassamlashtirilgan. “Qisasi Rabg’o’ziy”da parini olovning yolinidin yaratilishi haqidagi talqin mazkur mifologik obrazning muqaddas olov bilan aloqadorligini krsatadi. Demak, parilar haqidagi dastlabki mifologik tasavvurlar otashparastlik davrida maydonga kelgan degan xulosaga kelishimizga asos bo’ladi.

5. “Qisasi Rabg’o’ziy”da Namrid obrazi va uning paralelidagi motiv va sayyor syujetlar mazkur obrazning islomiy afsonalar momaqaldiraq, chaqmoq va qo’ziqorin to’g’risidagi xalq qarashlarining o’ziga xos talqinlari yuzaga kelishi uchun asos vazifasini o’tagan. O’zbeklarning momaqaldiraq bilan bog’liq mifologik afsonalari syujetidagi ayrim motivlarning jahon xalqlari folkloridagi shu mavzuga doir matnlarga o’xshashligi esa o’tmishda yashagan ajdodlarimizning tabiat hodisalari haqidagi mifologik tasavvurlaridagi mushtarak talqinlar mavjud bo’lganligidan dalolat beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

I. Siyosiy adabiyotlar

1. Karimov I. Istiqlol va ma’naviyat. –Toshket: O‘zbekiston, 1993. - 160 bet.
2. Karimov I. Tarixiy xotirasiz-kelajak yo‘q.- Toshkent: «Sharq» nashriyot - matbaa konsernining bosh tahririyati, 1998. - 32-bet.
3. Karimov I. Olloh qalbimizda, yuragimizda. – Toshkent: O‘zbekiston, 1998. - 32 bet.

4. Karimov I. Biz kelajagimizni o'z qo'limiz bilsh quramiz. Asarlar, 7-tom.- Toshkent: O'zbekiston, 1999. 410-bet.
5. Karimov I. Donishmand xalqimizning mustahkam irodasiga ishonamiz. // «Fidokor» gazetasi, 2000, 8 iyun.
6. Milliy Istiklol g'oyasi: asosiy tushuncha va tamoyillar.- Toshkent: O'zbekiston, 2000. - 80 bet.

II. Ilmiy va badiiy adabiyotlar

1. Abdullaev V.A. O'zbek adabiyoti tarixi. Ikkinchi kitob. Toshkent: O'qituvchi, 1980. - 345 bet.
2. Sarimsoqov B. Epik janrlar diffuziyasi // O'zbek folklorining epik janrlari. – Toshkent: Fan, 1981. - B.155.
3. Jo'rayev M. «Odami Od» afsonasi syujetining manbalari // «O'zbek tili va adabiyoti», 2000, №2. – B.31-37;
4. Jo'rayev M. «Anqo» obrazi talqiniga doir ba'zi mulohazalar // «O'zbek tili va adabiyoti», 2001, №2. – B.52-54;
5. Jo'rayev M. Gavomard obrazining o'zbek folkloridagi talqinlari // «O'zbek tili va adabiyoti», 2001, №5;
6. Jo'rayev M. Hubbi obrazining mifologik asoslariga doir // «O'zbek tili va adabiyoti», 2002, №2;
7. Jo'rayev M. Buxoro afsonalari (tadqiqot va matnlar). – Toshkent: Abdulla Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti, 2002 (hamk.);
8. Jo'rayev M., SHomusarov SH. O'zbek mifologiyasi va arab folklori. – Toshkent: Fan, 2001.
9. Jumaniyozov B. O'zbek epik folklorlarida yalmog'iz obrazi. Filol. fanlari nomzodi. diss. avtoref. - Toshkent: 1996.
10. Eshonqulov J. O'zbek folklorida dev obrazi. Filol. fanlari nomzodi diss. avtoref. - Toshkent: 1997.
11. Qayumov O. O'zbek folklorida pari obrazi (tarixiy asoslari va badiiy talqini). Filol. fanlari nomzodi diss. avtoref. - Toshkent: 1999.

12. Tilavov A. O'zbek xalq dostonlaridagi ot obrazining tarixiy asoslari va badiiy talqini. Filol. fanlari nomzodi diss. avtoref. - Toshkent: 2000.
13. Fayziyeva D. O'zbek folklorida ilon-ajdar obrazi (genezisi va badiiy talqini). Filol. fanlari nomzodi diss. avtoref. - Toshkent: 2004.
14. Haydarov T. «Go'ro'g'li» va mifologiya sinkretzmi. Filol. fanlari nomzodi diss. avtoref. - Toshkent: 1994.
15. Rahmonov T. Qadimgi miflar o'zbek folklori epik motivlarining o'zagi sifatida. Filol. fanlari nomzodi. diss. avtoref. - Toshkent: 1996.
16. Nosiruddin Burhonuddin Rabg'o'ziy. Qisasi Rabg'uziy. 1-tom. – Toshkent: YOzuvchi, 1990. – B.68.
17. Abdullaev V.A. Bobur Navoiy. - Bobur va uning zamondoshlari ijodini o'rganish masalalari. Samarqand. SamDU nashri, 1983. 11-41-betlar.
18. Abdug'afurov A. Buyuk beshlik saboqlari. Maqolalar. -Toshkent: Adabiyot va san'at nashryoti, 1995. - 184 bet.
19. Abu Abdulloh Muhammad ibn Ismoil al-Buxoriy. Hadis. To'rt jildlik. Jildlar 1-4 - Toshkent: Qomuslar Bosh tahririyati. 1991-1996. -, 528, 560, 624-betlar.
20. Alisher Navoiy ijodi va ma'naviy madaniy taraqqiyot masalalari. Respublika ilmiy-nazariy anjumani. Samarqand, 2001, - 154 bet.
21. Attor Farididsin. Ilohiynoma. - Toshkent:YOzuvchi, 1997. -96 bet.
22. Attor Farididdin. Tazkirat-ul avliyo. - Toshkent: O'zbekiston milliy zpsiklopediyasi, davlat ilmiy nashriyoti, 1997. -176 bet.
23. Valixo'jaev B. XV-XIX asr o'zbek adabiy-tanqidiy qaraishari tarixidai. «O'zbek she'riyati va adabiyotshunosligi tarixidan». SamDU asarlari, yangi seriya, 138-nashr. Samarqand, 103-117 betlar.
24. Valixo'jaev B. O'zbek epik poeziyasi tarixidan. -Toshkent: Fan, 1974 yil. - 151 bet.
25. Valixo'jaev B, Vohidov R. Navoiy ijodi – ilhom manbai. - Toshkent: Fan, 1981. - 74 bet.
26. Valixo'jaev B. Xoja Ahrori Vali. - Samarqand: «So'g'diyon», 1992, 64 s.

27. Valixo‘jaev B. Xoja Ahror tarixi. - Toshkent: «YOzuvchi», 1993. - 70 bet.
28. Vohidov R. Alisher Navoiy va ilohiyot.- Buxoro: BuxDu, 1994.-208 bet.
29. Vohidov R. Alisher Navoiyning ijod maktabi. –Buxoro: “Buxoro”, 1994.-188 bet.
30. Jo‘shon Mahmud A’sad. Tasavvuf va nafs tarbiyasi.- Toshkent: CHO‘lpon, 2000.-96 bet.
31. Zehniy T. San’ati suxan. Ilmi bade’ va muxtasari aruz. - Dushanbe: Irfon, 1967. - 304 s.
32. Ibrohimov A. Boburiylar merosi. - Toshkent: Fan, 1998. 60-78-betlar.
33. Ismoil B. Bobur va Jom jangi // O‘z AS, 2001, fevral.
34. Ishoqov YO. Alisher Navoiyning ilk lirikasi. -Toshkent: Fan, 1965. 78-81-betlar.
35. Ishoqov YO. Navoiy poetikasi. - Toshkent: Fan, 1983 -168 bet.
36. Karimov Q. Ilk badiiy doston. - Toshkent: Fan, 1976. 27-30-betlar
37. Karomatov H. Qur’on va o‘zbek adabiyoti. – Toshkent: Fan, 1993. - 96 bet.
38. Koshg‘ariy M. Devonu lug‘otit turk. III tomlik. I tom. -Toshkent: Fan, 1960 - 500 bet.
39. Koshg‘ariy M. Devonu lug‘otit turk. III tomlik. II tom. -Toshkent: Fan, 1963 yil,- 428 bet.
40. Koshifiy Husayin Voiz. Futuvatnomai Sultoniyy yoxud javonmardlik tariqati (Pandnoma). - Toshkent: A. Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti, 1994. - 112 bet.
41. Komilov N. Islom - ma’rifat dini. - Toshkent: Ma’naviyat, 2000. - 16 bet.
42. Komilov N. Tasavvuf yoki komil inson axloqi. Birinchi kitob. - Toshkent: Yozuvchi, 1996. - 272 bet.
43. Komilov N. Tasavvuf. - G‘oyiblar xaylidan yongan chiroqlar. Maqolalar to‘plami. - Toshkent: O‘zbekiston, 1994. -13-58 betlar.
44. Komilov N. Tasavvuf. Ikkinchi kitob. Tavhid asrori. - Toshkent: G‘.G‘ulom nomidagi Adabiyot va san’at nashriyoti, 1999. - 208 bet.

45. Komilov N. Tafakkur karvonlarn . - Toshkent: Ma'naviyat, 1999. - 280 bet.
46. Mallaev N. O'zbek adabiyoti tarixi. Birinchi kitob. -Toshkent: O'qituvchi, 1976. -664 bet.
47. Mahmudov M. Ahli dil. - Toshkent: G'.G'ulom nomidagn Adabiyot va san'at nashriyoti. 1997. - 312 bet.
48. Mashrab Boborahim. Mehribonim qaydasan. Toshkent: Adabiyot va san'at nashriyoti, 1990.- 415 bet.
49. Me'rojnoma. Nashrga tayyorlovchi, so'z boshi va izoh mualliflari Haqqul I, Rafi'iddin S. - Toshkent: YOzuvchi, 1995. - 96 bet.
50. Mir Kulol va SHohi Naqshband maqomotlaridan. -Toshkent: SHarq nashriyot - matbaa konsernining Bosh tahririyati, 1993. - 78 bet.
51. Muhammad Nurulloh Saydo Al-Jazariy. Tasavvuf sirlari. - Toshkent: «Movarounnahr», 1999. - 100 bet.
52. Muhammad payg'ambar alayhis-s-salom qissasi. Hadislar. - Toshkent: Kamalak, 1991. - 304 bet.
53. Muhiddinov M. Barhayot an'analar. - Toshkent: Fan. 1987. - 79 bet.
54. Muhiddinov M.Q. «Xamsa»larning birinchi dostonlarida komil inson tasviri // D.D. Toshkent: 1995.
55. Muhiddinov M.Q. «Xamsa»larning birinchi dostonlarida hamd va na'tlar talqini. Samarqand. SamDU nashri, 1991.-71 bet.
56. Muhsin Abul Muhammad Bokir ibi Muhammad Ali. Bahouddin Balogardon. - Toshkent: Yozuvchi, 1993. -230 bet
57. Nazarov X. Zahiriddin Muhammad Bobur asarlari uchun qisqacha lug'at. Toshkent: 1972.
58. Olim Sultonmurod. Naqshband va Navoiy. - Toshkent: O'qituvchi, 1996. - 216 bet.
59. Olimov S. Ishq, oshiq, ma'shuq. - Toshkent: Fan, 1992. - 81 bet.
60. Olimov S. Luqmai halol. - Toshkent: Fan, 1997. – 144
61. Orzibekov R. O'zbek lirik poeziyasida g'azal va musammat. - Toshkent: Fan,1976. - 119 bet.

62. O'zbek xalq dostoni. Qissai Ibrohim Adham. Huvaydo. Dostoni Ibrohim-
'Adham. - Samarqand: «Zarafshon», 1993. - 108 bet.
63. Qodirov P. YUlduzli tunlar. Roman. Toshkent: O'qituvchi, 1985.-488
bet.
63. Qudratullaev H.S. «Boburnoma»ning tarixiy-adabiy va uslubiy tahlili// DD
avtoreferat. Toshkent: 1998.-45 bet.
64. Qur'oni karim. - Toshkent: CHo'lpon, 1992. - 544 bet.
65. Qutbiddinov 3. Xo'ja Ahrori Valiy. - Toshkent: «Fan», - 1996.
66. Haqqulov I. Tasavvuf va she'riyat. - Toshkent: Adabiyot va san'at nashriyoti,
1990. - 192 bet.
67. Haqqulov I. Tasavvuf saboqlari. - Buxoro: BuxDU, 2000. - 142 bet.
68. Hasan Botirbek. Qur'oni karim so'zlarining arabcha-o'zbekcha ko'rsatkichli
lug'ati. - Toshkent: Adabiyot va san'at nashriyoti. 1995. - 519 bet.
68. Hojiahmedov A. Mumtoz badiiyat malohati. - Toshkent: «SHarq» nashriyoti -
matbaa konserni bosh tahririyati, 1996.
69. Homidiy H, Abdullaeva SH, Ibrohimova S. Adabiyotshunoslik terminlari
lug'ati. – Toshkent: O'qituvchi, 1967 -300 bet.
70. Hotamov N., Sarimsoqov B., Adabiyotshunoslik terminlarining
ruscha-o'zbekcha izoxdi lug'ati. Toshkent: O'qituvchi, 1979. -368 bet.
71. Husayniy A. Badoyi'u-s-sanoyi'. - Toshkent: G'.G'ulom yomidaga Adabiyot
va san'at nashriyoti, 1981.-400 bet.